


84
M-28



BIZNING SHAHRIMIZDA O'G'RI YO'Q

GABRIEL
GARCIA
MARKES

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

84	2116/2		
M-28	P. Markes		
Bizning shahrimizda			
o'qiti yoz			
2020			17710

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан
кечиктирилмаган ҳолда топирилиши шарт

Илгариги берилмалар миқдори _____

20/11-1651.20u
30/11-2084-205
9/1-1051.24u
27.2-670-21

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

GABRIEL GARSIA MARKES

**BIZNING SHAHRIMIZDA
O‘G‘RI YO‘Q**

Hikoya va roman



ZIYO NASHR

Toshkent
2020

UO'K: 821.111(73)-31
KBK 84(7Kol)
M 28

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

Q. OCHILOV, O. OTAXON

•

Nashriyotimiz siz aziz kitobsevarlarni Lotin Amerikasi adabiyoti durdonalari bilan ham tanishtirishni niyat qilgan. Qo'lingizdagi, Gabriel Garsia Markesning „Bizning shahrimizda o'g'ri yo'q“ hikoyasi hamda Migel Otero Silvaning „Yig'lagim kelsa ham yig'lamayman“ romanlari joy olgan mazkur kitob boshlagan xayrli ishimizning debochasidir.

ISBN 978-9943-6341-8-3

© Q. Ochilov, O. Otaxon (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

INVENTAR № 2116/2
3ahmad Akil

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugna-kiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqi-shar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L.N.Tolstoy, A.Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmato', Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'lab borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunolarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

**BIZNING SHAHRIMIZDA
O'G'RI YO'Q**

Hikoya

Damaso uyiga qaytganida xo'rozlar endi qichqira boshlagan, bo'yida yetti oylik homilasi bo'lgan xotini Ana uni yotoqda bedor kutib o'tirar edi. Chiroq xira tortib qolgandi. Damaso angladiki, xotini uni tuni bilan ko'zlari to'rt bo'lib, zor-intizor kutgan, hatto eshikdan kirib kelganiga qaramay, hamon kutayotir. Eri unga xotirjam nigoh tashlagan bo'ldi, lekin ayol og'iz ochmay, Damaso ko'tarib kelgan alvon matoli tugunchaga hadik bilan tikilib qoldi. Yig'lab yubormaslik uchun lablarini tishladi, titrab ketdi. Damaso lom-mim demay uning karsoniga jahd bilan ikki qo'llab yopishdi. Eridan kelayotgan qo'lansa ichkilik hidi dimog'ni kuydiray deydi.

Ana eri uni og'ushiga olib ko'targuncha jim turdi, so'ng butun vujudi bilan uning ko'ksiga bosh qo'yib, yo'l-yo'l chiziqli qirmizi ko'ylagiga yuzini bosgancha o'kirib yubordi. O'ziga kelib, nafasini rostlaguncha erini qo'yib yubormasdan, qattiq quchoqlab turaverdi.

– O'tirganimcha ko'zim ketib qopti, – dedi u hamon hiqillar ekan. – Qarasam, tushimda bexosdan eshik ochildi-yu, seni qip-qizil qonga bo'yalgan holda ichkariga uloqtirib yuborishdi. Ahvoling\ juda achinarli, xuddi hozir o'lib qoladigandek eding. Jarohatingdan tinmay qon oqardi.

Damaso xotining qo'llarini jimgina bo'shatdi-da, karavotning boya o'tirgan joyiga o'tqazdi va tugunchani oldiga tashlab, qovug'ini bo'shatish uchun hojatxona tomon yurdi. Tugunchani yechgan ayolning ko'zi urilaverib qavarib ketgan ikkita oq, bitta qizil bilyard soqqasiga tushdi.

Damaso qaytib kelganida u soqqalarga lol-u hayron tikilib o'tirardi.

– Bularni boshingga urasanmi? – deb so'radi ayol.

Eri beparvo yelka uchirdi:

– Bilyard o'ynayman.

Damaso soqqalarni yana alvon matoga o'rab, qo'lbo-la ombur, cho'ntakbop fonar va pichoq bilan birga sandiq tubiga yashirdi. Yechinmasdan to'rniga cho'zilgan Ana devor tomon o'girilib oldi. Damaso faqat shimini yechdi. To'shakka cho'zilib, tamaki tutatar ekan, tongoldi to-vushlari va shovqinidan o'zi qo'l urgan ishning qandaydir izlari-yu oqibatini ilg'ashga urindi. Ittifoqo xotini uxla-mayotganini sezib qoldi.

– Nimalarni o'ylab yotibsan?

– Hech narsani, – dedi ayol.

Fig'oni ko'kka o'rlagan Damasoning nafasi odatda-gidan ham pastroqqa tushib ketdi. Sigaretini oxirgi marta tortib, qoldig'ini tuprog'i chiqib yotgan polda ezg'ilab o'chirdi.

– Boshqa hech vaqo yo'q ekan, – dedi u xo'rsinib. – Bir soat sang'iganim qoldi.

– Otib tashlashmaganiga shukr qilsang-chi, – dedi Ana. Damaso seskanib ketdi.

– Nafasingni yel uchirsin! Damaso to'ng'illar ekan, o'zicha „tuf-tuf“ deb qo'ydi, sigaret va gugurt izlab, yerni paypaslay boshladi.

– Odam ham shunchalar ovsar bo'ladimi! – dedi

ayol. – Jilla qursa, mening mijja qoqmay kutib o‘tirishimni o‘ylasang bo‘lardi. Har gal ko‘chada tiq etgan tovush eshitilsa, kimdir sening murdangni olib kelayotganday bo‘lib, ich-etimni yeb o‘tiran. Ana chuqur xo‘rsindi. – Bor-yo‘g‘i padar la’nati shu uchta soqqani deb. Iloyo, shu soqqa-yu sharlari boshidan qolsin!

– G‘aladonida yigirma besh sentavodan boshqa hemiri ham yo‘q ekan.

– Yo‘q bo‘lsa, sharni boshingga urarmiding?

– Quruq qo‘l bilan chiqib ketishga bo‘ynim yor bermadi, – dedi Damaso. – Uyga so‘ppayib qaytib kelolmasdimku axir!

– Boshqa biror narsa olsang bo‘lardi.

– Qo‘lga ilinadigan narsa bo‘lmasa, nima qilay...

– Bilyardxonada-ya?

– Chetdan qaraganda shunday ko‘rinadi, – dedi Damaso. – Ichiga kirib, durustroq razm solsang, qo‘lga ilinadigan hech vaqo yo‘qligiga amin bo‘lasan.

Ana indamadi. Damaso xotini qorong‘ida ko‘zini ochib yotganicha arzigulik biror buyumni xayolan izlab topishga urinayotganini tasavvur qildi.

– Balki, rostdan ham shundaydir... – dedi ayol.

Damaso yana tamaki tutatdi. Uni sekin-asta sarxushlik tark etib, vujudidagi karaxtlik o‘rnini hushyorlik egalay boshladi.

– Bilyardxonada mushuk bor ekan, – dedi u. – Ka-at-takon oq mushuk.

Ana eri tomonga o‘girilib, qappaygan qornini Damasoning qorniga tiradi va oyog‘ini tizzalari orasiga tiqdi. Ayoldan piyoz hidi anqirdi.

– Jon-poning chiqib ketgandir?

– Kimning? Meningmi?

– Yana kimning bo‘lardi? – dedi Ana. – Eshitishimcha, quyonyurak erkaklar ham bo‘larkan.

Damaso xotini kulimsiraganini sezdi, o‘zi ham jilmaydi.

– Juda unchalik emasdir, – deb javob qildi u. – Lekin ishtonimni ho‘llab qo‘yishimga sal qoldi.

Xotini uni o‘pmoqchi bo‘lgan edi, ra’yini qaytarmadi, lekin o‘zi labini cho‘zmadi. So‘ng qo‘l urgan ishining bor xavf-u xatarini to‘la anglagan, biroq taassufdan mutlaqo yiroq bir holatda, go‘yo sayohatdan qaytgan sayyoh kabi boshidan o‘tganlarni ayoliga batafsil so‘zlab berdi.

Xotini uzoq jim qoldi. •

– Shu qilmishing juda ahmoqona ish bo‘ldi, – dedi Ana.

– Eng muhimi ishni boshlab olish, – dedi Damaso. – Indallosini aytganda, o‘yinboshiga unchalik yomon emas.

* * *

Damaso uyg‘onganida kun allaqachon qiyomdan og‘gan, quyosh osmondan ayovsiz olov purkab turar, Ana eshik-orada kuymalanib yurardi. Damaso boshini jo‘mrakning tagiga tiqib, hushi butunlay joyiga kelmaguncha suvdan chiqarmay turdi. Ular kir quritish uchun mo‘ljallab tortilgan simlar bilan yo‘laklarga bo‘lingan umumiy hovlidagi bir-biriga o‘xshash katalakday xonalardan birida yashaydi. Boshqalaridan tunuka bilan to‘sisib qo‘yilgan xonaning kiraverishida tamaddi tayyorlanadigan hamda dazmol qizitiladigan pech, yemakka va dazmol bosishga mo‘ljallangan stol turardi. Eri kelayotganini ko‘rgan Ana dazmollangan ichkiyimlarni olib, qahva tayyorlash uchun stolning chetidan joy ochdi, pechdagi dazmolni pastga tushirib qo‘ydi. U Damasodan ko‘ra ko‘rkamroq, terisi

g'oyat oq, o'ziga ishongan odamlarniki kabi harakatlari yengil juvon edi.

Boshi gangib turgan Damaso birdan xotini o'ziga nimadir demoqchi bo'lib, ko'zi bilan imlayotganini sezib qoldi. Hovlidan kelayotgan ovozlari ham e'tiborini tortdi.

– Kallayi sahardan hammaning og'zida shu gap, deb shivirladi u eriga qahva uzatar ekan. – Erkaklar allaqachon o'sha yoqqa gum bo'lishdi.

Hovliga ko'z tashlagan Damaso erkaklar ham, bolalar ham qayergadir g'oyib bo'lganiga ishonch hosil qildi. Qahvani shoshilmay ho'plar ekan, kir yoyishga chiqqan ayollarning gapiga quloq soldi. So'ng tamaki tutatdi va oshxonadan chiqdi.

– Teresa! – deb chaqirdi u.

Ayollar ichidan nam ko'ylagi badaniga yopishib qolgan bir qiz bo'y ko'rsatdi.

– Ko'zingga qara... – deb shipshidi Ana.

– Nima gap? – so'radi Damaso yoniga kelgan qizdan.

– Kimdir bilyardxonaga kirib, hamma narsani o'marib ketibdi, – dedi qiz.

U shunday chuldiray boshladiki, go'yo voqeaning butun mayda-chuydasigacha voqifdek. O'yinxonadan buyumlarning birma-bir olib chiqilgani-yu, oxirida bilyard stoli sudrab ketilganigacha aytdi. Qiz shunday komil ishonch bilan gapirar ediki, Damasoga aynan shunday bo'lganday tuyulib ketdi.

– Ahmoqlik ham evi bilan-da! – dedi u Ananing oldiga qaytib kelgach.

Ana nimanidir sekin xirgoyi qilishga tushdi. Damaso ichidagi xavotirni bosish uchun stolni devorga yana-da yaqinroq surib qo'ydi. Uch oy burun, u yigirmaga to'lganda, shu paytgacha katta mehr bilan parvarishlab

kelayotgan ingichkagina mo'ylabchasi uning chechakdan cho'tir bosgan yuziga biroz mardonavorlik bag'ishlagan edi. O'sha paytdan Damaso o'zini balog'atga yetgan erkak chog'lay boshladi. Lekin bu tong, o'tgan tundagi voqealarni eslab boshi yorilay deb turganida, o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi.

Dazmollashni tugatgan Ana ichkiyimlarni teng ikki uyumga bo'lib taxladi va ketmoqqa shaylandi.

– Tezroq qaytib kel, – dedi Damaso.

– Xo'p.

Damaso uning izidan xonaga kirdi.

– Mana bu katakgulli ko'ylaging, – dedi ayol. – Yo'l-yo'l chiziqli ko'ylakda ko'chaga chiqmay turganing ma'qul. – Damasoning mushuknikidek beg'ubor qiyiq ko'zlariga tikilgancha izoh berdi: – Bilmaymiz-ku, ehtimol, senga biror odamning ko'zi tushgandir.

Damaso ter bosgan kaftini shimiga ishqaladi.

– Hech kim ko'rgani yo'q.

– Qaydam... – deb takrorladi ichkiyimlarning har ikki taxlami tagiga ham navbati bilan qo'l yugurtirar ekan Ana. – Hozircha ko'chaga chiqmay turganing ma'qul. Avval men o'sha yoqqa borib, biroz aylanib kelay. O'zimni shunchaki yurganday ko'rsataman.

Nima bo'lganini shaharchada hech kim aniq bilmasdi. Ana tafsilotini har kimdan har xil yo'sinda eshitdi. Yuvilgan ichkiyimlarni egalariga tarqatib chiqqach, shanbadagi odatiga ko'ra bozorga emas, maydon sari yo'l oldi.

Bilyardxona oldida kutganidan ko'ra odam kamroq edi. Bodom soyasida bir necha kishi gangir-gungur suhbatlashib turar, tushlik qilayotgan rangdor ro'molli suriyalik tujjorlarning brezent ayvonlar tagidagi do-

konchalari ham oftobda mudrayotgandek tuyulardi. Mehmonxona ayvonidagi tebranma oromkursida bir odam qo‘l-oyog‘ini ikki tomonga kergancha, og‘zini katta ochib uxlab yotardi. Choshgohdagi jazirama hammani holdan toydirgan.

Ana bilyardxonadan biroz naridan o‘tayotib, eshik oldidagi sayhonlikda bir necha kishi turganini ko‘rdi va Damasoning gapini esladi. Ya‘ni, bilyardxonaning orqa eshigi borligini hamma biladi, lekin eshik sayhonlikka qaragani faqat kunda-shunda mijozlargagina ma‘lum. Bir daqiqadan so‘ng ayol qornini qo‘llari bilan bekitgancha, odamlar orasida, buzilgan eshikka qarab turardi. Osma qulf butun, lekin zulfinning bittasi sug‘urib olingan. Ana yolg‘iz odamning besamar mehnati haqida biroz o‘yga tol-gach, Damasoni achinish bilan esladi.

– Bu kimning ishi? – deb so‘radi u hech kimga qaramasdan.

– Kimligi noma‘lum, – dedi birov. – Uzunquloq gaplarga qaraganda, qandaydir musofirning ishi emish.

– Boshqa kim ham qilardi, – dedi Ananing ortida turgan ayol. – Bizning shahrimizda o‘g‘ri yo‘q. Hamma bir-birini yaxshi biladi.

Ana ayolga o‘girildi va jilmaygancha dedi:

– To‘g‘ri aytasiz. – Uning hamma yog‘idan ter oqayotgandi. Yonida bo‘ynini chuqur ajin bosib, munkillab qolgan bir chol turardi.

– Ko‘p narsa o‘marishibdimi?

– Ikki yuz peso bilan bilyard soqqalarini olishibdi, – deb javob qildi chol Anaga hayron qolarli darajada sinchkovlik bilan razm solar ekan. – Endi ko‘zimizni ochib uxlaymiz, shekilli.

Ana teskari o‘girildi.

– To‘g‘ri aytasiz, – dedi u yana. Ana boshiga ro‘molini tashladi va nari ketdi. Nazarida, chol uning ortidan kuzatib qolganday bo‘ldi.

Sayhonlikdagi to‘da go‘yo buzilgan eshik ortida bilyardxonada o‘lik yotganday chorak soatcha jim turdi. So‘ng odamlar junbushga keldi va to‘da maydon sari jildi.

Bilyardxona xo‘jayini alkald¹, tergovchi va ikki politsiyachi bilan eshik oldida turardi. Kaltabaqay, koptokdek dumaloq kattakon qorni shimini yorib yuboray deb turgan bu odamning qansharidagi ko‘zoynak bolalar yasaydigan o‘yinchoqqa o‘xshab ketardi. Yurish-turishidan izzat-nafsi oyoqosti qilingan odamning iddaosi shundoq sezilib turibdi.

Bekorchilar to‘dasi bilyardxona xo‘jayinini o‘rab oldi. Ana devorga suyangancha uning gaplariga quloq solib turdi. Sanqilar siyraklashgach, jaziramadan boshi g‘ovlagancha uyi tomon yurdi va bo‘lgan voqeani hamon qizg‘in muhokama qilayotgan qo‘shnilarning yonidan o‘tib, xonasiga kirdi.

Karavotda ag‘anab yotgan Damaso qayta-qayta hayratlanib o‘ylar, tonggacha uni mijja qoqmay kutib o‘tirgan Ana, nahotki, biror marta ham chekmagan bo‘lsa. Xonaga iljaygancha kirib kelib, boshidagi terdan jiqqa ho‘l bo‘lib ketgan ro‘molini yechayotgan Anani ko‘rib, u endi tutatgan sigaretini tuprog‘i chiqib, sigaret qoldiqlariga to‘lib ketgan polda ezg‘ilab tashladi. Butun vujudi quloqqa aylanib so‘radi:

– Xo‘sh?

Ana karavot yoniga tiz cho‘kdi.

– Sen nafaqat o‘g‘ri, hatto yolg‘onchi ham ekansan-ku.

¹ *Alkald* – Lotin Amerikasining ba’zi mamlakatlarida shahar hokimi. (*Tarjimon izohlari*).

– Bu nimasi?

– Sen menga stol tortmasida hech vaqo yo‘q ekan, deganding.

Damaso qoshlarini uchirdi.

– Ha, hech vaqo yo‘q edi.

– Ikki yuz peso bor ekan-ku, – dedi Ana.

– Yolg‘on! Damaso hayqirib yubordi, turib o‘tirdi va yana shivirlashga tushdi: – Bor-yo‘g‘i yigirma sentavodan bo‘lak hemiri ham yo‘q edi.

Ana ishondi.

– Qari tullak! – Damaso qo‘llarini musht qildi. – Basharasini teskari qilib qo‘yish kerak.

Ana yoyilib kuldi.

– Ahmoqlik qilma.

Damaso ham chidolmay, xaxolab kuldi. U soqolini olib bo‘lguncha xotini ko‘chada ko‘rgan-bilganlarini aytib berdi: politsiya musofirni izlayotganini, aytishlaricha, bu yerga payshanba kuni kelgan musofir kecha oqshom bilan eshik oldida girdikapalak bo‘lib yurgan. Mish-mishlarga qaraganda, uni hali topishganicha yo‘q.

Damaso o‘zi biror marta ham duch kelmagan notanish odamni tasavvur qilishga urinib ko‘rdi, hatto yuz bergan hodisaning aybdori rostdan ham o‘sha musofirday tuyulib ketdi.

– Balki, u juftakni rostlab qolgandir, – dedi Ana.

Damasoning yuvinib-taranishi uchun odatdagiday uch soat vaqt ketdi. Avval mo‘ylabiga erinmasdan oro berdi. So‘ng hovlidagi favvorada katta zavq va ishtiyoq bilan yuvindi. Ularning ilk uchrashuvidan beri bu zavqni hech kim va hech narsa so‘ndira olgani yo‘q. Yuvinib-taranish jarayonini Ana boshdan adog‘igacha mehr bilan tomosha qildi. Katakulli qizil ko‘ylakdagi Damaso uydan chiqish

oldidan oynaga qarayotganini ko'rgan Ananing nazarida, o'zi ancha keksayib, isliqisi chiqib qolgandek tuyuldi. Damaso bir silkindi va uning qarshisida jangga tayyor usta bokschining shay holatiga kirdi. Ana uning qo'lidan tutdi.

– Puling bormi o'zi?

– Men boyvachchaman-ku, kulib javob qildi eri. – Axir, ikki yuz pesom bor.

Ana devor tomonga burilib, etagidan naycha qilib o'ralgan pulni oldi va bir pesoni sug'urib, eriga uzatdi:

– Ma, ol, Xorxe Negrete¹.

* * *

Oqshom Damaso maydondagi ulfatlari oldiga bordi. Atrof-javonibdagi qishloqlardan bozorga kelgan odamlar shundoqqina pishiriq do'konlari va lotereya sotiladigan stollar orasidan joy topgan. Qosh qorayib ulgurmasidan har qadamda ularning xurragi eshitilardi. Damasoning ulfatlari, chamasi, bilyardxonadagi o'g'irlikdan ham ko'ra, mazkur muassasa yopilib qolganligi bois beysbol chempionatiga oid eshittirishni radiodan tinglash imkoniyatidan mahrum bo'lishganidan ko'proq tashvishda. Ular chempionat haqida o'zaro bahslashib, talashib-tortishgancha, hatto nima namoyish qilinayotganini so'rab-surishtirmasdan, kinoga qanday kirganlarini bilmay qolishdi.

Kantinflas² ishtirok etgan film ekan. Balkonning oldingi qatorida o'tirgan Damaso tinimsiz xaxolab kular, ko'nglida zarracha g'ashlik sezmas edi. Nazarida, dilini xira qiladigan barcha g'am-tashvishlar ortda qolgan.

¹ Xorxe Negrete – Lotin Amerikasida nom qozongan taniqli xonanda va kinoaktyor.

² *Kantinflas* – meksikalik komik kinoaktyor.

Ajoyib javzo oqshomi, film qahramonlarining muloqoti orasida projektorning tirillashigina eshitaladi, yomg'ir maydalab yog'ayotgandek, ochiq kinoteatr ustida yulduzlar og'ir sukutga cho'mgandek.

Daf'atan ekrandagi tasvir xiralashib, zalning to'rida g'ala-g'ovur ko'tarildi. Yarq etib chiroq yondi. Qo'lga tushdim, deb o'ylagan Damasoning nazarida, hamma o'ziga o'girilib qarayotganday tuyulib ketdi. Irg'ib turmoqchi bo'ldi. Lekin qarasa, hamma o'tirgan joyida qotib qolgan. Politsiyachi qo'liga o'rab olgan kattakon mis to'qali kamar bilan kimnidir g'azab ustida urayotgan edi. Savalanayotgan kimsa barvasta habash ekan.

Ayollarning dod-voyi eshitildi. Biroq politsiyachining ovozi ularning ayyuhannosi bosib ketdi:

– Itdan tarqagan! Itvachcha!

Qochib qutulmoqchi bo'lgan habash o'rindiqlar orasiga dumalab ketdi. Nihoyat, uni yana qo'lga olishdi. Boya to'qasini ishga solgan politsiyachi tutqunning qo'lini orqasiga burab bog'ladi va uchalasi uni urib-surib eshik tomon sudradi. Bu shunchalik tez sodir bo'ldiki, Damaso nima voqea yuz berganini habash yonidan o'tganidagina angladi. Habashning egnidagi ko'ylagi yirtilgan, yuzko'zini chang, ter va qon bosgan edi. U ho'nragancha bir so'zni tinimsiz takrorlardi:

– Qotillar! Qotillar!

Chiroq o'chib, yana film namoyishi davom etdi.

Nafasi ichiga tushib ketgan Damaso endi tinimsiz sigaret tutatar, ekrandagi voqealar esa shuuriga uzuq-yuluq, chala-chulpa yetib borar edi. Yana chiroq yondi. Tomoshabinlar vahima bosgandek atrofga olazarak qarashga tushdi.

– Bopladi! – dedi kimdir hayratini yashirolmay.

– Kantinflasga gap yo‘q, – dedi Damaso gap egasiga qaramasdan.

Olomon uni eshik oldiga surib olib borib qo‘ydi. Pi-shiriq sotuvchi xotinlar og‘ir idishlarini ko‘targancha uyiga tarqala boshladi. Soat o‘n birdan oshgan bo‘lsa-da, ko‘cha to‘la odam. Habashni qanday qo‘lga olishganini bilish ish-tiyoqida hamma tomoshabinlarning kinodan chiqishini ku-tar edi.

Bu gal Damaso xonasiga shunchalik imi-jimida kirib oldiki, ko‘zi ilingan Ana uning sharpasini sezganida, shift-ga tikilib yotgan eri allaqachon ikkinchi sigaretini chekib tugatayotgandi.

– Ovqat plitaning ustida, – dedi ayol.

– Qornim to‘q, – javob qildi Damaso.

Ana xo‘rsindi.

– Tush ko‘ribman, – dedi uyqusiragancha. – Nora mum-dan bolakaylarning haykalchalarini yasayotgan emish. – Shu gapni aytdi-yu, beixtiyor mizg‘iy boshlaganini ang-ladi va xijolat bo‘lgandek ko‘zini uqalagancha Damaso tomonga ag‘darildi.

– Musofirni qo‘lga olishibdi, – dedi ayol.

Damaso biroz sukut qildi.

– Kim aytdi?

– Kinoda qo‘lga olishibdi, – dedi Ana. – Hozir hamma o‘sha yoqqa ketdi.

Shunday qilib, Ana kinoteatrda bo‘lgan voqeani ha-qiqatdan juda yiroq qilib so‘zlab berdi. Damaso uning gaplarini to‘g‘rilab o‘tirmadi.

– Sho‘rlik... – xo‘rsindi Ana.

– Bu nima deganing? – jahli chiqdi Damasoning. – Seningcha, uning o‘rniga meni hibsga olishlari kerak-midi?


Ana erining fe'l-atvorini yaxshi bilardi. Shuning uchun javob berishni lozim topmadi. Xo'rozlar qichqira boshlaguncha tamaki chekishdan to'xtamagan yigitning og'ir-og'ir hansirashlariga quloq solib yotdi. Keyin eri o'rnidan turib, qorong'i xonada ilg'ash qiyin bo'lgan qandaydir ishga paypaslangancha kirishganini sezdi. Karavotning tagini kavlaganini (bu chorak soatdan ham ko'proq davom etdi), keyin yechinganini, hamma yumushni qorong'ida, iloji boricha sezdirmasdan bajarishga uringanini bilib yotdi. Bu paytda xotini xalaqit bermaslik uchun o'zini uxlaganga solib yotganini Damaso xayoliga ham keltirmas edi. Ayol ko'nglining tub-tubida nimadir g'imirlagan-day bo'ldi. U eri kinodan kelganini endi angladi va nima uchun sharlarni karavot tagiga ko'mganini ham tushundi.

Bilyardxona dushanba kuni ochildi. Ochildi-yu, darhol tekin tomoshaga suyagi yo'q, kunda-shunda shinavandalarga to'ldi. Bilyard stolining ustiga tashlab qo'yilgan kattakon binafsharang mato muassasaga motam ruhini bag'ishlab turardi. Devorga e'lon osilgan: „Shar yo'qligi sababli bilyardxona ishlamaydi“. Kelganlar yozuvni hech bir hayrat-u hayajonsiz o'qir edi. Ayrimlar esa uning oldida uzoq turib qolar va ajablanarli bir qaysarlik bilan qayta-qayta o'qirdi.

Damaso bilyardxonaga birinchilardan bo'lib kirdi. Umrining ancha-muncha qismini ishqibozlar o'rindig'ida shinavandalik bilan o'tkazgan yigit eshik ochilishi bilan yana o'zini bilyardxonaga urdi. Eng qiyini, nomiga bo'lsa-da ko'ngil so'rash edi. Damaso peshtaxta osha muassasa xo'jayinining yelkasiga qoqar ekan, dedi:

– Shunday ham ko'ngilsizlik bo'ladimi, don Roke!

Don Roke og'ir xo'rsinib, achchiq kular ekan, bosh irg'adi.



– Nachora... – dedi va mijozlarning ko‘nglini ovlashda davom etdi.

Peshtaxta oldidagi kursilardan biriga chiqib o‘tirgan Damaso binafsharang kafan ostidagi stolning ko‘lankasidan ko‘zini uzolmay qoldi.

– Mo‘jizaning o‘zi! – dedi u.

– Gapirmang, – dedi uning yonidagi kursida o‘tirgan kishi. – Ayni Pasxa arafasida shu ishni qilishganini ayt-maysizmi!

Qariyb barcha mijozlar uy-uyiga tarqalgach, Damaso musiqali avtomatning tuynugiga tanga tashlab, tablodagi ro‘yxatda eslab qolgani meksikacha balladani qo‘ydi. Bu paytda don Roke stol-stullarni zalning to‘riga tashiyotgan edi.

– Nega bunday qilyap̣siz? – so‘radi Damaso.

– Qartaga joy hozirlayapman. Shar olib kelgunlaricha odamlarni nima bilandir ovuntirib turishim kerak-ku.

Ikki qo‘liga ham stul ko‘targancha ko‘zi ojizdek avaylab qadam tashlayotgan bu odam yaqinda xotinidan ajrab, so‘qqabosh bo‘lib qolganga o‘xshardi.

– Sharlarni qachon olib kelishadi o‘zi? – deb so‘radi Damaso.

– Xudo xohlasa, bir oydan nariga o‘tmas.

– Ungacha eskilarini topishadi, dedi Damaso.

Don Roke qator turgan stollarga mamnun nazar tashladi.

– Topisholmaydi, – dedi yengi bilan peshonasini artar ekan. – Zanjiga shanba kunidan beri ovqat berishgani yo‘q. Sharlarni qayerga gumdon qilganini aytmayapti. – U Damasoga ter bosgan oyna osha qaradi. – Ularni daryoga tashlab yuborgan bo‘lsa kerak.

Damaso labini tishladi.

– Ikki yuz peso-chi?

– Pul ham yo‘q, – javob qildi don Roke. – Zanjining cho‘ntagidan bor-yo‘g‘i o‘ttiz peso chiqibdi.

Ular beixtiyor bir-biriga termilib qolishdi. Bu termilish ikki hamtovoqning bir-biriga o‘qrayib qarashiga o‘xshab ketganini Damaso izohlab berolmagan bo‘lar edi.

Kech kirib qolganda kirxonada turgan Ana erining uyga ne alfozda qaytayotganini ko‘rdi: u mohir bokschilardek sakrar va ko‘zga ko‘rinmas raqibiga tinimsiz zarba berar edi. Ayol uning ortidan xonaga kirdi.

– Hammasi joyida, – dedi Damaso. – Chol eski sharlardan umidini uzib, yangilariga buyurtma beribdi. Umid qilamizki, chol ularni ololmaydi.

– Zanji nima bo‘pti?

– Vahimaga o‘rin yo‘q, – yelkasini uchirgancha javob berdi Damaso. – Yonidan shar chiqmasa, qo‘yib yubormay nima ham qilishardi.

Kechki ovqatdan so‘ng Ana bilan Damaso ko‘cha eshigi oldida qo‘shnilari bilan kinoxona dinamigining uni o‘chguncha gaplashib o‘tirishdi. Uxlash uchun to‘shakka cho‘zilganlarida Damasoning dimog‘i chog‘ edi.

– Bu dunyodagi eng quling o‘rgilsin ishni o‘ylab topdim, – dedi u.

Ana sezdi, Damaso o‘zi bilan baham ko‘rmoqchi bo‘layotgan fikrini tun bo‘yi miyasida pishitib chiqqan.

– Shaharchamizni kishibilmas sekin aylanib chiqamanda, biridagi sharlarni o‘marib, boshqasiga pullayman. Bilyardxona deganing har qadamda.

– Aylanganing burningdan buloq bo‘lib chiqmasin tag‘in, itday qilib otib tashlashadi.

– Vahimangni qara-yu: otib tashlasharmish, – dedi u. – Unaqasi faqat kinoda bo‘ladi.

Quvonch to'la rejalaridan masrur Damaso xona o'rta-sida turardi. Ana esa sirtidan qaraganda befarq, aslida, erining gaplarini ko'nglida katta xavotir bilan eshitgancha yechina boshladi.

– Mana shuncha kastum sotib olaman, – Damaso qulochini keng yozib, tasavvuridagi shkafning ikki devor orali-g'ini ko'rsatdi. – Mana bu yerdan huv anavi yergacha. Yana ellik juft poyabzalim ham bo'ladi.

– Xudo yo'lingni bersin, dedi xotini.

Damaso unga yovqarash qildi.

– Mening ishlarim bilan sira qiziqmaysan.

– Kurakda turmaydigan rejalarindan qo'rqaman, – dedi Ana. So'ng chiroqni o'chirib, devor tomonga o'tib yotdi va alam bilan gapini davom ettirdi: – Sen o'ttizga kirganingda, men qirq yettidan oshaman.

– Jinnilardek gapirma, – dedi Damaso.

U gugurt izlab cho'ntagiga qo'l tiqdi.

– O'shanda sen ham birovlarining ko'ylak-ishtonini yuvishdan qutulasan, – deb qo'shib qo'ydi yigit bo'shashibroq.

Ana unga gugurt chaqib uzatdi va olov o'chguncha alangaga qarab turdi. Kuyib kulga aylangach, cho'pni chetga otib yubordi. Orzumand yigit to'shakka cho'zildi va yana gap xaltasini ochdi:

– Bilyard soqqasini nimadan yasashlarini bilasanmi?

Ana indamadi.

– Filning tishidan, – dedi u. – Shuning uchun uni topish amrimahol. Bu yerga olib kelguncha kamida bir oy o'tadi. Tushundingmi?

– Uxla, – uning gapini bo'ldi Ana. – Beshda turishim kerak.

Damaso o'zining tabiiy holatiga qaytdi. Odatda, kun

qiyomga kelguncha to'shakda chekib yotaveradi. Keyin esa ko'chaga chiqish oldidan o'ziga qaragan kishi bo'ladidi. Oqshomlari bilyardxonada radiodan beysbol bo'yicha chempionatga oid eshittirishni tinglaydi. Uning qoyilmaqom yana bir qobiliyati – miyasida fikr qanchalik tez tug'ilsa, shunchalik tez unutiladi.

– Puling bormi? – deb so'radi u shanba kuni Anadan.

– O'n bir pesogina, – dedi xotini va keyin ohista qo'shib qo'ydi: – ijara haqini to'lashimiz kerak.

– Senga aytadigan bir gapim bor.

– Xo'sh?

– O'sha pulni menga berib tur.

– Uy egasiga berishim kerak.

– Keyin berasan.

Ana norozi bosh chayqadi. Damaso uning qo'lidan mahkam ushladi-yu, ikkalasi hozirgina nonushta qilib bo'lgan stol yonidan turg'izmay qo'ydi.

– Bor-yo'g'i ikki-uch kunga, – dedi u muloyimlik bilan ayolning qo'lini silar ekan. – Sharlarni sotgan kunim pulga ko'milib qolamiz.

Ana ko'nmadi.

Oqshom kinodagi tanaffus paytida ulfatlari bilan gap-xona qilish chog'ida ham qo'lini xotining yelkasidan olmadi. Filmni nomiga tomosha qilgan bo'ldilar. Alaloqibat, Damasoning sabri tugadi:

– Bermasang, tortib olaman, – dedi u.

Ayoli yelkasini uchirdi.

– Yo ko'chada duch kelgan odamni bo'g'ib o'ldiraman, – deb do'q urdi Damaso Anani kinodan chiqayotgan olomon tomon itarar ekan. – Keyin qotilligim uchun qamashadi.

Ana o'zicha jilmayib qo'ydi. Lekin yana sir boy bermadi.

Ikkalasi tun bo'yi janjallashib chiqishdi. Ertalab esa Damaso zo'r iddao va tahdid bilan tez kiyindi-da, Ananing yonidan o'tar ekan, to'ng'illadi:

– Kutib o'tirma. Endi bu yerni yelkamning chuquri ko'rsin.

Ana vujudini junbisha keltirgan titroqni bosolmadi.

– Oq yo'l! – deb hayqirdi uning ortidan.

Eshikni qattiq yopib chiqib ketgan Damaso uzundan uzoq, ma'no-mazmunsiz yakshanbaga qadam qo'ydi. Bozordagi ko'zni o'ynatuvchi to'kinlik, sakkiz soatga cho'zilgan ibodatdan so'ng cherkovdan bolalarini yetaklab chiqqan ayollarning yaltir-yultur kiyimlari maydonga xurramlik bag'ishlab turgan bo'lsa-da, havoni rutubatli jazirama o'z zabtiga olib ulgurgan.

Damaso kunni bilyardxonada o'tkazdi. Ertalab bir-ikki bekorchi qartani ermak qilib o'tirgan bo'lsa, tushlikka yaqin odam sal ko'payganday tuyuldi. Ammo ermakxonadan fayz ketgani shundoqqina ko'rinib turardi. Faqat kechqurun, beysbol chempionatidan eshittirish boshlanganidan so'nggina bilyardxonani avvalgi qaynoq hayotni eslatuvchi gavjumlik egalladi.

Bilyardxona yopilgach, Damaso qonga botgandek ko'ringan qandaydir maydonda nima qilarini, qayerga borarini bilmay tentiradi. U sohil bo'ylab cho'zilib ketgan ko'cha oxiriga, quvnoq musiqa sadosi kelayotgan tomonga yurdi. Damaso rangi unniqib ketgan qog'oz gullar bilan bezatilgan keng va bo'm-bo'sh raqs zali, zalning to'rida, yog'och sahnada esa kichik orkestrga duch keldi. Havodagi labbo'yoq hidi dimoqni kuydiray derdi.

U baland peshtaxta yoniga borib o'tirdi. Musiqa tingach, orkestrda likopchada kuy chalgan mashshoq yigitcha raqs tushayotganlarni oralab pul yig'ib chiqdi.

Qandaydir qiz hamrohini tashlab, Damasoning oldiga keldi:

– Ishlar qalay, Xorxe Negrete?

Damaso uni yoniga o‘tqazdi. Qulog‘iga chinnigul qis-
tirib, yuziga qalin upa surtib olgan mayxonachi sahnada
ashula aytayotgandek baland ovozda so‘radi:

– Nima ichadilar?

Qiz Damasoga qaradi:

– Nima ichamiz?

– Zahar.

– Men to‘layman.

– Gap pulda emas, – dedi Damaso. – Qornim och.

– Bechoraginam! – dedi mayxonachi. – Ko‘zlariga qa-
rang, ko‘zlariga!

Ular zalning to‘ridagi oshxona tomonga o‘tdilar. Xush-
bichimligiga qaraganda qiz hali ancha yosh. Lekin yuziga
qalin surtilgan qirmizi rang, upa va yaltiragan labbo‘yog‘i
uning asl yoshini yashirib turardi.

Damaso ovqatlanib bo‘lgach, oromga ketgan hayvon-
larning pishillashi eshitilib turgan qorong‘i yotoqxonaning
oxiridagi qizning xonasiga kirdilar. Karavotda parchagulli
lattaga o‘ralgan chaqaloq yotardi. Qiz lattani yog‘och ya-
shikka to‘shab, chaqaloqni yana unga o‘radi va yashikni
polga qo‘ydi.

– Chaqaloqni sichqonlar yeb qo‘yishi mumkin, – dedi
Damaso.

– Sichqonlar chaqaloq yemaydi, – dedi qiz.

Qiz qizil ko‘ylagini ancha ochiq-sochiq, yirik sariq gul-
li ko‘ylagiga almashtirdi.

– Chaqaloqning otasi kim? – deb so‘radi Damaso.

– Men qayerdan bilaman, – dedi qiz va eshik oldiga
borgach, qo‘shib qo‘ydi: – Hozir kelaman.

Damaso uning eshikni tashqaridan qulflaganini eshitdi. Kiyimlarini stulga ilib, karavotga cho‘zildi va bosib-bosib chekdi. To‘shak tashqaridan eshitalayotgan kuyga mos tebranar edi. U ko‘zi ilinganini sezmay qoldi. Uyg‘onganida musiqa tingan, xona yana-da kengayib ketgandek tuyulardi.

– Soat necha bo‘ldi?

– To‘rtga yaqinlashib qoldi. Bola yig‘lamadimi?

– Yig‘lamadi, shekilli, – javob berdi Damaso.

Qiz Damasoning yoniga cho‘zildi va mastona ko‘zlarini yigitdan uzmay, uning ko‘ylak tugmalarini yecha boshladi. Damaso uning bo‘kib ichganini sezdi. Chiroqni o‘chirmoqchi bo‘lgan edi:

– Qo‘yaver, – dedi qiz. – Ko‘zlaringni tomosha qilgim kelyapti. Ko‘zlaring jonni oladi.

Tongga yaqin xona nahorgi tovushlarga to‘lib ketdi. Go‘dak yig‘ladi. Qiz uni to‘shakka olib, labiga ko‘kragini tutdi. Og‘zini ochmasdan uch qator she‘rni takror va takror g‘o‘ldirab, alla qilib aytgan bo‘ldi. So‘ng hammalari yana dong qotib uxlab qolishdi. Soat yettiga yaqin qiz uyg‘onib, xonani tark etganini Damaso sezmadi. Qiz ko‘chadan endi chaqaloqsiz qaytib keldi.

– Hamma sohilga qarab ketyapti, – dedi u.

Damaso o‘zini bor-yo‘g‘i bir soatgina uxlaganday his qilib, horg‘in turgan edi.

– Nega?

– Bilyardxonani o‘margan zanjini tomosha qilgani, – deb javob berdi qiz. – Uni bugun jo‘natishar ekan.

Damaso tamaki tutatdi.

– Bechoragina, – deb xo‘rsindi qiz.

– Nega bechora bo‘larkan? – deb o‘shqirdi Damaso. – Hech kim uni itvachcha bo‘lsin deb majbur qilmagan.

Qiz boshini eggancha o'ylanib qoldi, so'ng ovozinini pasaytirib dedi:

– O'g'rilikni u qilmagan.

– Bu gapni senga kim aytdi?

– Men aniq bilaman. Bilyardxonani tunashgan tunda zangi Gloriyaning uyida edi. Ertasiga ham kun bo'yi, kechgacha o'sha yerda bo'lgan. Keyin kinodan kelganlar uni hibsga olishdi, deb aytishdi.

– Gloriya politsiyaga shularni aytishi mumkinmi?

– Zanjining o'zi allaqachon shunday deb aytgan. Al-kald kelib, Gloriyaning xonasini ostin-ustun qilib tashladi. O'g'rining hamtovog'i sifatida seni ham qamataman, deb do'q-po'pisa qildi. So'ng hammasi yigirma peso bilan bosdi-bosdi bo'ldi.

Damaso sakkizga yaqin to'shakdan turdi.

– Qola qol, – dedi qiz. – Tushlikda tovuq so'yaman.

Damaso qo'lidagi taroqqa ilashgan sochlarni qoqib, taroqni shimining orqa cho'ntagiga tiqdi.

– Ilojim yo'q, – dedi.

U qizning qo'lidan tutib, o'ziga qaratdi. Olxo'ridek katta-katta ko'zlari g'oyat ma'sum boquvchi qiz yuvinib-taranganidan keyin juda norasida bo'lib ko'rinardi. U Damasoni bag'riga bosib, yana takrorladi:

– Qolaqo-ol!

– Butunlaymi?

Yuziga sal qon yugurgan qiz yigitni og'ushidan qo'yib yubordi.

– Yolg'onchi!

* * *

Ana ertalabdan o'zini juda horg'in his qilardi. Lekin hammani qamrab olgan hayajon unga ham yuqdi. Mijoz-

laridan yuviladigan ichkiyimlarni odatdagidan ertaroq yig'ib olib, habashni qanday jo'natishlarini tomosha qilish uchun sohil tomon yurdi. Bandargohdagi suzishga tayyor kemalar oldini betoqat odamlarning g'ala-g'ovuri bosib ketgan. Damaso ham shu yerda edi.

Ana ko'rsatkich barmog'i bilan uning biqiniga turti.

– Sen bu yerda nima qilib yuribsan? – deb so'radi cho'chib tushgan Damaso.

– Sen bilan xayrlashgani keldim.

Damaso moychiroq osilgan simyog'ichni taqillatdi.

– Ha tilginangga chechak chiqsin sening! – dedi.

Sigaret tutatib, bo'sh qutiⁿⁱni daryoga otdi. Ana etagidan yangi quti chiqarib, uning ko'ylagi cho'ntagiga solib qo'ydi. Yigit noiloj iljaydi.

– Jinnisan demaganm^{idim}, – dedi u.

– Ha-ha-ha! – kuldi Ana.

Tez orada habashning qorasi ko'rindi. Uning qo'li orqasiga qayrilib, chilvir bilan bog'langan va chilvirning uchini politsiyachi ushlab olgan edi. Mahbusni maydonning o'rtasidan olib o'tishdi. Ikki yonida miltiq ko'targan yana ikki politsiyachi. Yarimyalang'och habashning pastki labi yorilgan, qovog'i bokschilarniki kabi shishib ketgan. U o'ziga tikilib turgan olomonning oldidan jabrdiyda qiyofasida mag'rur yurib o'tdi. Bilyardxona yonida voqeaning ikki ishtirokchisini tomosha qilish uchun yig'ilgan bekorchilar ayniqsa ko'proq edi. Muassasa xo'jayini eshik oldida nadomat bilan bosh chayqagancha habashga jim qarab turardi. Odamlar mahbusni g'azab bilan kuzatmoqda edi.

Kema joyidan qo'zg'aldi. Habashni paluba orqali olib o'tishib, qoramoy to'la sisternaga qo'l-oyog'idan bog'lab qo'yishdi. Daryo o'rtasiga yetib, o'z yo'liga tushib olgan

kema oxirgi marta jom chalganida habashning yelkasi yaltirab ketdi.

– Bechora, – deb shivirladi Ana.

– Ablahlar, – dedi uning yonida turgan bir bekorchi. – Bunday oftobning tig'iga odam bolasi dosh bera oladimi?

Damaso qarasa, gapirgan qandaydir xo'ppa semiz ayol ekan. Yigit olomon orasidan maydon sari yorib o'ta boshladi.

– Tiling kesilsin sening! – deb shivirladi Ananing yoniga kelib. – Butun maydonni boshingga ko'tarib baqirishing qoldi.

Ana Damasoning izidan bilyardxonagacha ergashib bordi.

– Kiyimlaringni almashtirib olsang bo'lardi, – dedi u Damasoga ketish oldidan. – Xuddi gadoyga o'xshab qolibsan.

Kema ko'zdan yo'qolgach, ko'pchilik g'ala-g'ovur bilan o'zini bilyardxonaga urdi. Hammaning ko'nglini olishga urinayotgan don Roke stollar orasida pildirab yurardi. Damaso uning yaqinroq kelishini kutdi.

– Yordamlashib yuboraymi?

Don Roke uning oldiga boshiga stakan kiydirilgan besh-olti shisha pivo qo'ydi.

– Rahmat, bolam.

Damaso shishalarni stollarga tarqatib, yangi buyurtma qabul qildi. Mijozlar tushlikka tarqalguncha pivo to'la shishalarni tarqatib, bo'shini yig'ish bilan band bo'ldi. Tongda xonasiga qaytganda, Ana uning kayfitaroqligini sezdi. Erining qo'lini olib, qorniga qo'ydi.

– Silab ko'r, – dedi u. – Sezyapsanmi?

Damaso harakat alomatini sezmadi.

– Qimirlayapti, – deb gapida davom etdi ayol. – Tun bo‘yi oyoqchalari bilan tepinib chiqdi. – Lekin erning bu gaplarni eshitishga rag‘bati sezilmadi. O‘z o‘y-xayollari bilan band Damaso ertasi kuni kallayi saharda uydan chiqib ketdi va tun og‘gandan keyingina qaytib keldi. Hafta shunday o‘tdi. U to‘shakda ag‘anab yotish-u tamaki tutatish bilan uyda vaqt o‘tkazgan kamdan kam paytlarda ham gaplashishdan o‘zini olib qochardi. Ana unga poyi-patak bo‘lishni yana kuchaytirdi. Ikkalasi birga yashay boshlagan dastlabki paytlarda ham Damaso ba‘zan shunday tundlashar, hali erining fe‘l-atvorini yaxshi bilmagan xotin uning asabini buzardi. Shunda Damaso uni to‘shakka yotqizib, ustiga mini¹ olar va qora qoniga botirib savalardi.

Endi ayol alamini ichiga yutishni o‘rgangan. U kechaning o‘zidayoq chiroq oldiga bir quti sigaret qo‘ydi. Biladiki, Damaso ochlikka ham, chanqoqqa ham chidashi mumkin, lekin tamakisiz yashay olmaydi.

Shunday qilib, Damaso bir oqshom, iyunning ikkinchi yarmi edi o‘shanda, uyga ertaroq keldi. Ayol o‘yladiki, eri bunchalik erta qaytdimi, demak, ichkilikka ertaroq to‘yib olgan. Ko‘ngliga xavotir oraladi. Jim tamaddi qildilar. Yotganlarida xayoli g‘oyat parishon, sarosimaga tushgan Damaso birdan tilga kirdi:

– Ketmoqchiman.

– Qayoqqa?

– Qayoqqa bo‘lsa ham farqi yo‘q.

Ana xonaga boshdan oyoq ko‘z yugurtirib chiqdi. Jurnal muqovalaridan o‘zi kesib, o‘zi yopishtirgan va butun devorni bezab turgan kinoaktyorlarning rangli suratlari unniqib, yirtilib ketibdi. Ayol o‘zining og‘ushida orom olib, ushbu suratlarni tomosha qilgan va ranglaridan hayratga

tusha-tusha ularni xotirasiga muhrlab ketgan erkaklarning sanog'ini ham unutgan edi.

– Men yoqmay qoldimmi? – deb so'radi Ana.

– Gap senda emas, – dedi Damaso. – Shaharda...

– Shahrimizga nima bo'пти? Ko'p qatori bir joy-da.

– Sharlarni sotib bo'lmayapti.

– Sharni unut, – dedi Ana. – Xudo menga quvvat berib, kir-chir chayib tursam, seni bunaqa xor qilib qo'ymayman. So'ng birpas sukut saqlagach, yana dedi: – Bu kasofat ish qayerdan ham aqlingga keldi, hech tushunolmayapman!

Damaso sigaretini oxirigacha chekdi va javob qildi:

– Xamirdan qil sug'urganday oson ish edi. Shu paytgacha nega boshqa odamning xayoliga kelmaganiga hayronman.

– Pul masalasida haqsan, – erining gapiga qo'shildi Ana. – Lekin kelib-kelib shar o'g'irlash uchun tavakkal qiladigan sendaqa nodon bo'lmasa kerak.

– Boshida kalta o'ylagan ekanman, – dedi Damaso. – Sharlarni peshtaxta ortidagi qutida ko'rganimda xayolim buzilgan edi. Shuncha mehnat qilib, quruq qo'l bilan ketamanmi, deb o'yladim.

– Sho'ring qursin, – dedi Ana.

Damaso yengil tortdi.

– Yangi shar jo'natishmayapti, – dedi u. – Aytishlari-cha, narxi qimmatlashgan emish. Don Roke ham endi shar sotib olishdan foyda yo'q, deydi.

U yana sigaret tutatdi. Gapirayotganida dili qandaydir og'ir darddan forig' bo'layotganini sezdi.

Damaso don Roke bilyard stolini sotishga qaror qilganini aytdi. Stol endi hech narsaga arzimaydi. Tajribasiz o'yinchilarning urinib-surinishi bilan movut qoplamasi ilma-teshik bo'lib, yamoq tushmagan joyi qolmagan. Yangi

stol olmasa bo'lmaydi. Bilyard soqqasini surib soch-soqoli oqargan mijozlarni esa hozircha beysbol chempionati bilan ovuntirib turishdan o'zga chora yo'q.

– Shunday qilib, – dedi Damaso, – istasak-istamasak, hammaga pand berdik.

– Sariq chaqalik ham foyda ko'rmadik, – qo'shimcha qildi Ana.

– Keyingi haftada chempionat ham tugaydi, – dedi Damaso.

– Bunisi hali holva, – dedi Ana. – Hammasidan habash masalasi o'tib tushdi.

Ayol avvalgidek Damasoning ko'ksiga boshini qo'yib yotar va erining xayolidan nimalar o'tayotganini sezayotgandi. Eri sigaretini chekib tugatishini kutib turdi. So'ng qo'rqa-pisa so'z qotdi:

– Damaso.

– Nima?

– Joyiga qo'yish kerak.

Damaso yana sigaret tutatdi.

– Necha kundan beri o'zim ham shuni o'ylab yuribman, – dedi u. – Faqat qanday olib borib qo'yishni bilmayman.

Ular avvaliga sharlarni gavjumroq joyga tashlab ketmoqchi bo'lishdi. Yana Ana o'yladiki, bu yo'l bilyardxona muammosini bir yoqlik qilgani bilan, habashning mushkulini yengillatishi qiyin. Politsiya aybni tutqunning zimmasidan soqit qilmagani holda sharlarning topilganini har xil talqin etishi mumkin. Bilyard soqqalarini topib olgan odam esa ularni boshqaga pullash ilinjida egasiga bermasligi ham ehtimoldan xoli emas.

– Bir ishga qo'l urgandan keyin uni oxiriga yetkazish kerak, – deb gapiga yakun yasadi ayol.

Sharlarni ko'milgan joyidan kovlab olishdi. Ana ularni gazetaga shunday boplab o'radiki, tugundagi shakl-shamoyili ko'zga tashlanmaydigan bo'ldi. So'ng sandiqqa solib qo'ydi.

– Endi qulay paytni poylaymiz, – dedi u.

Ammo ikki hafta o'tsa ham o'sha fursat kelavermadi.

O'n ikkinchi avgustning kech oqshomida, o'g'irlikdan so'ng rappa-raso ikki oy o'tgach, bilyardxonaga kelgan Damaso don Rokeni baland peshtaxta ortida ko'rdi. U palma yaprog'idan to'qilgan yelpig'ich bilan pashsha qo'rib o'tirardi. Radioning uni o'chgan, bu sokinlikda cholning yolg'izligi yana-da yaqqolroq sezilardi.

– Xo'sh, men senga aytganimday bo'ldimi? – deb hayqirdi don Roke taxmini to'g'ri chiqqanidan quvongan-day. – Hammasi ostin-ustun bo'lib ketdi!

Damaso musiqali avtomatning tuynugiga chaqa tashladi. Kuchli shovqin, lip-lip o'chib-yonayotgan rang-barang chiroqlar shu'lasini, nazarida, Damasoning bilyardxonaga bo'lgan sadoqati-yu mehrini namoyish etib turardi. Faqat don Roke buni tushunmayotgan edi, chamasi. Damaso uning yoniga o'tirib, cholg'a ishonish qiyin bo'lgan poyintar-soyintar gaplar bilan taskin bergan bo'ldi. Don Roke uning gaplarini yelpig'ichni silkib o'tirib, loqayd tingladi.

– Nachora, – dedi u. – Beysbol chempionati bir umr davom etmaydi.

– Lekin sharlar topilishi mumkin.

– Topilmaydi.

– Habash ularni yeb-yutib yubormagandir axir.

– Politsiyaning izlamagan joyi qolmadi, – dedi don Roke asabga tegadigan bir ishonch bilan. – Habash sharlarni daryoga tashlagan.

– Birdan mo‘jiza yuz bersa-yu, sharlar topilib qol-sa-chi?

– Xomtama bo‘lma, o‘g‘lim, – javob berdi don Roke. – Ishlar pachava. Nima, sen mo‘jizaga ishonasanmi?

– Ba‘zan.

Damaso bilyardxonani tark etganida odamlar hali kinodan chiqmagan edi. Quloqni qomatga keltiruvchi gaplar sadosi uyquga ketgan shahar uzra goh o‘chib, goh yana eshitar, hozircha ochiq turgan eshiklar ham yopilib qoladigandek tuyulardi. Kinoteatr atrofida biroz aylanib yurgan Damaso raqsxona tomon yurdi. Zalda yagona mijoz qolgan. Mashshoqlar yolg‘iz o‘zi ikki ayol bilan raqs tushayotgan o‘sha odam sharafiga soz chalmoqda. Devor bo‘ylab saf bo‘lib turgan ayollar esa qandaydir muhim xabarni kutayotganga o‘xshardi. Damaso stolga o‘tirib, mayxonachiga pivo olib kel, deb ishora qildi. Shishaning bo‘g‘ziga og‘zini qo‘yib pivo ichar ekan, faqat nafasini rostlash uchungina bir lahza to‘xtar va bir yo‘la ikki ayol bilan raqsga tushayotgan erkakni shisha orqali tinmay kuzatardi. Ayollarning ikkalasi ham erkakdan barvastaroq.

Tun og‘ganda kinodan chiqqan ayollar, so‘ng ularning izidan ilakishgan erkaklar paydo bo‘ldi. Orasida Damasoning yangi jazmani ham bor ekan. Uning stoliga kelib o‘tirdi.

Yigit qizga qayrilib ham qaramadi. Allaqachon besh shisha pivoni sipqorgan azamat hamon raqs tushayotgan erkakdan ko‘zlarini uzolmasdi. Endi bir yo‘la uch ayol bilan girillab aylanayotgan raqqos esa yonidagi ojizalarga zarracha e‘tibor bermas, o‘z oyoqlarining muqomiga mahliyo bo‘lib ketgan edi. Erkak baxtliga o‘xshab ko‘rinardi, lekin oyoq-qo‘lidan tashqari dumi ham bo‘lsa, u o‘zini yana-da baxtliroq his qilishi sezilib turardi.

– Bu nusxa menga yoqmayapti, – dedi Damaso.

– Yoqmayotgan bo‘lsa, qarama, – deb maslahat berdi qiz.

Qiz mayxonachidan ozroq ichimlik so‘radi. Raqs maydonchasi erkag-u ayol juftligi bilan to‘ldi. Lekin uch xonim bilan raqs tushayotgan erkak zalda hamon o‘zini hokimi mutlaq his qilmoqda. Qaysidir bir harakat asnosida uning nigohi Damasoning nigohiga to‘qnashdi. Erkak oyog‘ini yana-da chaqqonroq jilpanglatar ekan, quyonnikidek mayda tishlarini ko‘rsatib tirjaydi. Damaso unga kiprik qoqmay tikilib turdi. Nihoyat, raqqosning bardoshi tugab, tirjayishdan to‘xtadi va yuzini teskari burdi.

– O‘rgildim sendaqa ulfati jondan, – dedi Damaso.

– Rostdan ham ulfat odamga o‘xshaydi, – dedi qiz. – Qachon kelsa, barcha tujjorlarga o‘xshab, o‘zining hisobidan musiqa qo‘ydiradi.

Damaso qizga yovqarash qildi.

– Unda sen ham bor, pinjiga kira qol, – dedi u. – Uch nonxo‘rning yonidan to‘rtinchisiga ham joy topiladi.

Qiz indamadi, lekin qo‘lidagi ichimlikni maydalab ho‘plar ekan, raqs maydonchasiga qarab o‘girilib oldi. Ustidagi ohori ketgan sariq ko‘ylakda u g‘oyat ma’suma ko‘rinardi.

Ular raqs tushgani turishdi. Damasoning hamon qovoq-tumshug‘idan qor yog‘ar edi.

– Ochimdan o‘lay deyaipman, – dedi qiz va uning biligidan ushlab, peshtaxta tomon yetakladi. – Sen ham biror narsa yeb olishing kerak.

Ulfati jon o‘zining uch ayoli bilan ularning qarshisidan chiqdi.

– Menga qarang!.. – dedi Damaso.

Erkak tirjaydi, lekin qadamini sekinlatmadi. Damaso qizning qo‘lini siltab tashlab, raqqosga ko‘ndalang bo‘ldi.

– Menga sizning tishingiz yoqmayapti!

Erkakning rangi o‘chdi, lekin tirjayib turaverdi.

– O‘zingga ham yoqmaydi, – dedi u.

Qiz to‘xtatishga ulgurmadi, Damaso erkakning basharasiga yaxshilab musht tushirdi va raqibi maydonchaning o‘rtasida o‘tirib qoldi. Atrofdagilardan hech kim oraga tushmadi. Uch ayol ularni ajratish uchun ayyuhannos solgancha Damasoga yopisha ketganida qiz jazmanini zalning to‘riga surib borib qo‘ygan edi. Yuzining pachag‘i chiqib, dabdalla bo‘layozgan erkak zo‘rg‘a oyoqqa turdi va maymunga o‘xshab bir sakradi-da, zalning o‘rtasiga borib qichqirdi:

– Chal sozingni!

Soat ikkiga yaqin yemakxona qariyb bo‘shab qoldi. Jazman topolmagan ayollar tamaddi qilishga kirishdi. Havo issiq edi. Qiz likopchada qovurilgan go‘sh, loviya aralash guruch olib kelib, stolga o‘tirdi va qoshiq bilan yeyishga tutindi. Damaso unga baqrayib qarab qoldi. Qiz unga bir qoshiq guruch uzatdi.

– Og‘zingni och.

Damaso iyagini kekirdagiga tortib, bosh chayqadi.

– Bu xotinlarning ovqati, – dedi. – Erkaklar yemaydi.

O‘rnidan turar ekan, qo‘li bilan stolga suyanib qoldi. Nihoyat muvozanatini arang saqlab, qaddini tiklaganida, qarshisida qo‘lini chalishtirib turgan mayxonachini ko‘rdi.

– Sizdan to‘qqiz-u sakson, – dedi mayxonachi.

Damaso uni chetga surdi:

– Hezalaklarga toqatim yo‘q.

Uning qo‘lidan ushlab, qayirmoqchi bo‘lgan mayxonachining birdan qizga ko‘zi tushdi va bo‘shashdi. So‘ng noiloj to‘ng‘illadi:

– Nimalarni boy berganingni keyin bilasan, sen bola!

Damaso mayxonadan chayqala-chayqala chiqdi. Oyniing aksi o'ynab turgan daryoning kumushrang mavjlari uning shuuriga hushyorlik nurlarini sochmoqchi bo'lar, lekin ulgurmas, o'sha zahotiyoy ko'zdan yo'qolar edi. Shaharchaning narigi chetidagi xonasining eshigiga yetganda Damaso butun yo'lni uyquli ko'zlari bilan bosib o'tganining isboti uchun garov bog'lashga ham tayyor edi. U boshini qattiq silkitdi. Xayolida paydo bo'lgan bezovta, lekin o'ta kuchli bir tuyg'u shu daqiqadan boshlab Damasoni har bir qadamni g'oyat ehtiyotkorlik bilan, o'ylab bosishga undar edi. U eshikni sekingina, g'iyqilatmasdan, sassiz ochdi.

Uyg'onib ketgan Ananing sandiq titkilayotgan Damasoga ko'zi tushdi. U cho'ntak fonarining yorug'idan yuz o'girib, devorga qarab yotar ekan, Damaso hali yechinmaganini sezdi. Ittifoqo hushyor tortdi-yu, irg'ib turib to'shakka o'tirdi. Tuguncha bilan cho'ntak fonarini ushlagan Damaso sandiq yonida turardi. U barmog'ini lablariga bosdi: – Jim! Ana to'shakdan sakrab tushdi.

– Jinni bo'ldingmi! – deb shivirladi va yugurib borib lo'kidonni surib, eshikni bekitdi.

Damaso fonar, pichoq va o'tkir tig'li egovni cho'ntagiga tiqib, tugunchani qo'ltig'iga qistirdi-da, to'g'ri ayolga qarab yurdi. Ana eshikni gavdasi bilan to'sdi.

– Tirik ekanman, seni bu yerdan chiqarmayman, – dedi past ovozda.

Damaso uni itarib tashlamoqchi bo'ldi.

– Qoch! – deb xirilladi yigit.

Ana eshik kesakisiga ikki qo'li bilan yopishdi. Ular bir-biriga kiprik qoqmay baqrayib qoldi.

– Sen eshshaksan, – deb shivirladi Ana. – Xudo senga chiroyli ko'z ato qilib, aqldan qisgan.

Damaso uning sochiga changal solib, qo'lini qayirdi va yerga egdi. Tishlarini g'ijirlatdi:

– Qoch dedim!

Ana bo'yinturuq solingan ho'kizday ola-kula ko'zlarini tepaga tikdi. Shu tobda o'ziga o'zi har qanday og'riqqa dosh bera oladiganday, eridan ham kuchliroqday tuyulib ketdi. Ammo eri uning qo'lini tobora qattiqroq qayirmoqda edi. Oxiri ayolning bardoshi tugab, ko'zlarida yosh g'iltilladi.

– Bolani nobud qilasan, – dedi u.

Yigit ayolni dast ko'tarib, karavotga olib borib tashladi. Qo'llari bo'shashi bilan xotin o'zini erining yelkasiga otdi va qattiq quchoqlab oldi. Ikkalasi ham to'shakka quladi. Ikkalasi ham hansirardi.

– Hozir baqiraman, – deb shivirladi erining qulog'iga. – Qilt etsang, baqiraʻman.

Jon achchig'ida xirillayotgan Damaso ayolning tiz-zasiga shar to'la tuguncha bilan tushirdi. Ana ingrab yubordi va oyoqlarini olib qochdi. Lekin o'sha lahzaning o'zida uni yana mahkam quchoqlab olib, gapiga ko'ndirishga urina boshladi.

– Xudo haqqi, ertaga o'zim olib boraman, – dedi Ana. – Men homiladorman, qamashmaydi.

Damaso ayolning bag'ridan yulqinib chiqdi.

– Seni hamma ko'radi, – dedi Ana. – Bugun yorug', oy to'lgan kecha. Sen ahmoq, hatto shuni ham bilmaysan.

Eshik lo'kidonini surib yubormasligi uchun erini bor kuchi bilan ushlashga, qaytarishga harakat qildi. So'ng ko'zlarini yumib, uning yuzlari-yu bo'yniga tinimsiz musht tushira ketdi. Chiday olmay hayqirib ham yubordi:

– Sen hayvonsan, hayvon!

Damaso o'zini himoya qilishga urindi. Buni ko'rgan ayol Damasoning qo'lidagi so'loqmonday og'ir yog'och

lo'kidonni yulib olib, yigitning boshiga qaratib sermadi. Damaso chap berib qoldi. Zarba uning yelkasiga tushdi. Suyak shishadek qirsillab ketdi.

– Ahmoq! Qichqirib yubordi er.

Shovqin solmaslik lozimligini ham unutgan Damaso Ananing quloq-chakkasiga qulochkashlab musht tushirdi va ayolning qattiq chinqirganini hamda gavgasi devorga gursullab urilganini eshitdi. Lekin u tomonga burilib ham qaramadi. Xonani tark etdi. Eshik ochiq qoldi.

Og'riqning kuchidan sulayib qolgan Ana polda yotgan cha qornida qandaydir ko'rgilik boshlanishini kutdi. Devor ortidan kimningdir qabrdan chiqayotganday bo'g'i q ovozi eshitildi. U o'kirib yubormaslik uchun labini tishladi. Keyin oyoqqa turdi va kiyindi. Bu safar ham, Damaso sharlarni o'marish uchun ketgan galdagi kabi, eri o'zi amalga oshirmoqchi bo'layotgan reja xomxayol ekanini bilgani holda, xotining dodlab yalinib-yolvorishidan, uni yo'ldan qaytarish uchun ortidan yugurib chiqishidan umidvor eshik ortida kutib turganini ayol xayoliga ham keltirmadi. Ana o'sha xatosini yana takrorladi: erini qubib yetish uchun ortidan chopish o'rniga, oyog'iga poyabzalini kiyib, karavotga o'tirdi va uni yana kuta boshladi.

Damaso eshik yopilganidan keyin endi ortiga qayta olmasligini angladi. Ko'chaning oxiriga yetguncha akil-lagan itlar uni kuzatib kelgandek bo'ldi. So'ng xayoliy sukunat boshlandi. U mast uyquda yotgan osuda shaharda o'zining notanish va vahimali tuyulayotgan qadam to-vushlaridan qutulmoqchi bo'lgandek ko'prik osha ildam ketib borardi. Bilyardxonaning omonatgina eshigi oldida-gi xarobaga yetmaguncha ehtiyotkorlikni unutdi.

Bu gal fonarni yoqishga hojat qolmadi. Eshik Damaso o'tgan safar zulfinini sug'urib olgan joyidan mahkamlab

qo'yilgan, qolgani eskicha edi. U qulfni chetga surib, o'ng qo'li bilan o'tkir tig'li egovni ikkinchi zulfining tagidan tiqdi va ohista ishqalashga kirishdi. Nihoyat, chirigan yog'och bo'laklari qumday uvalanib tushdi. Yog'och dosh berolmadi.

Osilib qolgan eshikni ochish oldidan g'isht polga ishqalanib tovush chiqarmasligi uchun uni bir enlikcha ko'targan bo'ldi. Salgina ochdi. Poyabzalini yechib, tugunchaga qo'shib ichkariga itardi. So'ng ichini oy sutday yoritib turgan binoga cho'qina-cho'qina kirdi.

Avval bo'sh shisha va qutilar qalashib yotgan qorong'i yo'lakdan o'tdi. Keyin musiqa tinglash xonasining oynavand derazasidan tushib turgan, bir tutam oy nurida bilyard stoli, undan so'ng eshigi Damaso tomonga teskari qilib qo'yilgan shkaflar, oxirida asosiy kirish joyining ichkarisida ustma-ust qalastirib tashlangan stol-stullarga ko'zi tushdi. Shu damgacha diqqat-e'tiborini bir joyga yig'ish uchun butun kuch va irodasini sarflab kelgan Damasoning vujudini g'alati bir jodu egallab oldi.

Endi u g'isht polning bo'rtiqlariga parvo ham qilmasdi. Eshikka poyabzalini tirab qo'yib, oy yoritib turgan yo'lakni kesib o'tdi va peshtaxta ortidan sharlar turadigan qutini izlab topish uchun fonarini yoqdi. U ehtiyotkorlikni unutgan edi. Fonar nurlarini chapga yo'naltirib, chang bosgan shisha g'arami, qoramoy tekkan ko'ylakka o'ralgan ikkita pixli yig'ma narvon, so'ng sharlar turadigan qutini ko'rdi. Quti Damaso o'tgan gal qayerda qoldirib ketgan bo'lsa, o'sha joyda turardi. Fonar nuri yana harakatga keldi va endi Damasoning ko'zi mushukka tushdi.

Jonivor chiroq nurida unga hayron tikilib qolgan edi. Damaso chiroqni unga to'g'rilab turar ekan, kunduzi bilyardxonada hech qachon mushukka ko'zi tush-

maganini yengil seskanish bilan esladi. U fonar tutgan qo'lini mushukka yaqinroq olib borib, „Pisht!“ dedi. Biroq jonivor pinagini ham buzmad. Shunda Damasoning shuurida sassiz bir g'alayon yuz berdi va mushuk xayolidan butkul ko'tarildi. Nima bo'lganini anglaganida chiroq allaqachon qo'lidan tushgan, o'zi esa shar o'ralgan tugunchani ko'ksiga qattiq bosgancha titrab turardi. Bilyardxona yorishib ketgan edi.

– O'–o'!

U don Rokening ovozini tanidi. Yigit yelkasini tog'dek ezib turgan dahshatli horg'inlikdan nafasi ichiga tushib, sekin qaddini ko'tardi. Faqat kalta ishton kiygan, qo'lida temir xoda, chiroq yorug'idan esxonasi chiqib ketgan don Roke ichkaridan Damaso tomonga yaqinlashib kelar edi. Boya Damaso ustidan bosib o'tgan shishalar va bo'sh quklar ortida to'r belanchak osig'liq turardi. O'tgan gal to'r belanchak ham yo'q edi.

Ular o'rtasidagi masofa o'n qadamcha qolganida don Roke bir silkinib oldi va mudofaaga hozirlandi. Damaso tuguncha ushlagan qo'lini ortiga yashirdi. Don Roke qovoqlarini uchirdi, tanib olmoqchi va urmoqchi bo'lgandek ko'zoynaksiz shapko'r ko'zlari bilan unga boshdan oyoq sinovchan razm soldi.

– E-e, bola, – dedi hayratga tushib. – Bu senmisan?

Damasoga bir umr cho'zilgan qandaydir dardli o'yin nihoyasiga yetgandek tuyuldi. Don Roke temir xodasini tushirib, hayratdan og'zini ochgancha uning yoniga keldi. Ko'zoynagi va yasama jag'i bo'lmasa, chol xotin kishiga o'xshab qolar ekan.

– Sen bu yerda nima qilib yuribsan?

– Hech narsa, – dedi Damaso sekin gavdasini o'nglar ekan.

– Qo‘lingdagi nima? – deb so‘radi don Roke.

Damaso ortiga tisarildi.

– Hech narsa, – deb takrorladi.

Don Roke qizarib ketdi va titray boshladi.

– Qo‘lingdagi nima deyapman?! – deb qichqirdi u temir xodani silkitib olg‘a yurar ekan, Damaso unga tugunchani uzatdi. Don Roke hali-hamon hushyorligini yo‘qotmasdan, chap qo‘li bilan tugunchani oldi va paypaslab ko‘rdi. Ko‘rdi-yu, gap nimadaligini tushundi.

– Nahotki?! – dedi.

U shu qadar qattiq hayratga tushgan ediki, temir xodani peshtaxta ustiga qo‘yib, qog‘ozlarni ochar ekan, Damasoni butunlay unutganga o‘xshardi. Miq etmasdan sharlarga ko‘z yugurtirib chiqdi.

– Anchadan beri joyiga qo‘ymoqchi bo‘lib yurgandim, – dedi Damaso.

– Bunga shubham yo‘q, – sado berdi don Roke.

Damaso murdaday oqarib ketdi. Kayfi butunlay tarqab, og‘zida faqat tuproq ta‘migina qoldi. Vujudini esa yolg‘izlig-u nochorlik tuyg‘usi qamrab oldi.

– Mo‘jizani qarang, – dedi don Roke sharlarni qaytadan qog‘ozga o‘rar ekan. – Shu darajada nodonsan, deb o‘ylamagan edim.

Boshini ko‘targanida cholning qiyofasi tamoman o‘zgacha tusga kirgandi.

– Xo‘sh, ikki yuz peso qani?

– Qutida hech vaqo yo‘q edi, – dedi Damaso.

Don Roke lablarini tishlagancha unga o‘ychan tikilib qoldi va birdan og‘zining tanobi qochdi.

– Hech vaqo yo‘q edi de? – deb bir necha bor takrorladi. So‘ng temir xodani yana qo‘liga olib, hayqirdi: – Buni endi alkaldga aytasan!

Damaso ter bosgan kaftini shimiga artdi.

– O‘zingiz bilasiz-ku, hech narsa yo‘q edi.

Don Roke hamon tirjayib turardi.

– Qutida ikki yuz peso bor edi, – dedi u. – O‘sha pulni topmaguningcha teringni shilib olishadi. Itvachcha bo‘lganing uchun emas, nodon bo‘lganing uchun shilishadi.

**YIG‘LAGIM KELSA HAM
YIG‘LAMAYMAN**

Roman

**Imperatorning jirkanch bashorati
bilan bo‘linib turuvchi nasroniylar rivoyati**

To‘rt nafar jangchi – Sever¹, Severian, Karpofor hamda Viktorin yaqin kunlar ichida o‘zlarini qatl etajaklariga ishonchlari komil bo‘lsa-²da, bozor rastalari aro o‘tgan tor yo‘llalardan mag‘rur borishardi. Temir dubulg‘alariga alohida ko‘rk va sharaf bag‘ishlagan to‘rt jig‘a dudxonalardan chiqayotgan tutun va baqqollarning quloqni qomatga keltirayotgan shang‘i ovozi uzra hilpiraydi: „Mana, moviy jiyaklar sizga muntazir, kep qoling, ma‘shuqangiz qadamlariga zebolik baxsh etadi. Onajonimiz Veneraning sutidan ham lazzatli xurmolarga kep qoling, chanqog‘ingizni qondiradi. Buloqning suvidan latif suli sharbatiga marhamat, asalga qorib pishirilgan kulchalarga keling, qirmizi naqshinkor chig‘anoqlardan zerikkan Dianalar sizga muntazir!

To‘rt juft sandal ostidan gurs-gurs taralayotgan to‘vush Rim itlarining o‘takasini yoradi, uning zarbidan yer zirillab ketadi-yu, o‘g‘ri mushuklar qovug‘ini bo‘shatish uchun rastalar ortiga qochib o‘tadi. Allaqanday rimlik ayol kimlarnidir yaramaslar va muttahamlar, deb qar-g‘aydi; uning haqoratlari, aslida, do‘konchasi yonidan

o'tayotgan mag'rur jangchilarga qarata aytilgan bo'ladi. To'rt og'a-ini – Sever, Severian, Karpofor, Viktorin adolat sari qadam tashlayotgandek, bahorning rango-rang tuh-falariga qayrilib qaramay, olmalarning muattar bo'yidan zavqlanmay, yuvundi va chiriy boshlagan chiqindining qo'lansa hididan jirkanmay, boshlarini baland ko'targan-cha borishar edi. Ular bugun o'zlarining sokin o'rinlarida uxlolmasliklari va badanparast do'stlariga qo'shilib suyuqoyoq zoniylar uyalariga borolmasliklariga achchiq ishonch bilan imon keltirgan edilar. Ularni Iso ummati bo'lib dunyoga kelganlarida munis allalar orqali qonlariga singib ketgan jafokashlik martabasiga erishmoq umididan, hatto muhabbat farishtasining paykonlari ham qaytarolmas edi.

Sever, Severian, Karpofor, Viktorin imperatorning xos navkarlaridan bo'lgan, jangda qo'rqmas, azob-uqubatlarga bardoshli, hayotda saxovatli va sabrli, qisqasi, chinakam mard-u maydon edilar. Biroq nasroniylilik endi Rimda tomoshabop xunrezlik, vahshiy hayvonlardek yuholik va ommaviy pichoqbozlik bo'lmay qolgandi. Ijtimoiy tafakkur uning nufuzli, deyarli hukmron dinga aylanishi uchun zamin hozirlagan... Butparastlik uzra axloqiy, falsafiy va moddiy tanazzulning ayovsiz qora bulutlari bosib kelmoqda edi, biroq shavkatli hukmdor, yuksak aql-idrok sohibi, munis va muruvvatli qalb egasi birdan Galereyning manfur bo'htonlari ta'siriga tushadi va amr qiladi...

Buni eshitib toshtobutda yotolmaydi odam, – deya bo'kiradi Diokletian. – Galeriy-ku bor-yo'g'i bulg'oriyalik isqirt podachi. Uni to vujudidan go'ng hidi ketmaguncha o'zimning oltmishta hammomim bug'xonasida oltmish kun bug'lab, xomsupurgi bilan urib, farishtadek

qilib qo'ydim. Keyin o'zimning Valeriya qizimga uylantirdim, kuyovim sifatida sezarlik rutbasiga olib chiqdim, ya'ni merosxo'r etib tayinladim, sezar bo'lgach, sarmatlar, yaziklar, karplar va bostarlarni qirish uchun yubordim. Bu uning uchun o'qimishli zag'izg'on duch kelgan narsa haqida, hatto noz-ne'mat to'la dasturxon atrofiga yonboshlab yotgan yaxshimi, yo'qmi, deb ham munozaraga kirishadigan Valeriya bilan to'shakda kukulashib yurgandan ko'ra ma'qulroq.

Men davlatchilik nuqtayi nazaridan olib qaraganda haqqoniy, ya'ni qonuniy ravishda xuddi Yupiterdek mening qiyofamni ham tilla tangaga zarb etsinlar, deya qaror chiqardim. Tilga olingan Priska esa o'zining yunona siymosiga munosib bo'lmagan ulug'vor o'jarligi bilan hayotim va hukmronligimni izdan chiqarmoq niyatida makkorlikka o'tdi. Men xotinlarning bunaqa qiliqlaridan to'yganman.

Galeriy esa ming qilganda ham, Dakiya tog'laridagi jodugar yoki kohinning o'g'li edi, shekilli, aniq esimda yo'q, o'sha zaminga xos jodugarlik kabi bunday illatlar, nasroniylar yovuzlikning manbaidirlar, ularning hayotlari buning in'ikosidir, degan uydirmalar ona suti bilan vujud-vujudiga hali beshikdaligidayoq singdirilgan.

Mening nasroniylarni ta'qib etishim, ularga nisbatan shafqatsiz kurash olib borishimni kuyovim Galereyga to'nkamoqchi bo'ladilar, holbuki, bu fikrni munofiq va o'zicha haqiqatparast yosh shoir Laktansiy tarqatgan...

Sever, Severian, Karpofor va Viktorin endi dubulg'asiz, nayzasiz va qalqonsiz qoldilar, biroq hali sovutlari yarqiragancha keng peshonali, badbashara sudya raislik qilayotgan tribunal qarshisida turishardi. Tavba, sudyaning raftori ham Suqrotga, ham bod kasali bilan og'rigan odamga o'xshardi. Bugun noyabr oyining rutubatli va zax

havosidan beli, bo'g'in suyaklari qaqshayotganidan o'zini qayerga qo'yishni bilmay asabiylashayotgandi.

– Sizlar nasroniylilikda ayblanasiz, – deydi sudya norozilik bilan.

– Kim ayblayapti bizni? – deydi Sever.

– Sizlarni guvoh Spion Podletskiy ayblaydi, kechagi kunga qadar u sizga o'xshab nasroniy edi. Kechki payt soat oltilarda u ota-bobolarimiz, bizning ajdodlarimiz e'tiqod qo'ygan dinga qaytdi.

– Biz sizga ishonmaymiz, – deydi Sever.

– Spion Podletskiyni osib o'ldirishgan, – deydi Karpofor.

– Uning orqasiga mash'ala bosib kuydirishdi.

– Uning a'zoyi badani sovib bo'lgan, – deydi Viktorin.

Sudyalarning kiyimi, togalari go'yo shamol uchirgandek halpirab ko'tariladi, ozod qilingan qullar, bekorchilar, mahbuslarning qarindoshlari sudda qatnashayotganlar qo'rqanlaridan titrab ketishadi. Zalda pichir-pichir shovqin ko'tariladi. Bosh sudya yog'och bolg'asi bilan stolga urib, tinchlik saqlashni so'raydi.

– Siz nasroniymisiz yoki nasroniy emasmisiz? – deb so'raydi bu safar toga kiygan bir odam aylantirib o'tirmasdan.

– Biz qudrat sohibi bo'lgan Xudoga imon keltirganmiz, – deydi Sever.

– ... hamda uning payg'ambarlariga, – deydi Severian.

– ... taqdiri ilohiyga, – deydi Karpofor.

– ... va shu bilan birga... Afina Pallada va Olimpdagi boshqa jamiki ilohlarga tupuraman... – deydi Viktorin.

– Bundan chiqdi, – deydi sudya, – siz Vatanimiz, ilohlarimiz va xonadonlarimizdan yuz o'girganmiz demoqchisiz, to'g'rimi?

– Biz eʼlon qilamizki, – deb javob beradi Sever, – biz Vatanning eng sodiq farzandlarimiz, lekin nasaroniymiz; oila, bola-chaqamizni jondan ortiq koʻramiz, lekin nasaroniymiz; harbiylar or-nomusini sharaf bilan asraymiz, lekin nasaroniymiz.

– ... va biz hech qanday gʻayri din tarqatuvchilari emas-miz, balki yagona Xudoning solih bandalarimiz, – deydi Karpofor.

Sudya suqrotona kinoyalarini bas qilib ziyoli ekani-ning guvohnomasi – miyigʻida kulib qoʻyishiga ham chek qoʻyadi. U Rim nuktadonligida eng soʻnggi vaziyatda qoʻllaniladigan, Arastu dahosi joriy etgan, haqiqatni dangal va begʻaraz aytish imkonidan foydalanmoqchi boʻladi.

– Rim va maʼbudlar ajralmas tushunchadir, ergo¹, siz Rimga nisbatan xoinlik qilmasdan turib, maʼbudlarga xiyonat qilolmaysiz! Shavkatli Diokletian Yupiterning yerdagi elchisidir, yegdo, siz Diokletiandan yuz oʻgirmay turib, Yupiterni inkor etolmaysiz. Modomiki siz Rimga xiyonat qilar ekansiz, modomiki hukmdorga itoat etmas ekansiz, qanday qilib oʻzingizni imperatorning sadoqatli navkariman, deyishga tilingiz bordi, siz oʻz harbiy unvoningizga munosib emasligingiz, shuningdek, ahdini buzgan xoin boʻla turib, bunga daʼvo qilishingiz nimasi?

– Biz daʼvogar emasmiz, Sever bamisli sudyaning ogʻzidan chiqqan iddaoni inobatga olmay, shuningdek, uning qoʻlidagi ogʻoch asoga qoʻshib marmardan bunyod etilgan Minervodan yuz oʻgirgan kabi xalqqa murojaat qilishni afzal bildi. – Biz jang maydonlarida oʻlimdan qoʻrqib qochmadik, binobarin, Rim jangchilarining nomus va sharafiga dogʻ tushirmadik, sheryurak senturionlar,

¹ Ergo – shunday ekan (*lot.*).

tribunlar, askar va generallar barcha nasroniy jangchilari-ning matonati va dilovarligi bo‘lmaganda Rimni vahshiy bosqinchilardan himoya qilish, asrash amrimahol. Sebastian, Pakomiy, Viktor, Georgiy, Mavritsiy, Ekzuperiy, Marsell Kandidni nasroniylik diniga mukkasidan ketgan, deb zindonga tashlashdi, unvon va nufuzlaridan mahrum qilishdi hamda qatl etishdi, ular Rimning qahramonlari emasmi? Siz bizni xoinlikda ayblab, chidab bo‘lmaydigan nohaqlik qilyapsiz. Bunaqada o‘sha hukmdoringiz Diokletianning o‘zi birinchi xoin, nasroniylarga bo‘lgan nafrati hech narsani ko‘rmaydigan qilib qo‘ygani uchun ta‘qib-tajovuz otiga qamchi bosib, ne-ne mard, Vatanga sodiq kishilarni...

– Bir daqiqa, bir daqiqa. Men nasroniylarni nafratlanganim uchun emas, ulardan qo‘rqqanim uchun ta‘qib etaman. Men ularni bizning tuzumni yemiradigan, yakson qiladigan, eng xavfliyi yer yuzidan o‘chirib tashlaydigan yagona, qudratli kuch deb bilaman.

– Biz sizlarga so‘nggi imkoniyat bermoqchimiz... – deydi bosh jallod, u qonsiragan sheriklaridan battar, aslida, lekin birdan so‘zlari tomog‘iga toshdek tiqilib qoladiyu, uni o‘chadi. Birozdan so‘ng, afv so‘raydi bular, deb o‘ylagan imperator Diokletianning tishini-tishiga bosib, „Esipast, tentaklar, bunaqasini ko‘rmaganman“, deganini eshitgan va ularga orqasini o‘girib olganini ko‘rgan bosh jallod avzoyida mamnun ifodalar paydo bo‘ladi. Bo‘lmasa-chi, imperator ko‘ngilchanlik qilib qolsa bormi, butun tayyorgarliklari havoga uchardi. Zavolga yuz tutgan quyoshning alvon nurlari ostida, navbat bilan ochilayotgan karnaygul va namozshomgullar uzra buyruq yangraydi:

– Boshlang!

Mana shunday damda Onajon ikkita jomadoni, turmush o'rtog'i va doyasi bilan shifoxonaga kirib keladi...

Qabulxonada qolgan muhandis Arximiro Peralta Eredia xayrlashayotib ikki yo'l orasida turgan umr yo'l-doshining ko'nglini ko'tarish uchun sadafdek oppoq tishlarini yarqiratib jilmayadi...

Dam xuruj qilayotgan, dam qo'yib yuborayotgan to'lg'oq dardidan qiynalib ketgan Onajon temir eshiklar, oppoq pardevorlardan o'tib boradi, turmush o'rtog'i Xuan Ramiro Perdamoni qabulxonadan u yog'iga o'tkazishmaydi...

Beshinchi kurs talabasi qanday hozirlik qilishganini yana bir bor tekshirib ko'rishni buyuradi-da, bo'lg'usi onaning tepasiga boradi. Kuchaning, senora, yana, deydi bakalavr; hamshira ham shunday deya takrorlaydi. Bechora Aya joni boricha kuchanadi, bakalavr bolaning boshchasini to'g'rilab turadi; mana, nihoyat, chaqaloqni ikki oyog'idan ko'tarib ko'zbo'yamachi sirkda quyonni shunday ushlab turadi kindigini pinset bilan siqib, hamshira uzatgan qaychini oladi.

– O'g'il, ismini nima qo'yasiz, – deb so'raydi hamshira.

– Viktorino, bugun avliyo Viktorin kuni, – deydi Aya.

Buni qarangki, xuddi shu damlarda doktor Karvaxal ham Onajonning chaqalog'ini qo'lida ko'targancha diqqat bilan uning ko'zlariga, qo'l-oyoqlariga, kindigi va choviga qarayotgan edi.

– Azamat bola, – deydi doktor. Hamshira uning kindigiga malham suradi. Muhandis Arximiro Peralta o'g'il

ko'rganligidan boshi ko'kka yetib, iftixor tuyg'ularidan anchagacha o'ziga kelolmaydi. Yarim soatdan so'ng gul-dastalar yog'iladi.

– Uning ismi Viktorino, – deydi muhandis Peraltaning qaynonasi donya Adelaida quvonch bilan.

– Bugun, takror aytaman, 1948-yilning 8-noyabr kuni... Donya Konsuelo yakshanba bo'lishiga qaramay portugaliyalik Joan Fransishku di Souzning eshigi lang ochiq qovoqxonasiga shoshilgancha kirib keladi. Ichkarida o'tirgan bitta-yu bitta mijoz, ochig'ini aytganda, haqiqiy mijoz emas, balki u ko'rinib turishga majbur, bitta-yarim-ta ko'r xaridorga qafasdagi to'tilardan birontasini sotar-mikanman, degan umidda keladigan Pedro Konoto edi. Shumtaka bolalar ochiq eshikdan bosh suqib: „Pedro Konoto, Pedro Konoto!“ deb baqirib qochishardi. Donya Konsuelo, to'lg'oq paytida zarur narsalar: mumsham, bir shisha konyak, shakarqamishdan tayyorlangan aroq olish uchun kelgan, besh uy narida dard tutayotgan ayol har uch daqiqada dodlab yotibdi, ana-mana ko'zi yoriydi, shuning uchun shoshilmasa bo'lmaydi. Shularni xarid qila turib, devordagi qorayib ketgan oqish to'rtburchak karton tomonga, taqvim yoniga boradi, ilgari ham varoqlab ko'rgan uni, donya Konsuelo qalin harflar bilan yozilgan „noyabr“ so'zini zo'rg'a ilg'aydi. Undan qalintroq yozilgan 8 raqamini topadi-da, tikilib arang o'qiydi: „Yakshanba“ qizil harf bilan yozilgan edi, shekilli, deya shivirlaydi va ko'rsatkich barmog'ini taqvim uzra yurgizib, bir nimani qidiradi. Mana avliyolarning ismi, ilg'ab olish qiyin juda, chunki ko'kpashshalar o'tirgan, har kungi tutun, rutubat ta'sir qilmay iloji yo'q. Donya Konsuelo ellikdan oshgan bo'lishiga qaramay, ko'zoynak taqmaydi;

u kalendarga burnining uchi tekkuncha yaqin boradi-da, bir amallab o'qishga tutinadi: „*Sever, Severian, Karpofor va Viktorin. Din-u imon uchun qatl qilinganlari sababli avliyolar safiga kirgan*“.

Sever to'g'ri kelmaydi, Severian bilan Karpofor ham, deydi o'ziga o'zi donya Konsuelo. Shu ismlarni aytayotganda xuddi Joan Fransishku di Souz bilan savdolashayotganga o'xshaydi. Agar o'g'il tug'ilsa, qo'limga non olib qasam ichaman, uning ismi Viktorino bo'ladi.

Bugun Viktorino Peres o'n sakkiz yoshga to'ladi. Viktorino Peres

I

Hozir soat rappa-raso to'rt. Tong otishiga hali erta. Viktorino soati yo'qligiga, buning ustiga cherkov qo'ng'iroq sadolarining so'niq yangrashini eshitishdan mahrum ekanligiga qaramay, buni yuz foiz biladi. Zim-ziyo tun bag'rida nimadir soat kaftgiri tebranishini qayd etib bormoqchidek, u bilan barobar uradi: gup-gup, gup-gup, gup-gup. Bu nimadir uning tomirida oqayotgan qon. Har bir lahza tomir urishiga hamohang. Asab tolalari kamon ipidek tarang tortilgan, yuragi ziq, ana hozir yorilib ketadigandek, bunday bezovtalik notinch xayollardan hosil bo'layotganini Viktorino bilmasdi. Tuni bilan uxlamay ajriqqa ag'anab chiqqanining oqibati bu.

Holbuki u qochmoqchi bo'lsa, bu turmada unga yordam qo'lini cho'zmaydigan bironta mahbus, bironta nazoratchi topilmaydi.

„JAMIYATIMIZNING BIRINCHI RAQAMLI ASHADDIY DUSHMANI VIKTORINO PERESNING QAMOQ-

DAN QOCHISHI... “ gazeta sahifalarida ana shunday deb yozishadi. Ochiq patioda¹ uxlab yotgan ikkita besoqol mahbus (ularni umumiy kameralarda saqlashga hech kim jur’at qilolmaydi. Chunki ularning erkaklar bilan ham, xotin-xalaj bilan ham bir kamerada qolishi xavfli) rap-pa-raso soat to’rt-u o’ttizda janjal ko’tarishadi. Ulardan birining bilagida tintuv chog’ida berkitib olib qolgan, bu-naqasi kamdan kam bo’ladi, – qoyil, soat bor! Soqchilar ularni ajratish, tinchitish, shu bilan birga hali-beri hukm yurgizishga qodir ekanliklarini yana bir karra namoyish etib qo’yish uchun quyunday bostirib kelishadi. Mana shuning uchun ular jallodlarga to’lanadigan harom maoshga noil bo’lishadi. O’sha oniyoq qamoqxonaning orqa tarafidan erkaklar turmasiga sudrab keltirishga maj-bur qilgan to’rt nafar ilohaning quloqni batang qilgudek vahshiyona na’rasi yangraydi: ular nafaqat jamoat tartibi-ni buzgan, balki ulardan biri „Vagon“ qovoqxonasida xiz-mat qiluvchi ofitsiantning qornini yorib tashlagan (tergov paytida ulardan bir og’iz so’z olisholmagan, buning sa-babini o’la qolsam aytmayman, deb qasam ichishganmi nima balo, qaysi biri va nima uchun marhumni chavaqlab tashlagani noma’lumligicha qolgandi). Soqchi og’zidan bodi kirib-shodi chiqqancha, nima gapligini aniqlagani va xotinlarning surobini to’g’rilab qo’ygani o’sha yer-ga otiladi. Ana shu payt Viktorino kamerasidan lip etib chiqib, dorixonaga bosqinchilik qilib kirishgani uchun alohida nazorat ostida saqlanayotgan olti nafar voyaga yetmagan mahbus kamerasiga kirib olishi kerak. Uning kirishidan biroz avval eshik tepasidagi qulfni sug’urib

¹ *Patio* – ochiqdagi har tomondan to’silgan hibsxona bo’lmasi. Ihotalan-gan kichik hovli ham shunday atalgan.

olishlari, qochishiga shiftda odam sig'adigan tuynuk ochib qo'ygan bo'lishlari lozim edi. Xuddi zinadan chiqib borayotgandek, Viktorino chambarchas bog'langan qo'llardan yuqoriga ko'tarilib, keyin o'sha voyaga yetmagan olti nafar bolaning yelkasiga oyoq qo'ygancha tong nuri oqib kirayotgan tuynukka chiqib oladi. Qolgani biror kimning yordamiga emas, xaloskorning, kindik qoni to'kilgan respublika poytaxti Karakasning mardi-maydoni, Venesuela¹ning sheryurak o'gloni, ya'ni mening fahm-farosatimga, oyoqlarimning chopqirligi, epchilligi va mushaklarimning baquvvatligiga bog'liq.

Soat to'rtidan yigirma besh daqiqa o'tganda Viktorino xirillab, ingragancha sarg'ish p~~lash~~ga o'ralib olib pinakka ketgan soqchining uyqusini buzadi. Soqchi charm qoplamali stuldan turadi, tataqqancha g'azabga minib u tomonga yaqinlashib boradi.

– Bularning dastidan tinchgina uxlolmaysan ham.

Tinchlikmi, qora tappi, nima bo'ldi?

Soqchining tikilib turganini ko'rgan Viktorino dard tutayotgan xotin singari tirishib-tortishib yotib oladi, qor-nini changallab, yuzlari burishib ketadi. O'lib qolaman hozir, deb dodlaydi. Darhaqiqat, uning ahvolini ko'rgan odam hozir o'ladi, deb o'ylaydi: ko'zlari bir nuqtaga tikilgancha qotib qoladi, og'zidan ko'pik sachraydi. Bu hali holva, yuk mashinasi bosib ketgan cho'chqadek chi-yillab chinqiradi, – Viktorino shu yo'l bilan soqchining o'takasini yoradi yoki uning e'tiborini o'ziga jalb etadi (o'takasini yorish kifoya qilmaydi, u qulfni ochishi kerak, kalit esa uning beliga osilgan). Jazava kuchaygandan kuchayadi, oyoq-qo'llari tirishib-tortishib, changak

¹ *Venesuela* – milliy ozodlik harakatlari qahramoni Simon Bolivar (1783–1830) nazarda tutilgan.

bo'lib qoladi, o'zini kameraning g'ishtin poliga otadi, boshini bamisli qo'ng'iroqning hovoni kabi eshikka uradi. Soqchi rappa-raso to'rt-u o'ttizda eshik qulfini ochadi.

– O'g'ri, qanjiq, tishlaringni bittalab sug'urib olmasammi, chaqimchi, xoin! Birdan shallaqilikni boshlaydi Olovgul. – Bachchaboz, Xudoning balosi, tasqara: soqoli jo'xorining bargiga o'xshash sap-sariq, burni qip-qizil sabzining o'zi.

– Qani tegib ko'r-chi, ko'zingni o'yib olaman, o'lak-sa! – deydi unga javoban vahshiyona na'ra tortib Isabel Bola. U ayni Olovgulning yana bir nusxasi. U shunday deya chindan ham do'stining basharasini timdalash uchun o'zini otadi.

Soqchi atigi bir lahzagina ikkilanib, yana eshikni qulflab qo'yish maqsadida iziga qaytadi, biroq titrab-qaqshayotgan Viktorinoning gavdasi uning yo'lini to'sib qo'yadi. Uning yarim tanasi kamerada, oyoqlari tashqarida, polni tepib, quturgandek qichqira boshlaydi. Soqchi uni shu ahvolda qoldiradi. Arzimagan narsa ekan va hech qanday gunohdan tap tortmaydigan ikkita shallaqini tinchitgani oshiqadi. Bora solib bir-biriga takadek sakrayotgan gladiatorlar boshiga eski miltiq qo'ndog'i bilan gursullatib tushira boshlaydi.

Endi navbat boshqalarga. Sal naridagi nimqorong'i kamerada yotgan fohishalar orasida birdan to's-to'polon boshlanib qoladi. Shallaqilar kvarteti baland ovozda „jangovar“ qo'shiqlari – kurakda turmaydigan so'kishlar, razolat va tubanlik bayroq kabi boshlari uzra baland ko'tarilgan muhitda eshitaverib quloqlari o'rganib ketgan va o'sha-o'sha odat tusiga kirib qolgan nojo'ya so'zlarni aytishdan nomus qilmay, odamzodning avrati va ularga aloqador beibo xatti-harakatlarni sharmandalarcha namo-

yish etib galma-gal bo'kirishadi. Sasigan og'izdan achi-
gan gap, ular aytayotgan ko'ngil ozdirar so'zlar qamoq-
xona devorlariga irigan shaftolidek chapillab yopishadi.
Soqchining o'qloqdek ko'k tomirlari g'azabdan o'ynab
ketadi, mushtlari tugiladi.

– Zoniyalar! Bas qillaring! Bas qillaring joningdan
umiding bo'lsa...

Shunda, bu boshi qarg'ishdan chiqmagan badbaxt-
larni o'z holiga tashlab, churullatib hushtak chalgancha,
vahshiyona qichqirayotgan xotinlar tomonga yuguradi.
Unga yordam bergani mahbus ayollarning og'ziga sochiq
tiqib, qilichlarining orqasi bilan ayamay urish uchun yana
besh nafar turma nazoratchisi yetib keladi. Besh nafar
devqomat turma nazoratchisi gunohkor ojizalar ustiga
bostirib kiradi.

Bunday eng so'nggi achinarli lavha, afsuski, Viktori-
noning diqqat-e'tiboridan chetda qoladi.

U Olovgulning birinchi na'rasidan keyinoq yolg'ondan
titrab-qaqshashlariga barham beradi-da, ikki hatlab voyaga
yetmaganlarning kamerasi bilan ajratib turgan yo'lakning
narigi tomonida paydo bo'ladi va yashin tezligida uning
uchun ochib qo'yilgan eshikdan o'zini otadi. Sirk akrobat-
laridek qotib tayyor turgan olti nafar bolaning chamber-
chas tutashgan qo'llariga to'g'ri gursullab tushadi.

Viktorino hech ikkilanmay „bachalar“ kamerasidagi
bu yigitchalarning bir-biriga chirmashib turgan bilakla-
riga oyoq qo'yadi-yu, maymundek eng novchasining
yelkasiga sakrab chiqadi, keyingi lahzada esa dilovar
mahbuslarning dudama xanjarlari ayovsiz tilib tashlagan
o'ng qo'li bilan sarrovning chetiga osilib qoladi. Voyaga
yetmagan bolalar uni tovonlaridan ushlab irg'itib yubori-
shadi, shunda Viktorino ko'tarma kranga ilintirilgan yuk

singari tepaga uchib chiqadi. U oldin boshini, keyin gavasining yuqori qismini tuynukdan chiqarib, yomg'irda yuvilgan tom yorig'idan tepaga ko'tariladi. Keyin bir siltanib cherepitsa yopilgan qiyalama tomga chiqib oladi. Qovurg'alari qiyalama cherepitsa yopilgan tomda yurishga qulaylik tug'diradi, buning ustiga u kimsasiz tor ko'chaga to'g'ri olib chiqardi. Viktorino paysalga solmay yerga sakrab tushadi. Jo'rttaga qilgandek oyog'i qayrilib ketadi. Og'ridimi, yo'qmi bu hozir emas, keyinroq bilinadi. Otilayotgan o'qlarga chap bergancha tor va egri-bugri ko'chalar bo'ylab irg'ishlab yuguradi, uni xuddi uchqur xayoliy otda yo'rtib borayotgan chavandoz deysiz. Uning bunaqa yugurishdan maqsadi – daryo bo'yini o'rab turgan chakalakzorga tezroq yetib olish. Ortidan uzilayotgan o'qlar yon-veridagi toshlarga chiyillab uriladi.

Bir-biriga chirmashgan qo'llar va yelkalardan hosil bo'lgan narvon orqali, tong nurida qizarib ko'rinayotgan va tungi shudring tufayli sirg'anchiq holga kelgan tomga olib chiquvchi tuynukdan foydalanib, birga qochmoqchi bo'lgan voyaga yetmagan ikki mahbusning taqdiri nima bo'lganini bilish uchun (buni u keyinroq, radio orqali eshitadi) kechgacha kutishiga to'g'ri keladi. Ulardan biri Viktorino ortidan qochib, tomga chiqib oladi-yu, og'irligidan, tuynuk ochishayotgan paytda mahbuslarning pichog'i shikast yetkazgan toshto'shama ko'chib tushadi va qayerdandir paydo bo'lgan xunobi oshgan to'qqiz soqchining oyog'i ostiga gursullab yiqiladi. Viktorino nima qilsa shuni takrorlagan ikkinchi mahbus esa o'n qadamcha orqada halloslab kelardi. Biroq nogahon ko'krak qafasi ostiga qaynoq qo'rg'oshin parchasi tegib, tor ko'chaga to'shalgan shag'alda qonga belanib yiqiladi va uning murdasi shundayligicha o'sha yerda qolib keta-

di, oqshomgi gazetaning so'nggi sahifasida shu ko'yda surati bosilib chiqadi.

Safning oldida, yerdan salgina ko'tarilgancha sakkizta mitti zoldir ustida qovjiragan o'rgimchakning qurigan tanasi go'yo g'ildirab borardi. Dafn marosimining safi jo'xori poyasining orasidan yurib borib, Kordilyera tog'lari singari uyulib yotgan g'ishtlar ustidan o'tdi. Shisha siniqlarini ortda qoldirishdi, sassiq ko'lmakchalardan, oqishdan to'xtagan loyqa irmoqchalardan kechib o'tishdi. Safdagilarning ko'pi quruq ketmayotgandi: eng yiriklari kichkina bargchalar, nisbatan kichikroqlari esa pashshaning o'liginimi, qaynatilgan guruchnimi sudrab bori-shardi. Nogahon oldingi safdagilar kutilmaganda paydo bo'lgan to'siq qarshisida to'xtab qolishdi. Bolaning o'ng oyog'i, odamning birdan paydo bo'lishi va uning hidi ketayotganlarni chorasiz ahvolga solib qo'ydi. Ular o'rgimchak po'stlog'ini asta yerga qo'yishdi va uning tevaragida to'planib zudlik bilan kengashib olishdi. Bu izdihomning etak qismida kelayotgan ikki-uchtasi oldinga talpinishdi, ularning maqsadi qabul qilinayotgan shartnomaga o'z his-salarini qo'shish edi, xolos. Nihoyat, oqsoqollar kengashi yo'ldagi hosil bo'lgan to'siqni aylanib o'tishga qaror qildi. Lekin nima bo'lgan taqdirda ham oldinga yurish, ko'zlagan maqsaddan orqaga qaytmay, g'orga olib boradigan yo'ldan og'ishmaslik shart. Ular chaproqqa, quyosh botar tarafga besh duymcha burilishdi, go'yo bu bilan kimnidir chalg'itmoqchi, o'zlaricha ayyorlik qilmoqchilar, shekilli. Faqat bola ulkan to'siqdan boshqa narsani ko'rmayotgan chumolilarga qayrilib qaramay, qimir etmay turaverdi. Lekin chumolilar endi xavf-xatardan xalos bo'ldik deganda birdan o'sha to'siq yana karvon yo'lini to'sdi-yu, bolaning poyabzali yonida yana jo'shqin tortishuvlar boshlandi,

orqaroqda qolgan maslahatchilar qo‘rqa-pisa yana yetib kelishdi. Yana yo‘lni o‘zgartirishga qaror qilishdi, faqat ko‘zlagan manzilga bu jonli qoyatoshdan nariroq yurib, Viktorino o‘tirgan ostonani aylanib o‘tmoqchi bo‘lishdi. Iloji bo‘lmadi. Bu voqea fojiali tus oldi, Gulliver o‘yinga nuqta qo‘ydi. Poshnasi bilan bitta tepganida po‘stlog‘i qolgan o‘rgimchak sochilib, jonli tobutni majaqlab tashladi. Chumolilar qo‘shini oltmishdan ziyod jangchisini yo‘qotdi, tirik qolganlari duch kelgan tomonga tumta-roqay qochishdi, jildirab oqayotgan iflos suv bilan qotib ketgan it chirindisining orasiga kirib yashirinishdi; qochoqlar uchun „quyosh xuddi janda kabi ko‘rimsiz tus oldi“ Apokalipsis¹.

– Shu yerdamisan, Viktorino?

U javob bermadi. Onasi uning shu yerda chumolilarni yanchib, o‘ldirib, Karmen Euxeniyaning shirali, hayajonga soluvchi qo‘shig‘ini tinglayotgani uchun javob bermayotganini juda yaxshi bilardi. Karmen Euxeniya qo‘shni xonada bolero² aytib, ko‘ylakka dazmol bosayotgandi.

Ona farzandini ixtiyorsiz ravishda chaqirgan edi, ehtimol, o‘zining mayin ovozi bilan uning yolg‘izligiga bir mazmun baxsh etmoqchi bo‘ldi chamasi. O‘g‘li munchoq-munchoq ter tomchilari tunuka tovaning chetiga takillab tomayotganini eshitar, uf tortib xo‘rsinayotganida darpardaning tebranib qo‘yayotganini sezar, uning sochlaridan anqiyotgan yanchilgan qahva bo‘ylari dimog‘ini achishtirardi.

Viktorino likillagan va g‘ayritabiiy mingoyoqni eslatuvchi yon qo‘shnisini ko‘rarga ko‘zi yo‘q. O‘sha nusxa

¹ *Apokalipsis* – nasroniylarning qiyomatdan bashorat qiluvchi diniy kitobi.

² *Bolero* – ispancha raqs va uning kuyi.

o'zining xonasiga oyoq uchida kirsak kerak, chunki uning yo'lakda, hatto tasodifan ham, qanaqa qilib xonasiga kirib ketishini hech kim ko'rmagan. Chiqishini esa ko'rishgan, u doim odam gavjumligidan shovqin-suron kuchaygan paytda chiqib kelar, nuqul muhim ishi bor-u, shuni hal qilgani birov bilan uchrashishga shoshilayotgandek qo'ni-qo'shnilar bilan gaplashishdan qochar, chunki, nazarida, odamlar nari borsa ikki daqiqadan keyin yo biron nima so'raydi yoki o'zgalarning hayotiga aralasha boshlaydi. Buning ustiga bu mulat o'zining otasi hindu, onasi habash ekanini tan olgisi kelmaydi, u sochlariga erinmasdan hamisha vazelin surtib yurardi. Yuziga husnbuzar chumolidek in qurgan, bo'yniga esa kapalak nusxa bo'yinbog' bog'lab olgan yoki to'q-sariq ensiz sharf bilan o'ragan bo'lardi. Irim-sirimga berilgan ona bechora undan qo'rqr, uzun yo'lakda unga duch kelib qolishdan qochar va ba'zan-ba'zan (nima uchundir, kim haqidaligini aytmasa ham. Chunki ismini bilmasdi, kim haqida gapirayotganini Viktorining ko'ngli sezardi) fikrini bayon qilardi:

– U menga bir martayam yomonlik qilmagan, hatto ko'nglimni qoldiradigan bir og'iz gap aytmagan bo'lsa ham, Xudoning o'zi kechirsin-u, ko'rgani ko'zim yo'q.

Bu xonadon quvonchi ro'paradagi uyda istiqomat qilardi. U yer mohir g'isht teruvchi Ruperto Belisario-ga tegishli. Viktorino uchun u kishi don Ruperto edi, u xotini, ikki qizi va bitta to'tiqushi bilan birga yashardi. Odamlar, to'tiqushdan tashqari hammalari bitta karavotda yotishadi, deb g'iybat qilishardi. Axloq-odob mezonlariga to'g'ri kelmaydigan yana boshqa qusurlari ham bor ediki, ular quyidagilar:

a) don Ruperto xotini bilan nikohsiz yashayapti;

b) don Rupertoning qizlari o'n besh yoshdan oshgan;

v) ikkala qizi ham don Rupertodan bo'lmagan, bir zamonlar don Rupertoning xotini oldingi „erlari“ bilan rohat-farog'atda yashayotgan kezlar orttirilgan nikohsiz bolalar.

Mana shu gunohlarni Viktorinoning otasi, ayniqsa, g'irt mast kelganlarida, vaholanki har kuni shu ahvol takrorlanardi, barmoqlarini bukib sanab chiqardi. Otasi mastligi tufayli o'zi ham Viktorinoning onasiga qo'ni-qo'shnilariga o'xshab to'y-hasham bilan uylanmagani, to'y, nikoh degan tushunchalardan nihoyatda uzoq ekanligini eslamasdi, ularni mana shu makonda ijara haqini vaqtida to'lashni qat'iy talab etuvchi, yo'lakning boshidagi birinchi xonadonda yashaydigan va yo'lakda tinchlik hamda tartib-intizom saqlashlarini talab qilishdan to'xtamaydigan baqaloq xotindan boshqa hech birlari tasavvur qilolmasdi. Baqaloq imkon tug'ildi deguncha „o'zining ham diniy, ham dunyoviy nikohdan o'tganligini“ o'zgalarga pisanda qilib gapirishdan charchamasdi, go'yoki bu tasodifiy holat bizning mamlakatimizda biron ahamiyatga egadek. G'isht teruvchi Ruperto Belisario-ning uyidan xursandchilik arimasdi, buning asosiy manbayi o'sha yerda istiqomat qiladigan ongli jonzotlar emas, balki erta-yu kech kiyim quritish uchun osilgan arqonda qaqqayib turuvchi jonli grammafona to'tiqush edi (ba'zan u endigina yuvib, hali quritilmagan choyshabni bulg'ab qo'yar, ana shunda cho'ltoq supurgining zarbalari ostida yam-yashil patlari to'zib ketardi). Ana o'sha qush bilan Viktorino juda qalin do'st. Unga „Salomat bo'l, o'laksa!“ degan kalomni o'rgatgan ham Viktorino. Bu ezgu tilak doimiy ravishda norozilik tug'dirar, chunki yon-veridan kim o'tsa, u o'shanga qarata aytilardi. Don Rupertoga ka-

mida besh kishi, agar bundan buyon ham qushing shunday haqoratlarni davot ettiraversa, o'zingdan ko'r, deya po'pisa qilishgan edi. Don Rupertoning qizlari ularning ustidan qotib-qotib kulishar, lekin o'sha jahldor va o'zini haqoratlangan deb bilgan kimsalarga bunaqa so'kishni kim o'rgatganini hech qachon aytishmasdi. Viktorino don Rupertoning kenja qizi Karmen Euxeniyaga oshig'-u beqaror bo'lib qoldi. Karmen Euxeniya o'zining qadrini biladigan qizlardan, yoshi o'tib borayotganiga qaramay, haligacha hech kim uning qalbini zabt etmagan. Uning biron yerini ko'rish uchun Viktorino odam bolasining xayoliga kelmaydigan „hunarlar“ o'ylab topardi: pichoq bilan o'yib, eshikda tirqish ochib qo'yar, pationing kanorasida, umumiy yemakxona ortidagi bitta-yu bitta g'uslxonaga cho'milish uchun kirganlarida ko'rinib qolarmikan degan o'y-xayolda o'g'ri mushukdek omonatgina toshga chiqib olardi. Biroq shu paytgacha uning qoramag'iz, chiroyli boldirlaridan boshqa yerini ko'rib zavqlanish unga nasib etmadi, vaholanki, hammaning ko'z o'ngida turgan narsani ko'rish na gunoh va na mukofot.

Bu orada bitta-yu bitta galstugini garovga qo'yib, to'yib aroq ichgan Viktorinoning otasi Fakundo Guterres ham kelib qolardi. Uning mag'rur kerilgan ko'ksi va masxarabozga o'xshab alpang-talpang qadam tashlashlari shundan ogohki, unga yaqinroq borgan odamning vino bochkasi ochilib qolganda keladigan qo'lansa hid-dan ko'ngli ozardi. Onasi bilan Viktorino uning raftoridan ishi o'xshamaganligini darhol fahmlashardi. Ish topsa, bu xarobaxonada qorasi ko'rinmay qolar, yurib-yurib oxiri ikki qo'lini burniga tiqib qaytib kelgach, allaqaysi go'rda yuk mashinasi haydab yurgandim, deya bahona to'qirdi. Biroq u hech qayerda uzoq ishlamasdi, hamma

piyonistalarning peshonasiga yozilgani shu bo'lsa kerak. Nuqul ochin-to'qin kelar va Viktorinoning onasi sotishga yopgan nonni surbetlarcha yamlamay yutar, „Kvaker“ pechenesidan bo'shagan tunuka idishda yig'ilgan tangalarni yig'ishtirib olar, bu ham yetmagandek har qanday uyatni unutib, erkakligini pisanda qilar, unga yopishardi. Viktorino ularning kechasi bilan xuddi vahshiy hayvonlar singari pixillab, harsillashlarini eshitib yotardi. Yana eng yomoni u meni uradi, to'g'ri, onam ham uradi, lekin uning urgani men uchun un oshi – uraversin, chunki u meni tug'ib katta qilgan, haqqi bor, undan tashqari u yuzimga shapaloqlab uradi, xolos, xuddi yonoqlarimga mayingina kaftlari bilan yog'upa surtib qo'yayotgandek og'rimaydi sira, keyin, o'zining aytishicha, „dodimni bergandan keyin“ menga qo'shilib o'pkasi to'lib yig'laydi. Fakundo Guterres esa, otamning ismi shunday, bamaylixotir kamarini yechadi-yu, mening dod-voy qilishimdan zavqlanib savalayveradi, na karomatli Iso Masih, na sehrGAR Mandreyk meni jazodan asrab qololadi, holbuki maktabdan qochib kelganman, u yerda ham rosa ta'zirimni yeganman. Men bilan birga o'tiradigan matroslarning kamzulini kiyib olgan mishiQilarga toqat qilolmayman, onam esa buni Fakundo Guterresga shipshitadi, ana undan keyin ko'ring mashmashani, na Xaloskor Iso, na Mandreyk jonimga oro kira oladi.

Og'zidan gupullab aroq hidi kelayotgan Fakundo Guterres bolaga qiyo boqmay uning yonidan o'tib boradi-da, dag'al darpardani bir siltab ko'tarib qo'yadi. Viktorinoning qulog'iga bir balolar deb baqirayotgani bazo'r yetib kelayotganiga qaramay, nima haqida aljirayotganini fahmlardi. Shu mahalda nima qilib yuribdi bu bola, nega tilanchiga o'xshab ostonada o'tiribdi maktabga borish

oʻrniga, derdi. Onasi insofga kelib qolar, degan umidda churq etmas, gap qaytarmasdi. Darhaqiqat, Fakundo Guterres shunday vaziyatda koʻpincha tinchib uxlagani karavotga choʻzilardi. Hammasiga oʻzing aybdorsan, nima desa koʻngliga qaraysan, yana yonini olishingga balo bormi, bu ketishda u hech qachon oʻqishni oʻrganolmaydi, derdi u. Soddagina ona Viktorino maktabga bormaganligi uchun adabini berib qoʻygan boʻladi, toza taʼzirini yeydi, oxiri, maktabga boradigan vaqtda ostonaga oʻtirishga majbur boʻladi. Onaning oʻzini oqlashi shulardan nariga oʻtmasdi. Biroq Fakundo Guterresga bu tarsakilar, boʻsagʻada oʻtqazib qoʻyib jazolashlar kamlik qiladi.

– Bu yoqqa kel, Viktorino! •

Niyati buzuq jallod, robotdan battar Fakundo Guterres, allaqanday serjun maxluq toʻngʻiz yoki kim bilsin, ishqilib, toʻrt tuyoqli iblisning terisidan ishlangan, enli va yagʻir kamarni oʻng qoʻlidan qoʻymay uni kutib turardi. Agar zarbalarga chaqqonlik bilan chap berib qochishga harakat qilsa, battar boʻlishini u yaxshi bilardi. Eng yaxshisi xuddi bokschilarga, aytaylik, Ramonsito Ariasga oʻxshab boshini yelkalari orasiga olish, tasodifan qattiq zarb tushib qolishidan saqlangani ikkala qoʻli bilan qovugʻini toʻsib turgani hamda yelkasi, qoʻli, oyoqlari, qisqasi, odamning joni unchalik ogʻrimaydigan aʼzolarini kaltak zarbiga tutib bergani maʼqulroq. Jon achchigʻida chinqirish, dod-voy solish ham foydadan xoli emas, negaki, bu qoʻni-qoʻshnilar orasida vahima koʻtaradi: „Bolani oʻldirib qoʻyadi!“ Ana shunda jallod ota baʼzan jahldan tushardi. Bu safar Viktorino oliftagarchilik qilib gʻing demadi. Axir Karmen Euxeniya eshitmasligi, uning itdek kaltak yeyayotgani, qadr-qimmatini shunchalar oyoqosti qilinayotganini bilmasligi kerak. Qiz qoʻshni xonada har

doimgidek bolero aytib, ko'ylakka dazmol bosish bilan band edi.

Fakundo Guterres qandaydir mung'aygan sitamkor emas, balki gapga chechan zolim tabiatiga ko'ra kaltaklab azob berayotganda g'azabdan bo'kirar, nasihat qilalar, og'zini to'ldirib so'kar va odamning yuragiga vahima solgudek do'q urib o'dag'aylardi:

– Ha, yaramas, itdan tarqagan! Ko'rsatib qo'yaman senga hali, qarab tur, tilingni sug'urib olmasam otimni boshqa qo'yaman! Nokas, hali qon qusasan!

Bu safar otasi uni odatdagidan ko'proq va qattiqroq savaladi. Ichkilik uni quturtirib yuborgan edi. Oxiri Xudoning rahmi kelib, onasi o'rtaga tushdi, bas qil endi, deb yalindi, yolvordi, biroq g'azabdan esini yo'qotgan Fakundo Guterresga uning iltijolari yetib bormadi. Shunda onasi ularning o'rtasiga turib oldi-da, erini vahshiy-san, gazanda, deb qarg'adi, qo'llaridan ushlab olib, urishga yo'l qo'ymadi. O'ldirib qo'yan, jallod! Ming la'nat sendaqa otaga! Viktorino esa paytdan foydalanib qochib qoldi.

Bu xo'rlik, bu alam jon-jonidan o'tib ketganidan, upationing hech kimning ko'zi tushmaydigan chekkasiga borib, shashqator ko'zyoshlarini to'kdi, so'ngra akas daraxti ostidagi do'ngliklar orasiga suqulib kirib oldi, u hech kimni ko'rgisi kelmas va hech kimning yupatishlariga muhtoj emasdi. Idish-tovoq yuviladigan tog'oradan qozonsochiq va yog'li tovanadan tushayotgan yuvundi sizib oqardi. Fakundo Guterres nima qilsa ham otasi, buni inkor qilmaydi. Lekin otasi yetkazgan azoblar-u alamlardan bag'ritoshga aylangan habash bolasi yurak-yuragidan uni yomon ko'rardi. Boshqa hech qanaqa his-tuyg'u – na onaga bo'lgan mehr va hatto Karmen Euxeniyanı yalang'och

ko'rish istagi uning ko'ksida yongan nafrat alangasini o'chiroidi. Do'ngliklardan birining yonbag'ri o'yib, unga tagi teshik xum o'rnatilgan bo'lar, bu qadim ellinlarning ko'zasimon qo'shquloq idishidek yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Viktorino uning rux yuritilgan tubini so'ligan kameliya gulchambari bilan yopib qo'ygan edi. Agar meni urmaganda ham baribir undan nafratlangan bo'lardim. Qo'shni patiodagi sap-sariq xazon uyumi orasidan tumshug'ida chuvalchang bilan bir tovuq otilib chiqdi. Bu tovuq o'lgurning xo'rozi qay go'laxxonada yurarkan shu paytda, ijara haqqini olish o'rniga? U tovuqni ko'ksi bilan shunday urar ediki, patlari to'zib ketardi.

Fakundo Guterres bo'lsa tushlik qilishayotganda negadir shartta o'rnidan turdi-da, Viktorinoning oldida onasini qulochkashlab soldi. Aksiga olib, xuddi shu paytda Karmen Euxeniya o'tib qoldi. Qiz uni kuydirish uchun bir qarab qo'ydi-da, hojatxonaga kirib ketdi. Viktorino esa (kelib-kelib hayotdan to'yib ketgan paytda) uning ishtonini boldirlarigacha tushirib, o'rtasi kesib olingan kursichaga qanaqa o'tirishini tasavvur qilishga urindi, xayolan ko'z oldiga keltirdi, pirovardida bu xayoliy manzara uning muhabbatini kuchaytirib yuborgandek bo'ldi. „Fakundo Guterres g'azab bilan sakrab turdi-da, mening oldimda onamning yuziga sharoqlatib soldi, o'lganim yaxshi edi bunga chidab turgandan ko'ra“.

Birdan hovlida xirillagan qichqiriq eshitildi va qiyshiq oyoqli bir nima pildirab kela boshladi. Bu kaltaklangan va azob chekayotgan yaqin do'stini ko'rib, o'zining tasalli berishdek vazifasini bajarish uchun kir yoyadigan dordan sakrab yerga tushgan to'tiqush edi. U yerda yotgan bolaning yonida to'xtadi-da, quruqqina qilib, o'zi biladi-

gan bitta-yu bitta iborani aytib qichqirdi: „Salomat bo‘l, o‘laksa!“

Viktorino ularni bog‘lab turgan do‘stlik rishtalarini unutdi, to‘tiqush o‘zi o‘rgatgan iborani tirishqoqlik bilan takrorlashi-yu oralarida yillar bo‘yi davom etgan yaqin munosabatni unutdi va g‘azab bilan yerdan mushtdek tosh olib qushga otdi. Otgan toshi nishonga aniq tegdi. Shu-shu qilgan jinoyatlari ichida eng ahmoqonasi bo‘lgan kichkina qanotli sharpa o‘la-o‘lguncha ko‘z o‘ngidan ketmadi.

II

Bu aslo daraxt emas, bu aslo daryo ham emas. Yo‘q, bular daraxtlar emas, bular tabiatning ulug‘ saltanatiga mansub bo‘lish sharafiga nomunosib, shoxlari qiyshayib, akashak bo‘lib qotib qolgan va barglariga shira tushgan butalar, xolos, bular yovvoyi mushuklar bilan yalmog‘izlar o‘tkir tishlari va tirnoqlarini charxlaydigan gazanda butaning sim chivirlari. Yuk mashinalarining g‘ildiraklaridan sachragan balchiqqa belangan qamishlar yoki qanday daraxt ekanini ajratib olish mushkul. Chillashir bolaning qing‘ir-qiyshiq oyoq-qo‘llariga o‘xshagan daraxtlarning tanasi va mo‘rt shox-shabbalarini qanday qilib tabiat mo‘jizasi deb atash mumkin, ustiga-ustak bularning beor shoxlari ko‘rshapalaklar singari yuzlaringizni nashtardek tirnashni ko‘zlagan bo‘lsa. Viktorino tepalik yonbag‘rida o‘sgan nimjon giyohlar orasidan sakrab-sakrab borardi, bamisli sarg‘ish turmaning haybatidan, baqir-chaqir qilib, fonuslarini o‘chirmay izma-iz quvib kelayotgan ilonning butalar orasidagi shitirlagan tovushini eshitib, yana to‘xtovsiz o‘q uzayotgan to‘pponchalardan iloji boricha tezroq qutulish uchun zulmat bag‘rini ko‘ksi bilan yorib borardi. U nomini tilga

olishga hazar qiladigan daryo bo'yiga chiqdi, oqova zovurdan farqi qolmagan, dam kengayib, dam yana qo'shilib nene o'lgan baliq, eshak jasadining sassig'i, peshob hamda isqirt, yuvilmagan ishtonlar hidini allaqayoqlardan oqizib kelayotgan va shaharning janubiy hududlarini najasxonaga aylantirib yuborayotgan bu zovur, ariq baloyi battar sarkashlik bilan oldinga intilardi.

U nomiga nomunosib daryo yoqalab, taxminan, ikki yuz qadam, ehtimol, undan-da ko'proq yugurib bordi, tong yorishib qolgan bo'lsa ham, bu yog'iga ishonchi komil, soqchilar uni endi topolmaydi. Endi, u bir tomonini qamishzor egallagan, ikkinchi tomoni turarjoy binolarining orqa devoridan iborat jaflikning tubiga tushib olgandi. Allaqayoqdan bo'g'iq ovozlari eshitilardi; o'zlari yashayotgan hovlilar panjarasiga tumshug'ini suqib hurayotgan itlar tovushi, chiyillab uchgan o'qlarning bijg'igan suvga tushishi qulog'iga chalinardi.

Nima bo'lgan taqdirda ham mana shu daryoligi qolmagan bo'tanani kechib o'tishi kerak. Uning egnida qora ishton va qizil belbog'li nochor kulrang ko'ylak, oyoqlarida charm ip bilan ko'klangan yengil mokasina – Blankita, quchog'ingda erib yotgan paytim qo'lga olishganda egnimda nima bo'lsa o'sha kiyimda edim. U pochasi-ni tizzasiga qadar qayirib oladi, shisha siniqlari, zang bosgan pichoqlar, chetlari o'tkir tunuka bankalari kesib yubormasligi uchun poyabzalini kiymaydi. Keyin bema-lol, ta'bir joiz bo'lsa, o'sha daryoning sayoz yeridan kechib o'tadi. Uning oyoqlari quyuq balchiqqa botadi; loyqa suv oqimi qochoqning boldirlariga shaloplab uriladi, naqadar yoqimsiz, Blankita.

Narigi sohilda bir tutam o't ko'rinmaydi, faqat tuproqdan iborat yonbag'irlik. Qiyalama tepalikka tirmashib

chiqib borar ekan, qo‘qqisdan turmaning tomidan sakragan paytda qayrilib ketgan oyog‘i og‘riyotganini his qiladi. Kutilmaganda tikanli sim to‘siqqa duch keladi. Bu tashlandiqda, shir yalang‘och, bo‘m-bo‘sh zaminning adog‘ida, na o‘t-o‘lan o‘sar, na odam zoti ko‘zga tashlanar, na parrandalar, na-da itlar ko‘rinadi. Odamlarga aloqador yagona narsa bu – bir zamonlar qirmizi arg‘umoq singari qaragan kishining ko‘zini o‘ynatgan, endi esa bir uyum temir-tersakka aylangan avtomobilning abjag‘i chiqqan qovurg‘asiga aylandi. Mashina to‘rt tomonidan g‘isht taxlab, ko‘tarib qo‘yilgandi. Uning orqa tarafida mixlab tashlangan eshik, tepasida lampochka, keyin devordan buralib chiqqan vodoprovod quvuri. Viktorino kranni burab ochadi-da, axlat yopishgan tufisini, boldirlarini yuvadi, chunki terisiga shu daryoning yog‘ aralashgan chalchig‘i yopishib yotibdi. Bu orada tong yorisha boshlaydi. Aravaning yengil taroqa-turuqi tong yog‘dusi aro atrofga taraladi. Viktorino tik ko‘chaning adog‘ida qaddini rostlaydi va istar-istamas Dominikan merengesini¹ hushtakda chalgancha Pelaes ko‘chasining muyulishiga qarab yuradi.

Xarobalardan uzoqlashar ekan, Viktorino nima borligini tekshirish uchun cho‘ntaklarini sinchiklab kavlashtiradi. Chap cho‘ntagidan Olov gul chaqqonlik qilib solib qo‘ygan bir bolivar kumush tanga chiqadi. O‘ng cho‘ntagida esa hammaning oldida Viktorino bilan tanishganimdan faxrlanaman, deya kolumbiyalik Kamachito esdalik uchun sovg‘a qilgan pichoq. Gazetalar bu yerdagi bezorilardan farq qiluvchi ko‘ngilchan va xushaxloq kiche hindusi deya sizni yozishgan, deydi Kamachito. U Viktorinoning qo-

¹ *Dominikan merengesi* – Karib havzasi mamlakatlarida keng tarqalgan ashula va raqs nomi.

chishga tayyorgarlik ko'rayotganini eshitib, pichog'ining bahridan o'tadi, uni Viktorinoga hadya qila turib, bir necha yurtdoshining qayerda turishini aytib, bir ilojini topib o'sha yerga borib-kelishni iltimos qiladi.

– Ular Pro Patriya nohiyasida yashaydi, lozim topsangiz kerak bo'lib qolar sizga, – deydi Kamachito. Orqa cho'ntagimda esa sen esdalikka bergan suratingni asrayman, Blankita, sevgilim, uni bir parcha xat bilan berib yuborgan eding, esingdami, o'sha nomani yirtib tashlaganman, kampirsho, unda ortiqcha tafsilotlar ko'p edi.

Seni topsam bo'ldi, Blankita, sening tabassuming ikki million badbaxt bashara orasida yo'qolib qoldi. Viktorino sen qamoqqa kirgizib yuborgan poyintar-soyintar xating oxiridan o'rin olgan gaplarni unutmagan, uni yoddan biladi: „*Qo'ni-qo'shnilarining istehzolariga boshqa chidayolmadim, ular menga go'yo iblisning o'ynashidek qarashadi, nima deb o'ylashlarini bilardim men haqimda: o'g'rining xotini, gazandaning rafiqasi, jamiyat dushmanining birinchi raqamli umr yo'ldoshi; xuddi bu haromilarning men haqimda nima deb o'ylashlari menga kerakdek yoki sen shu paytgacha nima qilgansan yoxud ertaga nima qilishing mumkin, bilmaydigandek bu itdan tarqaganlar, menga faqat sen bo'lsang bas. Qo'shiqda aytilganidek, boshqa hech narsa kerak emas sendan o'zga, men ortiq toqat qilolmayman bunaqa „odobli“ va bunaqa bag'ritosh odamlarga, bugunoq boshimni olib ketaman, jonginam, San-Xuandagi mehmonxonaga borib yashayman, ko'rishguncha, seni xayolan bo'salarga ko'mib, Blankita“.*

Mana shu bo'salar tufayli xatni yirtib tashladim. O'zing bir tasavvur qilib ko'rgin, Blankita, agar tintuv chog'ida shu xating jandamlar qo'liga tushgudek bo'lsa,

bo'salaring haqidagi gaplardan jilla qursa bittasi adoyi tamom bo'lardi. Sen San-Xuanda joylashgan mehmonxonaga ko'chib o'tganing haqida yozasan faqat, Blankita, go'yo o'sha San-Xuan bitta tor ko'chadek, axir, minglab uylar, garajlar, mehmonxonalar, novvoyxonalar, mayxonalar (beshdan oltigacha yopiq bo'ladigan), pochtaamlar, qandolatxonalar, non do'konlari, fohishaxonalar, kino-teatr, bilyardxonalar, turklarga tegishli do'konlar, boylarning koshonalari joylashgan nohiya bo'lsa. Sen xatingda, Blankita Viktorino osongina taslim bo'ladi, deb o'ylaganingga hayronman. Gazetalar uni tutishgani, politsiyaning buyuk jasorati haqida yozishyapti, deysan, emishki, qurollangan, o'ta xavfli gazandani, ya'ni meni ushlagan emish, bir o'zini alohida qafasda saqlashayotganmish, kecha-yu kunduz qo'riqlashayotganmish, bunaqa sharoitda qochish to'g'risida o'ylash ham mumkin emas-mish, sen shunga ishongansan, Blankita, to'g'rimi, lekin mehmonxona San-Xuanda deyapsanmi, baribir topiladi bu mehmonxona, Blankita...

Viktorino San-Xuanga olib boradigan yo'l yoqalab tez-tez odimlab borar ekan, shahar ko'chalari sabzavot va meva-chevaga to'lib ketadi. Pomidor bilan qizil karam orilgan yuk mashinalari Kinto Krespo bozoriga bazo'r kirib boradi. Hali tong yorishmasidan saharxez portugaliyalik mayxonachi kishining g'ashini keltirib g'ijirlatgan-cha korxonasining sim darpardasini ko'taradi-yu, bu bilan do'konini ochgan bo'ladi. Viktorino bir piyola qahva ichish uchun to'xtaydi, qorni tatalab ketgani o'zidan ogoh qildi, chamasi. Qahva uzatayotgan yirtiq-yamoq alpargatdagi habash kulrang bolivaridan qaytim qaytarayotganda gardanini qashib qo'yadi. Ikki nafar suyuqoyoq xotin eski uyning eshigi oldida turgancha og'zidan bodi kirib-sho-

di chiqadi, ular odam tufayli emas, pul uchun so'kishadi, hattoki bir-birini yumma talashga tayyor.

Viktorino qiltiriq shahar politsiyachisiga urilib ketadi, uning egnidagi formasi o'ziga kattaroq ekan, shekilli, halpillab turadi. Uning to'pponchasini tortib olish istagida Viktorinoning kafti qichishadi. Biroq daf'atan mototsiklda o'tirgan uzoq bir tanishini ko'rib qoladi, lekin darrov eslolmaydi. U, aftidan, nimanidir yoki kimnidir kutardi. Viktorino unga qarab turib xotirlaydi – bu non do'koni joylashgan ko'chada istiqomat qiladigan yigit-ku. Shahar mototsiklchilarini tavakkalchilik va quloqni qomatga keltiradigan tarillagan tovushlarga bo'lgan munosabatlarining mushtarakligi, avtobuslarning zaharli gaz chiqarishi hamda vaysaqi chollarga nisbatan umumiy nafrat birlashtirib turadi. Viktorino ham boshida atrofdagilardan zarracha uyalmay-netmay senorlarning qo'lidagi xaltasini yoki sumkasini yulib qochadigan mototsiklchilar toifasiga mansub edi.

– Kaminaning ahvoli chatoq, og'ayni, pul-mul berib turmasang bo'lmaydi.

Mototsiklda o'tirgan nusxa dovdirab unga tikilib qoladi, bu nusxa uning na ismini biladi, na kasbini, ovozi ni ham eshitmagan, lekin tashqi ko'rinishi, ha, uning bu qiyofaga bir necha bor ko'zi tushgan. Biroq boshqa bir bashara esiga tushadi, keyinchalik ko'rgan, ammo qayerda, eslolmaydi, gazetada har kuni surati e'lon qilinayotgan bandit bilan uning aft-basharasini qiyoslashga esa yuragi betlamaydi. Undan tashqari, o'sha jinoyatchi ushlandi, deb qayerdadir o'qigan, ammo qayerda, bu ham esida yo'q, lekin o'qiganligi aniq. Shu komil ishonch har qanday shubhali fikrni arining inidek g'uvullayotgan kallasidan chiqarib tashlaydi, oqibat, besh bolivar uza-tayotgan paytda uning qo'llari qaltiramaydi.

– Albatta qaytarib beraman, og‘ayni, ko‘rgan zahotim pulingni olasan, – deydi chin ko‘ngildan Viktorino.

Aloha, sening eng yaqin dugonang bilan uchrashish uchun yo‘lga tushadi, Blankita. Uning ismi Tanya, biroq qaysi tentak ishonadi beshikdayoq unga slavyanlarga xos Tanya degan shu ismni qo‘yishganiga. Esingdami, sen bilan birga ishlardi u, ikkingiz „Jannat“ mayxonasida mijozlarni qarmoqqa ilintirardingiz. Viktorino seni shu nahs bosgan makondan olib chiqdi va boshpana topib berdi, Tanya sen gumdon bo‘lgan hozirgi iningning qayerdaligini biladi, bu aniq.

Tanya rostdanam bilar ekan. U qiya ochiq eshikdan oyoqyalang chiqib keladi. „Kim?“ deydi uyqusirab u, aftidan, politsiya deb o‘ylagan, shekilli. Tanyaning politsiya yoki kutilmaganda ortiga qaytib qoladigan allaqanday shovvoz yigit yoxud qarzi ko‘payib ketgan qandolatchi bilan o‘z hisob-kitobi bor, ammo u xavotir qilgan ikkinchi darajali xavf-xatarlardan bittasi ham yuragiga tahdid solmayotgandi. Viktorinoni ko‘rib uning avvalgi xavotirlari hech gap bo‘lmay qoldi. Tanya talon-toroj qilingan do‘kon, italiyalik yigitning o‘limi (uni o‘ldirmaslikning sira iloji yo‘q edi), jinoyatchining qoyilmaqom qilib tutilgani – hammasidan boxabar edi. Buni qarangki, o‘sha jinoyatchining o‘zi unga o‘tkir nigohi ila ro‘parasida tikilib turibdi. Tanya mehmonxonaning shoirona nomini shivirlagudek bo‘lib tilga oladi, „Lukaniya“, yigit, „Lukaniya“, deydi-da, xuddi qora o‘latdan saqlanmoqchidek eshikni darhol taroqlatib yopadi.

Agar u miyasiz habash bo‘lmaganida, Tanya aytgan ovloq yerdagi bu mehmonxonaning nomini eslab qolgan bo‘lardi, chunki ular Blankita bilan dastlabki paytlarda, shanba kunlari doimo shu yerda vaqtichog‘lik qilishardi.

Sen u paytda, Blankita, hali mayxonada xizmat qilib yurgan qizcha eding, uning rafiqasi emas. Qayerdaligini eslatishgan mehmonxona bor-yo'g'i ikki qavatli qiyshayib qolgan, fayzsiz, buning ustiga eski bir uy edi; unga kattagina bo'qoqli, qora kiyimdagi azador kampir darbonmi, xo'jayinmi yoki undan battarmi, qarab turardi. Hozir soat endigina ertalabki yetti edi, hali barvaqtroq bo'lgani uchun eshik taqa-taq yopiq, ichkaridan yo kalit yoki ilgak bilan qulflab qo'yilgandi. Bunaqa paytda bitta-yarimta odamning „Lukaniya“ mehmonxonasiga boshpana so'rab kelishi dargumon.

Nihoyat, eshikni ochishadi. Mehmonxona boshlig'i bundan buyon motamsaro semiz, kampir emas, balki shu uyni ijaraga olgan va butun vujudidan „gorgonzola“¹ gurkirayotgan italiyalik ekan.

– Nima kerak sizga? Yangi ijaragir mehmonxonaning pala-partish sharoitini yaxshilashni xayoliga ham keltirmagan ko'rinadi. Hov anavi yerda o'sha-o'sha qattiq stullar turibdi, o'zgarmagan, bir paytdagi yag'iri chiqqan darpardalar osilib yotibdi, bir zamonlar yaltiroq ramkaga solib osib qo'yilgan Xaloskorning oq otdagi surati bugun pashsha talayverib xira tortib ketgan. – Senor nima istaydilar? Qotma farrosh ayol xuddi o'ziga o'xshash paxmaygan supurgi bilan chog'roqqina hovli sahnini supurib yuribdi. Supurgi va farrosh ayol ikki tomchi suvdek bir-biriga o'xshaydi. – Nima kerak sizga, per la Madonna?²

– Siz aytayotgan senora bu yerda istiqomat qilmaydi, – deydi italiyalik. – Sen o'z familiyangni aytmasdan to'g'ri qilgansan, Blankita, gazetalar Viktorino bilan sening ismingni birga yozishardi. Viktorino sening fotosu-

¹ *Gorgonzola* – italyancha pishloq turi.

² *Per la Madonna* – Bibi Maryam haqqi (ital.).

ratingni eslab qoladi-da, orqa cho'ntagidan chiqarib mehmonxona xo'jayiniga ko'rsatadi.

– U singlim, men Rio-Chikodan keldim, qari onamning oldidan, zarur ishim bor.

Italiyalik sening suratingga ko'z qirini tashlaydi, Blankita. Uning go'shtdor ko'rsatkich barmog'i ikkinchi qavatning burchagini ko'rsatadi, o'sha, sizlar, sen bilan u „Jannat“ stolida bir-biringizni suyub o'tirganingizdan so'ng tuni bilan uxlamay tong orttirgan o'sha xonani ko'rsatadi. Viktorino oyoqlarini zo'r-bazo'r bosib, zina tomon yuradi, o'qtin-o'qtin tizzasi og'rib qo'yadi, shunga qaramay to'rt hatlab ikkinchi qavatga chiqib oladi va eshikni mushti bilan gursullatib qoqadi, bir, ikki, uch, sen unga javob qilmaysan, Blankita. Unga erkak kishining xirillagan na'rasi bilan javob qaytaradilar.

– Bema'nilik ham evi bilan-da, shunaqa paytda ham keladimi odam degan? He la'nati...

O'sha kuni Viktorino Krisanto Guanches bilan taniшиб qoldi, bu tasodifiy uchrashuv sergap va juldurvoqi mulatning hayotiga qanday o'zgarishlar olib kelajagini o'sha paytda o'ylab ham ko'rmagandi.

Viktorino deyarli hech bir darsga kirmasdi. Onasi uning bunday sayoq yurishiga panja orasidan qarardi: otasi Fakundo Guterresning endi qo'lidan hech narsa kelmaydi. Bir yildirki, ularning ko'pxonali uylarida uning qorasi ko'rinmas, bu safar u Viktorino nafratining og'ir toshini o'zi bilan bir umrga olib ketgandi.

Viktorino o'zining ketcher'i Suv Martishkasini izlab deyarli jarlikning pastiga tushdi. Martishka hech qachon maktabdan qochmagandi. Chunki u umuman o'qimasdi.

¹ *Ketcher* – beysbol o'yinida to'pni tutib oluvchi o'yinchi (ing.).

Suv Martishkasisiz Narsisaning tirikchiligi qanday o'tadi? Suv Martishkasi mijozlarga yuvilgan kiyimlarni eltib bergan, Suv Martishkasi guruch bilan banan olgani shaharga chiqib kelgan, Suv Martishkasi duch kelgan narsani og'ziga tiqaveradigan uchta shaytonvachcha ukalariga qarab turgan. Narsisaning to'rt nafar o'g'li bir-biriga umuman o'xshamas, ular qoni bir aka-ukalarmi, deb so'rash hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Buning ustiga o'g'illardan bittasi ham Narsisaga o'xshamas, hammasi otalariga tortgan, binobarin ularning otalari boshqa-boshqa edi.

Viktorino Narsisalarning uyini, ko'priikka yondosh ivir-siq kulbani o'zi istiqomat qilayotgan ko'pxonali uyga nisbatan ko'proq yaxshi ko'rardi. Bu g'aroyib fikrni onasi oldida aytganda, onasi ensasi qotib, unga istehzo bilan qarab qo'ygandi. Kallavaram bo'la. Narsisa bilan Suv Martishkasining kulbasi eski-tuski qurilish mollaridan ko'tarilgan edi. Devorini tiklash uchun ketgan karton va tunukalarni qayerdan keltirishgan, Xudo biladi. Pol-chi? Yer bilan shag'al bo'ldi. Shift-chi? Ikkita ayri shoxning ustidan zanglagan tunuka qoqilgan, bunaqa tunukalar hamma yerda palpis sochilib yotibdi. Jarlikning tik yonbag'ri kulbaning orqa devorini tashkil qiladi. Yomg'ir yog'magan paytlar jarlikka suv to'lmasdi, lekin chelaklab quyganda esa loyqa oqim yo'lbarsga o'xshab o'kirar, balchiq yopishgan biya kabi ko'kka sapchir, odamlarning lash-lushini ba'zan oqizib ham ketardi, olib ketmoqchi bo'lib vahima solar-di. Ko'prikdan yuk mashinalari gumburlab o'tar, yengil avtomashinalarning klaksonlari yangrar edi. Shunga qaramay, Viktorino jarlik yonboshida o'yib ishlangan bu g'orni ko'pxonali uylarining bitta xonasi tugul, uzun yo'lak bo'ylab joylashgan yigirma uchta xonadan afzal bilardi. Onasi buni qayoqdanam tushunsin!

– Qani, ketcher, ketdik o‘ynaymiz!

Suv Martishkasi to Narsisa ishtonchang bolalari va ezma qo‘shnilari qurshovida tog‘oradagi choyshabni ivitib bo‘lguncha xayol surib yotadigan katdan pastga tushdi. Suv Martishkasi bir sakrab tashqariga chiqib oldi va Viktorinoning ortidan yo‘lga tushdi. Ular jarlikning tubidan boshlanib, sayyor savdogarlarning shovqin-suroni eshitalayotgan tepagacha cho‘zilgan tor va tik so‘qmoqdan oyoqlarini sudrab borishardi. Viktorino ancha tetik qadam tashlar, Suv Martishkasi undan uch qadam orqada kelardi. Ular birdan pastga tushib kelayotgan Krisanto Guanchesni yoki Kachiruloni, o‘shanda u o‘zini yigitlarga shunday deb tanishtirgan edi, ko‘rib qolishdi. Krisanto Guanches ularning yo‘lini to‘sdi, u tasodifan jarlikka qulab tushmaslik uchun chap qo‘li bilan chirmovuqning gajagini ushlab olgandi.

– Sizlar shu yerlikmisizlar? – deb so‘radi Krisanto Guanches.

– Ko‘rinib turibdi, bu yigit bizdan kattaroq bo‘lsa kerak, deb o‘yladi Viktorino. U gavdaliroq yoki baquvvatroq bo‘lgani uchun emas – yo‘q, u – aslida – baland bo‘yli va baquvvat ham emasdi, shunchaki ovozi xirillagan, qo‘llari mehnatkash, suyakdor va burgutko‘z ekanligi uchun. Krisanto Guanches hindu qoni aralashgan mulat edi, oq tanlilarnikiga o‘xshash qirraburun, ko‘zlari habashlarniki singari ehtiyotkor va o‘tkir boqardi; o‘chay deb qolgan sigaret qoldig‘i labining chetida g‘o‘dayib turardi. Egnida bir paytlar baqato‘ni rangida bo‘lgan shim, ustidagi kulrang ko‘ylagingning ko‘krak qismi yirtiq edi.

– Men shu yerda, ko‘prik tagida yashayman, – dedi Viktorinoning orqasida turgan Suv Martishkasi.

Viktorino bilan Suv Martishkasi – pitcher¹ bilan ket-cher, bir partiya beysbol o'ynagani ketishayotgan edi; portugaliyalik do'kondorning bolalari yangi koptok olib kelaman, deb va'da qilishgandi, biroq Krisanto Guanches bilan tasodifan uchrashib qolishgani o'yinning beliga tepdi.

– Sizlar bilan gaplashib olishim kerak, – dedi u. Ular yarim yo'lda to'xtab, ko'prik tagiga tushib, o'sha yerga o'tirishdi. – Mening ahvolim chatoq, – dedi Krisanto Guanches va boshidan o'tgan voqealarni oqizmay-tomizmay so'zlab berdi. Viktorino bilan Suv Martishkasi uning hikoyasini alohida zavq bilan, savolga tutmay, jimgina o'tirib eshitishdi. Ahyon-ahyon Viktorinoning ta'sirlanganidan oh tortib yuborgani yoki Suv Martishkasining bemavrid qovun tushirishlari, aytaylik: voy bechora jonim-ey, deyishlarini hisobga olmaganda, uning gaplariga jimgina quloq solishardi.

– Dastlab, men Los-Tekes axloq tuzatish koloniyasidan qochdim, – deya hikoyasini boshladi Krisanto Guanches. Qamoqdan qochganligining juda ko'p sabablari bor edi. Buni qarangki, uni tug'gan onasi koloniyaga yuborgan ekan, o'g'lining o'qishiga, boqishga bechora ayol qayerdan pul topsin?! Beshta shumtaka bolani otasiz boqishning o'zi bo'ladimi! Bu yerda esa hech bo'lmaganda savodining chiqadi, biron-bir hunar o'rganasan, degandi onasi unga qamoqxonaga kiraverishdagi tarvaqaylab o'sgan hind xurmosining ostida. O'qishni-ku o'rganishga o'rgandi, biroq u yerda orttirgan o'rtoqlari o'rgatgan hunar onasi orzu qilgan narsalardan keskin farq qilardi. U o'rgandi, lekin bu qanaqa hunar edi: pichoq bilan odamlarga zo'ravonlik

¹ *Pitcher* – beysbol o'yinida to'p uloqtiruvchi o'yinchi (ing.).

qilish, ularning shafqatsiz „adolati“dan saqlanish, qulfbuzarlik va devor oshib o‘tish degan narsalarga o‘rgandi, xolos. Ittifoqo, bir kuni besh kishi bo‘lib koloniyaning oshpaz ayoliga tashlanishdi va galma-galdan zo‘rlashdi. O‘shanda bo‘g‘zingga o‘tkir pichoq tirashsa, qarshilik qilmaslik kerakligini o‘rgandi. Qo‘liga tushgan kayf beruvchi nimaiki bo‘lsa, shuni chekishga o‘rgandi, bilmagan hunari qolmadi, oxiri tong mahali qamishzorlar oralab, tikanli simlar orasidan o‘tib, qamoqdan qochdi va yo‘lda duch kelgan kimsadan xavotir qilib, Karakasga yetib keldi. U to‘g‘ri uyiga bormay, balki omborxonalar, chakalakzorlar, tashlandiq, vayrona binolarda yashirinib yurdi.

Hozir men ilgarigidan ham „tozaroq koshonadan“ qochib kelyapman, maqtanishda davom etdi Krisanto Guanches o‘zining jasoratlaridan faxrlanib. Bu safar u Takarigua orolidagi axloq tuzatish koloniyasidan qochgandi, ko‘lning qoq o‘rtasida joylashgan bu lagerga birovning mototsiklini olib qochgani uchun surgun qilingandi. O‘sha yerda u voyaga yetmagan, lekin ko‘pni ko‘rgan jinoyatchilar orasida tajriba orttirdi, „tarbiyalandi“, bilmaganini bilib oldi; qilgan gunohini yuvish uchun beton polda uxlaydigan, buning ustiga quruq non bilan suvdan boshqa narsa berilmaydigan joy – karser nimaligiga aqli yetadigan bo‘ldi; o‘rama qamchi bilan urish va bo‘ralab so‘kishni kanda qilmaydigan soqchilarni, barcha ruknlariga itoat etish shart bo‘lgan diniy marosimlarda qatnashish uchun butxonaga borib turish vojibligini ko‘rdi, millatning faxri bo‘lgan bayroqni har kuni ertalab iftixor bilan baland ko‘tarish lozimligini o‘rgandi. Bilib qo‘ysa yomon emas. Yetti mahbus qayerda bo‘lmaylik, qanday sharoitga tushib qolmaylik, bir-birimizdan xabar olib turamiz, deya

qasam ichganmiz. Kunlardan bir kun kechasi qo'shni orol qirg'og'ini egallab yotgan qamishzorgacha suzib bordik. Hamma yoq g'ij-g'ij ilon, maqsad o'sha atrof-dagi bir asendani tunash edi aslida, lekin nasib etmadi, nega deganda, ular qarmoqqa tushishdi, soqchilar, iskovuchlar Krisanto Guanchesdan boshqa hammani qo'lga oldi, u esa yakshanba kunlarining birida xufiyona yotib yurgan yeri – qaysidir katta yo'lning chekkasidagi axlatxonadan chiqib keldi; Krisanto Guanches yuk mashinalariga ortilgan qop-qanorlar, tog'-tog' g'aramlar, chirib iriy boshlagan sabzavotlar orasida qanchadan qancha yo'l bosdi; Krisanto Guanches Aragua qishlog'ining cherkovlarida tilanchilik qilib yurdi; tashlandiq kulbalarda tamaki poyalarini to'shak o'rni-da solib yotib yurdi; mana o'sha Krisanto Guanches, sog'-salomat, xizimatingizga tayyor.

– Ana iroda! – dedi hayratga tushgan Suv Martishkasi.

– Endi nima qilmoqchisan? – deb so'radi Viktorino qayoqdandir qo'liga tushib qolgan yaproqni ezg'ilab.

U shaharga endigina, bugun azonda Antimono orqali keldi. Hali bu zovurdan chiqqanicha yo'q, bitta-yarimta o'ziga o'xshagan jo'mard uchrab qolar deb yuribdi, iskovuchlarga o'xshamagan. Krisanto Guanches Viktorining ko'ziga tikildi.

– Menga ishonchli do'st, hech qanaqa ishdan qaytmaydigan sherik kerak, – dedi Krisanto.

– Bor shunaqa odam, – dedi Viktorino.

Viktorino eshikni bir tepib ochadi-yu, birin-sirin o'zining baxtsizligi qa'riga cho'ka boshlaydi. Birinchi musibat stul suyanchig'iga tashlab qo'yilgan erkaklarning g'ijim ko'ylagi bilan mag'lub bo'lgan qo'shinning jangovar bayrog'i kabi polda yotgan ichki yubka, yana bir kul-

fat allazamonlardan beri kiymay qo'yilgan Blankitaning qizil munchoqlar qadalgan ko'ylagi. Viktorino uni Blankita yo ijaraga topshirgan, yo sotib yuborgan yoki juda bo'lmasa qo'shnilaridan bitta-yarimtasiga sovg'a qilgan, deb yurardi. Ikkinchi kulfat uning to'shakka yuz burishini kutib yotardi.

Blankitaning to'zg'igan sochlari yostiqni butunlay qoplagan, nuqralari zar sepilgandek tovlanardi. Blankitaning boshi tomonga oq paypoq kiygan erkak kishining oyoqlari bafurja uzatilgan. Bu nusxaning bunaqa yotishi hech bir yerda ko'rilmagan edi; oyoqlarida oq paypoq, odatda, chavandozlar kiyadigan kalta ishtondan boshqa egnida hech nima yo'q.

Viktorino uning kasbi-kori noma'lum metis Marokuchito ekanini darhol fahmladi, u hatto kissavur ham emasdi. Marokuchito har shanba kuni kechqurun „Jannat“ peshtaxtasi oldidan ketmas, hech qanaqa kuy-qo'shiq uni raqsga tortolmas, mayxonaning doimiy mijozi ekani uchun hojatxonaga borayotgan qiz-juvonlarning qaddi-qomatlariga suq bilan tikilib o'tirishni o'ziga bir ermak qilib olgandi. Krisanto Guanches metis Marokuchitoni politsiyaga ishlaydi, u sotqin va quloq, deb bir paytlar ishontirmoqchi bo'lgan, biroq uning bu aybnomasi tasdiqlanmagan, Krisanto Guanches tabiatan badgumon odam bo'lib chiqqandi, xolos.

Marakuchito ham uni tanidi; dimog'iga urilgan qon hididan sezdi, tamom, qopqonga tushdi, qutulishi dargumon. Hozirgina eshik taqillaganda ko'nglida uyg'ongan g'ijinish, norozilik birdan yo'qolib, o'rmini qopqonni ko'rib vahimaga tushgan kalamushning qo'rquvi egalladi. U sarosima ichida eshik tomonga sekin ko'z qirini tashlaganda, daf'atan Viktorino orqa cho'ntag-

ini paypaslayotganini sezib qoldi va o'sha zahoti hali nima chora ko'rish kerakligi xayoliga kelmasidan burun titrayotgan, ingichka, chayir barmoqlar orasida pichoqning temir dastasi yiltilladi va ketma-ket pichoq tig'ining sharoqlab ochilgani eshitildi. Metisning tirik qolish uchun birdan bir, ishonchsiz va xatarli bo'lsa-da, yagona yo'li, garchi Viktorinoning pichoq tutgan qo'li to'sib qo'ygan esa-da, shu qiya ochiq turgan eshik, xolos. O'zini himoya qilish instinkti yoki qoniga singib ketgan hindularning mantiqiy tushuncha xulosasi unga eng katta xavf – xonada qolish ekanini ta'kidlardi: bu tahqiromuz tomosha davom etgan sari Viktorinoning qahr-g'azabi sutdek toshaverdi, u o'zini qo'lga olgan sari yovuz qarorini amalga oshirish istagi vujudini qamrab borardi. Qorong'ilik qo'ynida hayallash – o'zini cho'chqadek chavaqlab tashlashga tutib berish degani. Marokuchito karavotdan dumalab, narigi tarafdagi devorga yopishib oladi va eshik bilan o'zining o'rtasidagi o'sha la'nati ikki qadam masofani qarichma-qarich bosib o'tishga harakat qiladi. U surilib surilib borar, joni halak alang-jalang qilar, birdan tashlangan pichoqdan saqlanish uchun ortiga sapchib qolar, o'tkir pichoq uning kindigidan ikki enlik naridan o'tib ketardi. U shikoyatomuz ravishda:

– Meni bitta arzimagan fohisha deb, naqs bosgan buzuqi uchun o'ldirasanmi, akaginam? – deya diydiyo qilardi hiqillab.

Shu iflos gap jirkanch og'zidan chiqmaganda edi, uni o'ldirgan bo'lardim, Blankita, jonimni o'rtaga qo'yib aytaman, u haq, sening qilmagan ishing qolmagan. Ham fohishasan, ham arzon-garov suyuqoyoqsan, lekin, afsuski, ming afsuski, men uchun sen halol xoti-

nim eding. Men turganda hukm chiqarish unga emasdi, og'zidan chiqqan bunaqa gap uchun, Blankita, o'sha harom tilini sug'urib olish o'rniga, ko'tar ishton-pishtonigini, ko'zimga ko'rinma boshqa, yo'qol, maraz, deb o'shqirdim unga. U yana qaytarishimni kutib o'tirmay ishtoni bilan ko'ylagini ola qochdi, yaramas! Hatto poy-abzali esiga kelmadi, shu uchgancha mehmonxonadan tirik chiqqaniga o'zi ham ishongisi kelmay, oyog'ini qo'lga olgancha o'shanaqasi Guarataro tog'ining narigi tomoniga o'tib ketdi.

Keyin Viktorino sening hiqillab yig'lashlaringga jimgina qarab turadi, Blankita, uning ko'zyoshlari shashqator oqardi:

– O'ldirma meni, jonim, qasam ichib aytaman, zarracha yomon ishga bormadim, onam nomini o'rtaga qo'yib ont ichaman, bilaman, menga baribir ishonmaysan, kecha kechqurun „Jannat“da sening dardingda alamimdan rosa ichdim, chidolmadim, yuragim ado bo'ldi, o'zing yaxshi bilasan, kechasi bir o'zim yotishga qo'rqaman, har xil xayollarga boraman, xuddi arvohlar ta'qib qilayotgandek tuyuladi. Marakuchitodan o'zim iltimos qildim, meni mehmonxonaga eltib qo'y, dedim, yo'q demadi, kelganimizda allamahol bo'lib qolgandi, u majbur bo'ldi tunab qolishga, boshini karavotning narigi tomoniga qo'yib yotdi, ishonmaysan, ishonishni ham xohlamaysan, bilaman, onamning arvohi ursin aldasam, o'ldirma meni...

Blankita yanglishyapti. Viktorinoning tushiga ham kirmagandi uni o'ldirish, faqat qamoqdiligida qilgan ishlari evaziga pichoq bilan bir-ikki yerini tilib, esdalik qoldirmoqchi edi, xolos. U asta-sekin choyshablar orasida hiqillab yotgan qizning tepasiga yaqinlashdi; Blankita

badaniga sanchilajak temirning muzdek taftini his qildi-yu, devor tomonga o'zini otdi, pichoq bitta ko'kragini yengilgina tirnab o'tdi. Tirnalgan yerdan qon sizdi, lekin bu chandiq bo'lib qolishi uchun yetarli emasdi.

Blankita Viktorinoning pichoq ushlagan qo'li bilan devor o'rtasidagi torgina oraliqda orqasini o'girib, baribir foydasi tegmaydigan zorlanishini haliyam qo'y-masdi:

– Men yomon ish qilmadim. Menga rahming kelsin, jonginam. – Viktorinoning battar qoni qaynaydi. Adolat yuzasidan jazolashga qaror qiladi, bu safar uning qo'li qaltiramasligi kerak, qaltirashi ham mumkin emas, oqibat Blankitaning orqasida ikkita chiziqdan iborat benazir shakl paydo bo'ladi, biri tabiatning ishi – tug'ma, ikkinchisi uning ishi. Blankita og'riqdan qichqirib yuboradi, ammo o'sha zahoti chinqirganiga pushaymon bo'ladi, chunki o'rtalarida yuz bergan sharmandalik bu xonadan tashqariga chiqmasligi shart. Shu paytgacha bir marta bo'lsin uning ovozi chiqmagan, hiqillashdan nariga o'tmagandi, ular o'rtasidagi janjal-to'polon faqat ikkoviga tegishli, boshqa hech kimga. – Umrimga zomin bo'lmoqchimisan, sevgilim?

Blankitaning orqasidagi pichoq izlari ko'kragidagi izlardan butunlay farq qiladi, u qassobning ishiga o'xshaydi – pichoq uzun va chuqur tortilgan. Qip-qizil go'sht to'qimasi ochilib qolgandi. Faqat hammasini qon buzardi, oppoq choyshabga surkalar, matrasdagi gul suratini qoraytirib qo'ygan, polga ham bir-ikki tomchi tushgan edi. Blankita Viktorinoning pichoq tutgan qo'lini ushlab olish uchun dam-badam chang solar, eski plastinkadek uchta so'zni qaytarishdan nariga o'tmasdi: – Meni kechir, jonginam; meni kechir, jonginam; meni kechir, jonginam; meni

kechir, jonginam; meni kechir, jonginam!.. Bu to Viktorino quruqshagan lablari bilan sening ko'zlaridagi g'ilt-g'ilt yoshni shimib tashlamaguncha davom etadi, chunki u hech kimni, hech qachon senchalik sevgan emas, Blankita. Shunchalik qattiq sevganligidan, sening begona erkak bilan bitta karavotda yotganingni ko'rib es-hushini yo'qotdi. Shunchalik qattiq yaxshi ko'rganligi uchun orqangdagi qonli jarohatdan o'zi azob chekmoqda. Sen barcha qilmishingni qon bilan yuvib bo'lding endi. U tamaki va yalpiz hidi anqiyotgan lablaringdan o'par, esini yo'qotgan ahmoq kabi senga qo'shilib uvvos solib yig'lardi.

Zinaning tagida turgan italiyalik befayz, lo'lining aravasi kabi uvunto'da, titig'i chiqqan yo'lakdagi mash'um manzarani ko'rib qotib qoldi. Viktorino pillapoyalardan oqsoqlana-oqsoqlana tushib kelar, lat yegan oyog'i haliyam og'rir, shunga qaramay ikkala qo'li bilan yaralangan xotinini quchoqlab olgan, qo'yib yubormas edi.

– Per la Madonna! Che hai fatto?¹

Italyanning aft-basharasi kema tumshug'ini bejagan yog'och niqobdan farq qilmasdi. Blankitaning qonli iz qoldirib, zo'rg'a odimlayotgani unga shunday ta'sir qildi.

– Garogna, che non sei altro!²

Viktorino Blankitani ehtiyotlab va avaylab eshik oldigacha olib keladi-da, uni xuddi bir qo'g'irchoqdek eshik kesakisiga suyab qo'yadi. Ko'chadan o'tib ketayotgan ikki nafar yo'lovchi qiz bir qur qarab, bu ayolning qo'l-oyog'i ishlayaptimi yoki jonsiz manekenmi, angalayolmay yo'lida davom etadilar. Viktorino yig'lamoqdan beri bo'lib qo'lini ko'tarib taksi to'xtatadi.

¹ Bibi Maryam haqqi, nima qildingiz?

² Shunchalar itlik qiladimi odam degan!

– Tezyordam punktiga eltib qo‘y, birodar, qon ketyap-ti, maestro!

Haydovchi unga shunday qaradi-yu, raftoridan gap qon ketayotgani haqida emas, qon to‘kish haqida borayotganini fahmladi, lekin baribir tishini tishiga qo‘yib bo‘lsa ham ayolni orqa o‘rindiqqa joylashtirishga ko‘maklashdi. Rangi bo‘zdek oqarib ketgan Blankita na gapira olar, na dod-voy qilar, na vidolashishga holi kelardi. Viktorino haydovchining qo‘liga boya mototsikldagi yigit bergan pulni tutqazdi-da, gapini yana takrorladi:

– Uni tezyordam punktiga olib borish kerak, tezroq bo‘l, maestro!

Haydovchi mashinani yurg‘azishdan oldin Viktorinoga xo‘mrayib qaradi; uning nima deb o‘ylayotganini anglash qiyin emasdi: „Peshonam qursin, ertalabdan uchragan odamni qara! Bu xotin hamma yoqni rasvo qilishi turgan gap, deya ko‘nglidan kechiradi. Mana, rasvo qilib bo‘ldi. Xudo ko‘rsatmasin, politsiya ushlab olsa, ushlashi aniq, guvoh sifatida meni tergovga chaqiraverib, odamlar bilan yuzlashtiraverib enka-tinkamni quritadi“, deb xayol qildi u, lekin shunga qaramay mashinani o‘qdek uchirib ketdi. Blankita o‘tirgan mashina muyulishdan burildi. Viktorino esa hamon ko‘chaning qoq o‘rtasida, shimining qonga belanganidan bexabar holda o‘zini o‘ldirib tashlab ketilgan otdek sezardi. – Blankita, men seni judayam yaxshi ko‘raman, nega meni bunchalar sharmanda qilding?

– Don Santyagoni eslaysanmi? – deya so‘radi birdan Viktorino azbaroyi jim o‘tirmaslik uchun.

U o‘zini qiynay boshlagan va og‘ir toshdek yelkasi-ni bosib kelayotgan jimlikdan qutulish uchun so‘ragandi; uning Krisanto Guanches ko‘zlarida charoqlagan jonsiz

nurni o'chirgisi va chaqchaygan ko'zlariga bir siqim kul sepib yuborgisi kelardi. Zovurga qaragan lang ochiq dera-zadan xo'rozlarning mahzun marsiyalari eshitaladi.

– Don Santyago esingdami, deb so'rayapman sendan?

Krisanto Guanches don Santyagoni juda yaxshi es-lardi, lekin javob qaytarmadi, u ayni chog'da qanaqa bo'lishidan qat'i nazar, boshqa savollarga ham javob bermagan bo'lardi. Don Santyago xushmuomala va ser-himmat galitsiyalik odam, u vazmin va kamgap bebaho qariya bo'lib, o'g'irlikni boshlashgandan keyin uning oldiga tez-tez borib turadigan bo'lishgandi. Viktorino mayl-havas yoki ishqibozlik tufayli mol-dunyo orttirish ishtiyoqida emas, shunchaki, o'zining Takarigua orolidan kelgan sheryurak qaroqchi o'rtog'i Krisanto Guanches-ga munosib bo'lish istagini qondirish uchun shu yo'lga kiringandi. Mana, aytaylik, qandaydir baxtli tasodif tufayli kimsasiz yoki yo'lovchilar siyrak ko'chaning chekkasida bir qizil mototsikl uchrab qoldi, egasi qayoqqa gumdon bo'lgan, Xudo biladi! Nega uni minib bamaylixotir hay-dab ketmaslik kerak?

Don Santyagoning ustaxonasiga bostirma tagidan kirib borilardi; mog'orlab ketgan devorga zanglagan g'ildirak-lar, kalta-kulta quvurlar suyab qo'yilgandi. So'ngra yana ikki eshik va temir-tersaklar uyumidan o'tib, don Santya-go chinakam galitsiyaliklarga xos halol ter to'kayotgan xonaga borasan; u yerdagi ombirlar va bolg'alar na dam olish, na bayram kunlarini biladi. Oppoq sochlari va pe-shonasiga ko'tarib qo'yilgan ko'zoynak don Santyago-ga musharraf qariya siymosini baxsh etardi. Unga qarab boshqacha o'ylashga jur'at qiladigan odam topilarmikan? Siz mototsiklni sudrab keldingiz-da, go'yo ishdan chiqqan bir qismini tuzatmoqchisiz. Don Santyagoning g'ildirak-

lar pokrishkasiga bitta qarashi kifoya qilardi narxini chiqarishga: shu mototsikl uchun yigirma bolivar bera-man! Siz savdolasha boshlaysiz, yaqinda olingan, yana nimaymish, deyarli yangi, buning ustiga „raleye“ bo‘lsa; don Santiago kayfiyati yaxshi bo‘lsa biroz narxini ko‘ta-rardi-yu, siz mototsiklsiz, asosiy eshik orqali mag‘ruo-na yurish bilan „Barrankilyada sho‘ng‘ib yurar bir tim-soh...“ degan qo‘shiqni xirgoyi qilgancha chiqib ketasiz. Keyin nomerni almashtirish, mototsiklni odmiroq rangga bo‘yash, ayrim yerlarini qayta remont qilish va oxiri so-tib yuborish qoladi. Don Santiago, Xudo biladi qanchaga sotarkan endi. Mana shunaqa mayda-chuyda ishlar bilan bevosita don Santiagoning o‘zi shug‘ullanar, ana shu tufayli aytgani-aytgan, degani-degan edi, odamlar bilan osh-qatiq bo‘lishni yaxshi ko‘rar va shu tufayli, umu-man, hurmat-e‘tiborga sazovor ko‘rilardi. – Belomontda istiqomat qiladigan amerikalik ayolni-chi, eslaysanmi? – dedi Viktorino hamon gapni paytavalash uchun, uning bu shilqimligi hatto o‘sha, Planchart turmasida o‘tirish-gan ko‘ngilsiz hafta davomida ham Krisanto Guanchesni kulishga majbur qilgan bo‘lardi. Biroq bu safar u kulma-di, jimgina shiftga qarab yotaverdi. Ko‘rshapalak yori-shib kelayotgan devorga tarsillab o‘zini urardi.

Bir paytlar Belomontdagi amerikalik ayol bilan orala-rida bo‘lib o‘tgan voqeada ancha ko‘zi pishib, tajriba ort-tirishgan, endi-endi velosiped o‘g‘irlashni qoyilmaqom o‘zlashtirib bo‘lishgandan keyin ayollar sumkasini yulib qochishga o‘tishgandi. Zotan, bu ularning ko‘chasida an-cha qaltis bo‘lib, velosiped o‘g‘irlashga nisbatan obro‘li-roq ish sanalardi. Aynan don Santiago ularga ishongani uchun, kelgusida kelishi muqarrar noqonuniy daromad hisobidan ularga qonuniy mototsikl olib bergan edi. Vik-

torino ayol ortidan uning sumkasini mo'ljallab, asta ke-laverdi. Krisanto Guanches bo'lsa orqasida o'tirardi. Ular o'ljalariga qatnov kamroq yerda yetib olmoqchi edi-lar, keyin esa bir sapchib, aniqrog'i, sherdek bir sakrab, ayolni sumkadan mahrum qilishardi. Krisanto Guanches qo'lidagi o'lja bilan mototsiklga yetib olish uchun o'n-o'n besh qadam yugurib bordi-da, bir sakrab chiqib oldi va Viktorino gazni bosdi, ayolning qichqirib, baqirganlari achchiq dud va mototsiklning gurullashi ichra qolib ketdi. O'sha paytda taxtadek qotib qolgan guvohlarning kulgili ahvolini bir ko'rsangiz edi...

Amerikalik ayol Belomont bankidan kekkaygancha chiqib kelardi, ma'lumki, yolg'iz ayollar qo'llariga kat-ta pul o'tkazilgan chek tushib qolsa, ana shunday yuri-shadi. Bu baland bo'yli, mallasoch ayol Nyu-York o't o'chiruvchilari boshliqlari orasida yoki Yangi Orlean karnaval marosimlarida televizorda bir qur ko'rinib qo-ladigan janjalkash ayollarga o'xshardi. Uning ortidan ku-zatib borayotganida Viktorinoning ko'zi quvnardi, ame-rikalik ayolning go'zalligi Nobel mukofoti bilan Faxriy legion ordeniga munosib edi. Kutilmaganda Krisanto Guanchesning hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchradi: u sumkani mahkam ushlab olgani bilan yulqib ololmadi. Amerikalik ayol tennis o'ynaganmi yoki qaysidir erkak-lar shug'ullanadigan sport bo'yicha chempionlikni qo'lga kiritganmi nima balo...

Krisanto Guanches sumkani qo'yib yuborishga maj-bur bo'ldi va bu sportchi xonimni shunaqayam urdi-ki, bechoraning qo'lidagi sumka otilib ketib Krisanto Guanchesning oyog'i ostiga kelib tushdi, uning bamisli Pi-kadilli maydonida yurgandek sof ingliz tilida: „Politsiya! Politsiya!“ deb qichqirishdan o'zga iloji qolmadi.

O'g'irlash sahnasi qanchalar yaxshi chiqqan bo'lsa, uning yechimi undan ham o'tib tushdi: Palo Grande temiryo'li burilishiga borgach, bir dasta puldan kelayotgan yoqimli hidni his qilish, beli bukilmagan, har biri besh yuz bolivarlik pulni sharoqlatib sanashga nima yetsin! Ular ingliz kashmiridan tikilgan bejirim kastum sotib olishdi, restoranma-restoran yurib qancha-qancha ofitser va advokatlar bilan birga ulfatchilik qilishdi, Viktorino ana o'shanda „Jannat“da ilk bor Blankitani uchratgan edi, uchratmasa bo'larkan. Krisanto Guanches esa mallasoch bir qizni sevib qoldi va ana shu ehtirosli muhabbati evaziga tantanali ravishda so'zak bilan taqdirlandi.

Lekin hozir o'sha Krisanto Guanchesning chirib-sasigan taxta va qotgan go'ng uzra baqrayib shiftga qarab yotgancha hech narsani eslagisi kelmasdi. Qonli egri chiziq uning do'ridaygan lablaridan boshlanib, ensasiga qadar cho'zilgan, yalang'och ko'ksini esa pichoq qiyalamasiga kesib o'tgan edi. Zovurning tik yonbag'ridagi tashlandiq bu yarim vayrona kulba egasiz bo'lib, zaharsiz ilonlardan qo'rqqan oshiq-ma'shuqlarning ham tunab ketishga yuragi betlamasdi; bu kulbaga faqat mayda yirtqichlar izg'ib kirar hamda bezorilar pinhona uchrashib, jinoiy ishlarini maslahatlashib olgani kelishardi.

Ikkovi uchun sharmandali tong omadli boshlangandi: haqiqiy bandit sifatida birinchi marta qurollangan holda o'g'irlikka tushib tantana qilish ularga nasib etdi. Xonimlarning sumkasini olib qochish bo'yicha ularga teng keladigani yo'q, shuning uchun azonlab oldilariga Kayfas kelgani bejiz emas. Ular Kinto Krespodagi do'konchalar atrofida bekorchilikdan sanqib yurganlarida Kayfas ularni topib oldi va dona-dona qilib maqsadini tushuntirdi:

Ikki nafar pixi qayrilgan sherik kerak, zo‘r ish bor, ro-zimisiz?

Ular rozi bo‘lishdi, biroq birinchi marta qurolli bos- qinga borayotganlari uchun tayyorgarlik ko‘rishayotgan- da shunday hayajonlanishgan ediki, ularga hayotlarida ilk bor ashaddiy bosqinchilar bilan birga borishayotgani qattiq ta’sir qilgandi. Viktorinoning xotirasida o’sha kun Gollivudning jonga tekkan jangari filmlaridagi mojarolar singari elas-elas saqlanib qolgandi: umumiy manzara Santa Monika ko‘chasiga buriluvchi muyulish; o‘rta plan oziq-ovqat do‘koni, shopmo‘ylov kimsa oyoq uchida tu- rib sim darpardani tushirmoqchi bo‘lyapti; yana yirik plan kadrda Kayfas paydo bo‘ladi, u do‘kondorning qornini to‘pponchasi bilan nishonga oladi; o‘rta plan Krisanto Guanches bilan Viktorino bir zumda kassani qoqlashadi; sekinlashtirilgan kadr uchta bosqinchi do‘kondorning po‘stagini qoqishyapti, Kayfas to‘pponcha dastasi bilan bir nimalar demoqchi bo‘layotgan do‘kondorning boshi- ga uradi. Keyingi ko‘rinish, kadrda muyulishga yaqin yerga kelib to‘xtagan mashina. Keskin vaziyatni ifoda etuvchi musiqa yangraydi. Yirik planda mashinani ku- balik haydab keladi. Kamera mashina ichiga ko‘chadi. Mashina yonboshidagi oynadan ko‘cha aks etib turadi; kamera yana magazin ichiga qaytib boradi; o‘rta plan qu- tilar va shishalar rastasi ortida uchta bosqinchi dasta-das- ta pulga duch kelishadi; umumiy plan o’sha gazandalar apil-tapil pulni olib ko‘chaga yugurib chiqishadi, do‘kon- dor yerda chalqancha yotibdi, uning aft-basharasidan tinmay qon oqyapti, tashqaridan olinadigan yirik planda kubalik shamol to‘sadigan oyna ortida o‘tiribdi. U siga- ret yoqadi-da, kalitni burab, mashinani o‘t oldiradi, un- dan keyin uzoq paytgacha motorning shovqini eshitilib

turadi; o'rta plan uchta bandit mashinaga qarab yugurib boryapti; umumiy plan – ular eshikni ochib, mashinaga o'tirishyapti; kadrlar lipillab tez o'tadi – mashina o'qdek uchib ketyapti, muyulishdan chapga burilyapti; kadrning o'tishi sekinlashadi, shu epizodning boshidagi yirik planda tasvirlangan ko'chaning ko'rinishi; o'sha-o'sha manzara, faqat tantanali musiqa. U yog'iga ekranni butunlay qon qoplaydi, do'kondorning ham aft-basharasini qamraydi, shikastlangan o'mrov suyagi qaqshaydi, kuygan terisi kaltak zarbidan achishib og'riydi, Krisanto Guanchesga esa farqi yo'qdek loqayd, mutlaqo hech narsani eslagisi kelmaydi.

Dahshatlisi ana o'shanda, odamning shaxsiyatini oyoqosti qilish zovurning tik yonbag'rida joylashgan kulba ostonasidan o'tishgandan keyin boshlanadi. Bu uyaga ular mashinalarini allaqaysi kimsasiz xiyobonga tashlab kelishgandan keyin, Kayfas bilan kubalikning ortidan ergashib kirishdi. Ular bu yerga o'ljani taqsimlash va o'z haqlarini olishga kelishgandi. Kutilmaganda, zulmat qo'ynidan Krisanto Guanches ilgari bir marta ham ko'rmagan, nomini Viktorino bir marta bo'lsin eshitmagan kishilar chiqib, ularga qo'shib olishdi. Ular bu ishda ishtirok etishmagan bo'lsalar ham uch shisha rom, bir xaltacha soda hapdorisi ko'tarib olishgandi. Ular fonus shu'lasida shosha-pisha pushti rangdagi konfetlarini chaynamay sochib yuborishdi, qo'lidagi narsalarini stolga qo'yishdi.

Viktorino bilan Krisanto Guanches og'zidan ona suti ketmagan bolalar deb o'ylamasliklari uchun ozgina rom ichishdi, lekin pixi qayrilgan sheriklari oldida yiqilib sharmanda bo'lmaylik deya sodali hapdorilardan voz kechishdi. So'ngra xonaning bir chekkasiga joylashib olib,

o'ljani insof bilan taqsimlashsa kerak, degan umidda kutib o'tirishdi.

– Soat nechchi bo'ldiykan, Viktorino? U chamalab turib bir yarim bo'lsa kerak, dedi. Kulbaning narigi boshida Kayfas, kubalik va anavi begonalar to'g'ridan to'g'ri shishaning og'zidan qulqullatib ichishar, beparda latifalar aytib, vaqtichog'lik qilishar, lekin nima uchundir oxirgi qismidan boshlashardi, keyin nima qilishni bilmay telbalarcha xaxolab kulishar, kekirishar, havoni sasitib har xil tovushlar chiqarishar edi. Nogoh jim bo'lib qolishdi. Xavotirli bu sukunatni buzib, yo'lda qo'shilgan notanish yigitlardan biri – Quturgan Ko'ppak deb atalgani baralla e'lon qildi:

– Kelinglar, bu so'taklarni bir boplaymiz!

Viktorino bilan Krisanto Guanches avvaliga bu gaplarni mast odamlarning ahmoqona haziliga yo'yishdi, qanaqadir bir lahzagina, hatto bu gap o'zlari haqida emas, deb xayol qilishdi, har qalay, ularning mishiqli, so'taklardan farqi bor, axir, buning ustiga ozodliklari tugul hayotlarini ham xavf ostida qoldirib, chinakam erkakliklarini ko'rsatishdi va endi mardlarcha o'ljaning taqsimlanishini indamay kutib o'tirishibdi. Biroq, Quturgan Ko'ppakning taklifini rad qilish tugul, boshqalarining g'o'ldirab ma'qullaganlari eshitildi. Quturgan Ko'ppakning iblisdan farqi yo'q, buning ustiga ichgan romi miyasiga urgan, shuning uchun ham gaplarining ohangidan dahshatli bir nimani ilg'ash mumkin edi. Kayfas nima qilayotganini o'zi ham anglamay, ularning tepasiga kela boshladi:

– Qani, yechlaring kiyimlaringni, bir maishat qilamiz hozir!

Viktorino bilan Krisanto Guanches o'zlariga tahdid solayotgan xavfni sezib, mushukdek bir sakrashda eshik

yoniga borib olishdi, biroq qo'lida fonus ko'targan Jundor Buqa degan devdek bahaybat bosqinchi ularning ro'parasidan chiqdi; u eshikni gavdasi bilan to'sib oldi va ularni orqaga chekinishga majbur qilib, itarib-itarib tashladi. Viktorino endi orqa cho'ntagiga qo'l solgan edi, Kayfas uning qo'lidan mahkam ushlab oldi. Kubalik bilan Quturgan Ko'ppak Krisanto Guanchesni bir chekkaga sudrab borishdi. U qutulib chiqish uchun behuda urinar, la'nat toshlarini otishidan foyda yo'q edi...

– Qo'yvoringlar, ablahlar! Viktorino bir o'zi Kayfas bilan Jundor Buqaning qarshisida indamay turardi.

– Oldin meni o'ldirishlaringga to'g'ri keladi! – Rom ichib miyasini yo'qotgan gazandalar Viktorinoning gaplari ayni haqiqat ekanligini tushunib yetolmadilar; uni yechintirishdi, qorong'i burchakka olib borishdi, tipirchilab, tishlashga yoki ularning qo'llaridan yulqinib chiqib ketishga urinar ekan, ular ayamasdan Viktorinoning qovurg'alariga, kuragining ostiga, gardaniga, ishqilib, duch kelgan yerga mushtlashar, tepishar edi. Kayfas manqalanib dedi:

– Ha qorayaloq, tipirchilayverma, baribir qutula olmayсан!

Jundor Buqa uning chap qo'lini bukib, orqasiga qayirdi-da, yuqoriga siltab tortgan edi, og'riq chidab bo'lmas darajada kuchaydi.

– Voy, qo'lim sinadi, itdan tarqaganlar!

– Aytyapman-ku, ko'p tipirchilayverma deb, – dedi Kayfas. Bu ahvol bir necha daqiqa davom etdi, kim biladi qanchaligini? Mast-alast barzangilar urib uning burnini sindirishdi, badanini momataloq qilib tashlashdi. Kayfas yonib turgan sigaretni uning badaniga bosdi, o'tkir tirnoqlari bilan dumbasini timdalab tashladi. Viktorinoning o'pkasi to'ldi, hozir o'ldirishadi, deb o'yladi, tomog'iga

muzdek bir nima tiqilib, nafas ololmay qoldi, balki, qazosi shularning qo'lidadir.

– Qani, bu yoqqa olib kelinglar! Birdan qo'shni xonadan kubalikning dag'dag'asi eshitildi.

U deyarli hushini yo'qotayozganda tinch qo'yishdi. Butun badani qaqshab og'riganidan dod solar, tuproqqa qorishib yotar, shishib ketgan lablari arang pichirlar, ularni og'izga olib bo'lmaydigan so'zlar bilan so'kar, sha'ni-ga iflos gaplar aytardi:

– O'ldirsalaring o'ldira qollaring, marazlar!.. Keyin o'zini bilmay qoldi; vaqti-vaqti bilan olis-olisdan Kayfasning surbetlarcha kulganlari xuddi tushida bo'lib o'tayotgandek eshitalardi; yelkasida turgan og'riq butunlay hushdan ketishga yo'l qo'ymasdi. Tashlandiq kulba yana sirli halokat og'ushida qoldi.

Bu gazandalar musaffo tong so'limligini badnom etmoqchidek kekirgancha o'lja olingan narsalarning hammasini olib ketishdi; ular bo'shagan shisha idishlar orasida yorqin nur sochib turgan fonusni unutib qoldirishdi. Fonusning zaif nuri Viktorinoga qayerda yotganini eslatar, Krisanto Guanches esa abjag'i chiqib, hamma yog'i singan, chiqqan, qonga bulg'angan ko'yi loyqa ko'lmakda yotardi. Krisanto Guanchesning shakkokligi go'yo arshi a'loga yetib borgan-u, Xudo qahriga giriftor bo'lgandek bu vahshiyona qiynoqlar, mislsiz og'riqlarga chidayolmay hushdan ketib yotardi, u bir o'limdan qolgandi.

Dabdalasi chiqqan va bir umr isnodga qolgan Krisanto Guanches hech narsani eslamaslikka urinar, Viktorining ovutishga urinishlariga mutlaqo ahamiyat bermas edi. Uni ezib, xo'rlab tashlashdi, o'lishiga bir bahya qoldi. Mana endi, loqayd va jonsiz ko'zlarini bir nuqtadan uzmay yotibdi.

Yaxshiyamki, onasi (u hamon sotishga non yopardi) yashayotgan ko'pxonali uy „Lukaniya“ mehmonxonasi-dan unchalik uzoq emas. Viktorino o'sha yerga yetib borish uchun o'zida kuch-quvvat topa oladi, oqsoqlanib, dalli dunyosini la'natlab, surobi to'g'ri bo'lgan it kabi devorlar va to'siqlarga suyangancha borardi.

Uning qora ishtoni Blankitaning qoniga belangan, ko'ylagiga ham tekkan, qora rangda qizg'ish dog' bo'lib yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Uyigacha taxminan ikki yuz qadam. Viktorino o'zini tanish-bilishlari bu ahvolda ko'rmasligi uchun qaysi yo'l bilan borishni yaxshi biladi. Muyulishdan o'tib (deyarli yigirma qadamda bittayam eshik uchramaydi), mashinalar yoki allaqanday materiallar omborxonasini o'rab turgan taxta devor yoqalab yo'lga tushadi. Keyin hali tungi mudroqlik tark etmagan savdo chorrahasini ortda qoldirib, ko'chani kesib o'tadi; boshini go'yo pana qilib, xiyol engashgancha, tanishlari istiqomat qiladigan uylarning derazalari ostidan yurib boradi, nihoyat, ko'pxonali uyga kirib ko'zdan g'oyib bo'ladi. Birinchi xonadagi baqaloq hali uyqudan turmagan edi, hech kim unga to'qnash kelmaydi, uni birov ko'rmaydi. U yelkasi bilan qalin pardani surib, xuddi endi maktabdan kelgandek, onasining xonasiga kiradi. Onasi hech narsa yuz bermagandek, go'yo uch yil bir-birlarini ko'rmay yashagandek, shoshmasdan ovqat qilayotgandi. Yog' tutayotgan tovadani boshini ko'tarib, xona o'rtasida turgan o'g'liga ko'zi tushadi. Lom-mim demay uning yoniga kelib manglayidan o'padi. Viktorino yosh bola singari shikoyatomuz ohangda onasiga murojaat qiladi (faqat u bilan shunday gaplashardi): – Kiyimlarimni almashtirib olsam devdim. Onasi uni qiynab savolga tutmaydi, faqatgina yarador bo'lmaganmikan, deya jiqqa qon dog'larini

paypaslab ko'radi, bu o'g'lining qoni emasligini bilgach, xotirjam bo'ladi. Ana shundan keyin qo'llarini chayadida, karavotining yonidagi qora sandiqni ochib, undan ko'ylak-ishton olib, o'g'lining oyoqlari tagiga tashlaydi. Viktorino to onasi durustroq bir nima topguncha qora ko'ylagi bilan shimini yechib tashlaydi. Onasi unga xiyol kengroq moshrang ishton, keyin, odatda, ruhoniylar kiyadigan qip-qizil ko'ylak uzatadi. Bu ham unga kattaroq. Viktorino bu kiyimlarning kimga tegishli ekanini bilmaydi, bilishni ham istamaydi. Onasi ko'zyoshlarini artmasdan piq-piq yig'laydi; Viktorino o'zini sezmaganga soladi, Onasi karniz tepasidan yig'gan-terganini asraydigan „Kvakker“ pechenesidan bo'shagan tunuka qutichani oladi va o'n besh bolivarning hammasini Viktorinoga beradi. Ikkovi ham uning bu qadrdon go'shada uzoq qolishi mumkin emasligini tushunishadi. Hammadan burun politsiyachilar bu yerga kelishi tayin, italiyalikni o'ldirgandan so'ng (uni o'ldirmaslik mumkin emasdi) bu yerga uni bir necha marta qidirib kelishgandi ham. U allakinga tegishli bo'lgan keng ko'ylakni kiyib, onasi bergan pulni yangi cho'ntaklaridan biriga solib qo'yadi. Onasi xayrlashish uchun uni qalin parda oldigacha kuzatib qo'yadi: Xudoning o'zi asrasin seni, bolam. Qisqagina davom etgan uchrashuv chog'ida onasining og'zidan faqatgina mana shu so'zlar chiqadi, xolos.

Viktorino bo'sh taksi to'xtatib, haydovchiga hali qamoqdaligida Kamachito bergan manzilni tushuntiradi. Pro Patriya nohiyasida tong otib bo'lgan, quyosh bir parcha maydonchadagi yaxshi o'smay qolgan daraxtni po'rtaxol gullari bilan bezaydi; unniqqan, sarg'ish ko'ylak kiygan rangpargina bir qiz vaqtini chog' qilib allaqaysi uyning eshigi oldida o'zi bilan o'zi gaplashib turadi. Kamachito

yoʻzib bergan manzilda mutlaqo yaroqsiz mayda-chuyda temir buyumlar doʻkoni yoki tikuvchilik ustaxonasi joylashgan: uning deraza koʻzlari oʻrniga faner qoqib tashlangan edi. Mazkur ustaxona peshtaxtasi ortida yoshini aniqlash qiyin boʻlgan gʻalati bir kimsa oʻtirardi. Uning qirgʻiy burni ustida qadimiy va noyob pensne tushib ketay deb liqillab turar, boshi uzra turgan radiopriyomnik orqali qayta-qayta oʻqib eshittirilayotgan soʻnggi axborotni diqqat bilan tinglardi: Jamiyatimizning birinchi raqamli dushmani Viktorino Peres bugun, erta tongda misli koʻrilmagan tarzda La-Planta turmasidan qochishga erishdi... Siz Orente lotereyasi orqali yirik miqdorda pul yutishingiz mumkin... Viktorino ozmi-koʻpmi buni oldindan sezgan edi: radio tushlikkacha eshakka oʻxshab hangraydi; keyin oqshom gazetalari uni balchiqqa qoradi, ertangi tonggi gazetalarda uni sharaflagandek oxirgi betda suratini bosib chiqaradi.

Viktorino bukchayib oʻtirgan doʻkondorning oldiga borib Kamachitoning yonidan kelayotganini aytadi. Boboy tashrif buyuruvchini koʻrgan zahoti taniydi va qoʻrqqanidan boshi gir aylanib ketadi, radio boʻlsa yana dona-dona qilib boshlab qoladi: ...qochoq mahbus qurollangan... „Pepsi-kola“ hayotingiz bezagidir, uning bir piyolasi... Boboyning tishlari takillab bir-biriga uriladi, peshtaxtaga yanayam yopishib oladi, butun kuch-quvvatini yigʻib, goho kolumbiyacha goh qishloqcha talaffuzda orqadagi xonada bir nimalar bilan mashgʻul yordamchisini chaqiradi: „Xudas Tadeo!“ Va bu ism kimga tegishli yoki tegishli boʻlishi kerak boʻlsa oʻshani yana chaqiradi: „Xudas Tadeo!“ Soʻngra u fetr qora shapkasini arang kiyib kimga aytayotganini – Viktorinogami, sakkiz marta chaqirgandan keyin kirib kelgan Xudas Tadeogami, oʻzi ham bilmay

murojaat qiladi: „Men o‘n daqiqada kelaman“. Shunday degach, shoshilinch do‘kondan chiqib ketadi. Viktorino xavotirlanmaydi, xo‘jayin uni sotmaydi, ishlariga e‘tibor qaratmaslik uchun bunday qilmaydi: o‘sha Kamachitoni qayerdan taniysiz? Radio uning qamoqdan qochganligi haqida yana do‘konni boshiga ko‘taradi. Bu xabar tushlikka qadar qirq martacha berilar ekan. Xudas Tadeoning aqli zaif: u bir-biridan chiroyli, nafis ovozlari nima haqida vaqirlayotganini eshitmaydi ham, kuymaydi ham, undan ko‘ra peshtaxtaga qo‘ngan xirapashshalarni barmog‘i bilan yanchib o‘tirishni lozim ko‘radi. Viktorino hech kim taklif qilmasa ham, borib ko‘ngliga yoqqan stulga o‘tiradi. Xudas Tadeo unga ko‘z qiri bilan qaraydi va kula-di, xuddi bir sirni biladigandek kuladi. Aksincha, hech vaqoni bilmaydi, uning bu qilig‘i ham esipast kishilarga xos. Hech qanaqa mol ko‘rinmagan bu do‘konga hech kim biron nima sotib olgani kirmaydi. Yo‘lka bo‘ylab jinni-jinni takliflarini tavsiya qilgancha baqiroq lotereya sotuvchi o‘tib ketadi. Yarim soatdan ortiq vaqt o‘tadi, iste’moldan qolgan pensne taqqan boboy qaytib keladi, ketayotganda qanday qiyofada ketgan bo‘lsa, xuddi shunday tashvishmand bir alfozda kirib keladi. Shlapasini yechmay turib asabiylashgancha Viktorinoga so‘z qotadi: „Qani, ketdik!“ va yana ko‘chaga qarab yuradi. Viktorino oqsoqlangancha har qadamida so‘kinib unga ergashadi.

Tinchi buzilgan boboy uni shu mavzedagi allaqanday uyga olib boradi. Ularni bir ayol darhol ichkariga oladi, devorining pastki qismi bilan eshik tepasining andozasiga qarab bu yerda g‘irt suyuqoyoq ayol istiqomat qilishini bilsa bo‘ladi. Kichik zaldagi divanda o‘tirgan kishilarning o‘rnidan turish xayollariga ham kelmaydi, shekilli. Javonlar bari bir xil qahrabo yam-yashil rangda,

ikkita surat bir-biriga zid tasviri bilan mushtarak ma'no kasb etadi: bittasida bokschi habash jangovar vaziyatda turibdi, ikkinchisida Isoning himoyasiz yuragi. Sutli qahva bilan yalpiz isi anqiydi. Viktorino g'ashga tegayotgan yashil oromkursilardan biriga o'tiradi, ikkita erkak undan ko'z uzmaydi. Birining qovog'i tovuqning tuxumidek kattalikda shishgan, ikkinchisining og'zida to'kilganidan kamroq tishi saqlanib qolgan. Viktorino tanishib olish uchun to'piq suyagining og'riyotganidan shikoyat qilib, bahona topadi. Kemshik unga: poyabzaling bilan paypog'ingni yechgin-chi, deydi, uqalab qo'yaman. Fohisha unga sarpoychan oyog'ini qo'yib turish uchun g'amxo'rlik qilib yashik keltirib beradi. Ta'bir joiz bo'lsa va shunday deyish mumkin ekan, uqalash vahshiyona ezishdan iborat bo'lib, Viktorinoning ko'zlaridan yulduz chaqnaydi (Aldebaran, Kassiopeya, Orion belbog'i, Volopasa burjida joylashgan Arktur, holbuki, Viktorino ular haqida biron nima eshitmagan, bilmaydi ham). U ora-sira ingrab, so'kishdan o'zini tiyolmaydi. Kemshik yana og'zining tanobi qochib, uning ro'parasida cho'kkalab olgancha oh-voh qilishiga yo'l qo'ymaydi. Hozirgina ular kirib kelgan uy ostonasida boshiga qora shlapa kiygan boboy haliyam qaqqayib turibdi. Viktorino og'riqqa chidayolmay terga botgancha unga qo'l silkiydi: „Borib Kri-santo Guanchesni topib kel, deydi unga, uni falon paytda, falon yerdan topasan“. Viktorino joyini va soatini aytadi. Cholning yuzi u kelgandan beri birinchi marta yorishadi: xushlamagan mehmonidan qutulish umidi paydo bo'ladi. U xayrlashmay ham chiqib ketadi. Chol ketgandan keyin qolgan to'rt nafar kishi o'zlarini birmuncha qulay sezishadi. Juvon sutli qahva bilan pechene keltiradi, qaynoq qahvaning hidi anqiydi. Kemshik kulishini masxara

qilib milklarini ko'rsatadi, qovog'i tuxumdek shishgan nusxa qochoqqa o'zining qoyil qolganini namoyon etadi. U Viktorinoning og'riyotgan oyog'i tovonini ko'rishi uchun qo'shni xonadan kutilmaganda haddan ziyod yumshoq yostiq olib chiqadi. Kemshik bir emas, ikkita o'ralgan dori keltiradi-da, bittasini yangi og'aynisiga beradi: „Xohlaysanmi?“ Ha, Viktorino xohlaydi.

Viktorinoning italiyalikka tegishli tikuvchilik ustaxonasini „tozalash“ni mo'ljallaganiga asosiy sabablardan biri, birinchidan, u Karakasning ovloq tumanlaridan birida joylashgan bo'lib, bir paytlar u o'sha yerda ba'zi narsalarni (o'qishni emas, bu padarla'nat maktabda biron nima o'rganish mumkinmi), masalan, darslarga kirmay yurganlarida beysbolni o'rgangan edi. Undan tashqari, bu yerdagi har bir ko'cha, har bir ariq va odamlarni besh qo'ldak bilardi; bu yog'idan kirib, narigi yog'idan chiqib ketadigan yo'laklarda ko'p hunarlar ko'rsatgan, hali u paytda Krisanto Guanchesni mutlaqo tanimasdi ham. Yigirma qadamchadan keyin muyulish keladi, uning orqa tarafidagi mashinalar to'xtash maydonidan o'tsang, zovur keladi, bu zovur ne-ne voqealarni ko'rmadi; o'sha yerlarning har qadami unga tanish va yod bo'lib ketgan, bir ko'chadan kirib, boshqasidan chiqib qochar, bu xususda birovga gapirib o'tirmas, bu jinko'chalar, ko'chalarning oxiridagi chakalakzorlar bir paytlar uning dunyosi edi.

Xullas, Viktorino bir kunni mo'ljal qilib o'sha yerni ko'zdan kechirib chiqish uchun bordi. Vitrina tepasidan ingliz kashmirlarini (Marakayadan) ko'zdan kechirar ekan, kuraklarining ostiga kimningdir muzdek barmoqlari tekkandek bo'ldi-yu, ishi chappa ketganini angladi. Viktorino doimo ichki sezgisiga quloq solmay chuv tushganlarini bilardi-yu, biroq ertasigayoq buni esidan chiqarar,

kelgusi safar yana shu ahvolga tushar, u bundan xulosa chiqarib olish haqida ortiqcha qayg'urmas edi. „Oddiygina qo'rqqoqlik qilganim, ikkilanganim bu tuyg'ular suvarak singari chiqib kelgan tirqishlaridan qayta kirib ketadi, xolos,“ xayol qilardi u. Tikuvchilik ustaxonasidagi italiyalik unga shubha va ehtiyotkorona qarab qo'ydi: ustaxonani yopadigan vaqt bo'lsa, buning ustiga Viktorino o'lchatib ketish uchun kelgan mijozga sira o'xshamasdi.

– Nima kerak senga? – deb so'radi u qovog'ini solib. Viktorino endigina „hech nima“ deyish uchun og'iz juftlab va hatto bugunga mo'ljallangan o'g'irlikni ertaga qoldirmoqchi bo'lib turgan edi, biroq uning avzoyi hamda jirkangannamo so'roqqa tutayotgani jahlini chiqarib yubordi, yo'q, u hech qachon so'zidan qaytmaydi. – Iching o'tib ketdimi nima balo, habash? Pirovardida, biron bahona bilan (qo'ng'iroq qilib olsam bo'ladimi, senor?) paysallash o'rniga u qo'qqisdan revolverini olib, italiyalikning bo'yinbog'iga tiradi va buyruq ohangida tahdidli bo'kirdi: „Qimirlama joyingdan! Qo'lingni ko'tar, ovozingni chiqarsang peshonangdan darcha ochib qo'yaman! Soatingni yech!“

Petro Lo Monako, tikuvchining ismi shunaqa edi, ertalabki gazetalarning xabar berishicha, qo'lini ko'targan, lekin bosqinchining qora ko'ylagidan ko'z uzmay turavergan. Viktorino qayerdan biladi (ertangi gazetalardan ham bu haqda bilolmadi u) italiyalikning oddiy tikuvchi va sitsiliyalik dehqon emas, sobiq askar yoki bir zamonlar harbiy jinoyatchi bo'lganini, balki, faqatgina o'z klubi formasida o'ynaydigan futbolchidir; yoki har xil hiyla-nayrang va kurash usullari bilan o'z yaqinlarini mayib qiladigan oddiygina muallimdir. Viktorino revolver tepkisini ko'tarib qo'ydi: „Qaqir-ququrlaring-

ni peshtaxtaga tashla!“ Tikuvchi soatini, nikoh uzugini yecha boshladi, u ashaddiy dushmaniga qarayotgandek Viktorinoga tikilardi. „Hamyonni ol!“ Biroq u itoat etmadi, karate usullaridan birini qo‘llab hujum qilmoqchi bo‘lgandi, bunaqa yaponcha qiliqqa bo‘lgan ishtiyoqini sovitib qo‘yish uchun Viktorinoning tikuvchi oyog‘iga o‘q uzishdan boshqa iloji qolmadi.

To‘g‘risini aytganda, har qanday bosqinchilik, o‘q uzildimi, tamom, barbod bo‘ldi degani, shuning uchun bu ishni ham chippakka chiqdi desa bo‘lardi. Mabodo o‘xshamadimi, Viktorino juftakni rostlashi kerak edi. Petro Lo Monako cho‘loqlanib bo‘lsa ham, azbaroyi uning yo‘lini to‘sis uchun ostonaga borib oldi. „O‘lging kelyaptimi, esipast, qoch yo‘limdan, isqirt!“ Italiyalik uning gaplarini tushunmasdi ham, eshitishni ham xohlamasdi, ulkan qaychini o‘qtalib eshik oldidan ketmay turaverdi: bo‘yi bir metr-u to‘qson, Mussolinoga o‘xshagan buqaday baquvvat. Viktorino peshtaxtadagi o‘ziga atalgan tillalarni yig‘ishtirib erkakchasiga taklif qildi: „Mana sening mayda-chuyda narsalaring!“ Qaychi o‘qtalib turgan tikuvchi pinagini buzmasdi. Viktorino sira tushunolmasdi, bu tentak urushda qanaqa qilib tirik qolgan ekan-a! Mening qo‘limda o‘lish taqdir etilgan bo‘lsa kerak-da, na iloj... faylasufona xulosa chiqardi Viktorino o‘zicha va uning ko‘ksini nishonga oldi-da, ketma-ket uch marta o‘q uzdi, tikuvchi alla bo‘lib yiqildi. Juftakni rostlashdan oldin, tarix oldidagi xatolarini to‘g‘rilash maqsadida, Viktorino tikuvchining orqa cho‘ntagida yotgan hamyonini olishga urindi, biroq Petro Lo Monako jon berayotgan chog‘da o‘zining endi bolivarga aylana-digan liralarini changallab olgan edi; o‘zi tark etayotgan bu yolg‘onchi dunyoning ne‘matlariga jon-jahdi bilan

yopishib, qo'yib yubormaslik, aslida, uning qon-qoniga singib ketgan edi.

Voqea Viktorinoning ashaddiy tomoshabinlar orasidan eson-omon o'tishi bilan yakunlandi, jaranglagan o'q tovushining shirasini ilg'agan ikki mingga yaqin pashsha uchib keldi. „Yo'ldan qochlaring yoki hammangni yer tishlataman!“ deya bamisoli o'kirardi Viktorino. Olo-mon Qora dengiz to'lqinlari kabi ikki tarafga ajraldi, bir daqiqa o'tar-o'tmas bu tomoshabinlar izdihomi o'zining donoligidan pushaymon bo'lib, to'dalashgancha uni qu-vib ketishdi. Unga yetib olishning o'zi bo'ladimi? Vik-torino qurt-qumursqadek lip etib zovurga kirib ketdi-da, ko'zdan yo'qoldi... Meni bir kun keyin, shanbada, seni quchib yotganimda ushlab olishdi, Blankita.

Italiyalikning o'ldirilish voqealari (uni o'ldirmaslik mumkin emasligini endi tushungandirsiz) ko'z o'ngidan o'tgach, Viktorino qattiq toliqdi, bu xayoliy manzaralar o'sha yuz bergan paytdagi his-tuyg'ularni qayta junbish-ga keltirar ediki, buni qiyoslashga mantiqiy tashbeh to-polmasdi. Uning o'tmishi bilan bugungi kuni, yolg'onchi va tajovuzkor tengdoshlari, baxtsiz bolaligi xuddi orqaga tez aylantirilayotgan film lentasidek lipillab o'tar, kunlar soniyaning yuzdan bir qismiga teng bo'lib, oylar-yillar esa bir-ikki millimetrluk kinolentadagi tasvirlardek tasvir-lanardi. Viktorino bu quyundek to'zgan xotiralari orasidan yaxlit bir manzarani yig'ishtirib ololmas, butun hayoti – o'tmishi bilan hozirgi kuni ayqash-uyqash bo'lib ketgan-di. Uning berahm muhitda o'tgan o'smirlik davridagi bi-ronta hodisa, o'zgarish, yangilik negadir nisbatan tinchroq kechgan bolaligida ro'y berar, hayhotday do'konga bostirib kirganlari negadir ko'pxonali uylaridagi to'p o'yin bilan tugardi; kafanlangan Blankitaning jasadini dafn etishga

chumolilar olib ketayotgan bo'lar, La-Florida fermasiga bostirib borganlari, Takarigua orolidan qochib kelayotgan Krisanto Guanchesni ko'prik yonida ko'rib qolishi bilan yakunlanardi. Krisanto Guanches esiga tushgan zahoti voqealar shiddati susayar, hatto to'xtab qolardi va o'sha mash'um juma italiyalik tikuvchi Petro Lo Monako halok bo'lgan kun ko'z oldidan ketmasdi...

Bir kun avval kechqurun odam tirband tamaddixonaga bostirib kirishgandi. Yomon bo'lmagandi o'shanda: naqdi uch ming ikki yuz, o'n bir juft qo'lga tiqadigan, o'n to'rtta „mayda nozik“ hujjatlari bilan, yana o'sha yerda bo'la turib otishga ulgurmagan ayg'oqchiga tegishli bitta „pushka“ni o'lja olishgandi. Viktorino bilan Krisanto Guanches peshonaga peshonani tirab Krisantonning xonasida topgan-tutganlarini qoq o'rtasidan taqsimlab o'tirishardi: qaqir-ququr, pul, buyumlar, arra, to'pponcha esa umumiy va ajratib bo'lmaydigan ish quroli sifatida o'rtada, Viktorino, odam bir-birini bunaqa to'g'ri va yaxshi tushunadigan fursatdan foydalangisi kelib, anchadan buyon unaqasiga ham, bunaqasiga ham o'ylab, miyasida pishirib kelayotgan rejasini aytishga qaror qilgandi. Bu reja uch yil ichida biron marta bo'lsin eslashmagan anavi jirkanch voqea bilan bog'liq edi.

– O'ch oladigan payt keldi, – dedi Viktorino. Uning fikrini bayon etish usulida telepostanovkalarning zararli ta'siri sezilardi. Men ularning orqalaridan itdek yurdim, qadam-baqadam, bu parazitlarning hamma teshiklarini belgilab qo'ydim, yanglishmay topib bora olaman, biroq kubalikni Markaziy qabristonga bostirib borishganda ilma-teshik qilib tashlashdi, Jundor Buqa bir yil bo'ldi Kolumbiyaga quyonni urgan, hali qaytib keladi maraz, ko'rasan...

Krisanto Guanches go‘yo toshdan yasalgan haykal, uning gaplarini bo‘lmaydi.

– Kayfas bilan Quturgan Ko‘ppak esa La-Leoneda tuxum bosib yotishibdi, bo‘ynilariga ikki yildan osib qo‘yishgan. Bu juda oson, og‘ayni. Bitta-yarimta xunasaga qo‘limizga „bilakuzuk“ taqishi uchun imkoniyat yaratib beramiz, u o‘zicha xursand bo‘ladi. Ushlashgandan keyin bizni aynan o‘sha o‘laksalar oldiga olib borib qo‘yishadi; ayni muddao, to‘g‘rimi gapim?

Krisanto Guanches qilt etsa o‘lay agar, go‘yo bronza-dan ishlangan haykal, uning gaplarini bo‘lmaydi.

– Endi biz ona suti og‘zidan ketmagan o‘n besh yashar bolalar emasmiz, qurolsiz ham emasmiz. Kayfasni o‘zim tinchitaman. Sen esa Quturgan Ko‘ppakdan alamingni olib, keyin gumdon qilasan. Ipidan ignasigacha o‘ylab qo‘yganman. La-Leonega borgan zahoti ertalabga qoldirmaymiz. Bitta pichoq – hech qayoqqa ketolmaydi. Nima deding, og‘ayni?

Krisanto Guanches taburetkadan turdi, qaddini rostladi-da, xuddi nafrat timsolidek shunday g‘azab bilan bo‘kirdiki, Viktorino uni hech mahal bunaqa ahvolda ko‘rmagan edi.

– Men hech kimga o‘sha kechasi bo‘lib o‘tgan voqeani eslashga yo‘l qo‘ymayman, bilding, yo‘l qo‘ymayman, o‘sha kechasi hech narsa bo‘lmadi, tushundingmi? Hech narsa bo‘lmadi, ming la‘nat senga!

Shundan so‘ng yana haykalga aylandi-qoldi. Viktorino bir og‘iz so‘z ortiqcha ekanini tushundi, nafsilamrini aytganda, uning ko‘nglini ko‘tarishga urinishning o‘ziyoq yomon oqibatlariga olib borishi mumkin, u churq etmadi. Krisanto Guanches unga shunday ola qaradiki, Viktorino do‘st tutinganidan beri birinchi marta uni bunaqa ahvol-

da ko'rish edi. Krisanto Guanches yuragining tub-tubida Viktorinoga nisbatan uyg'ongan cheksiz-chegarasiz nafratdan titrardi, to o'zini bosib olmagunga qadar, bu ayovsiz tuyg'u jon-u jahonini o'rtadi, ikki soatcha shu ahvolda o'tirdi, keyin bo'g'in-bo'g'inlarigacha bo'shashib, devorga bemajol suyandi.

Umidbaxsh yakshanba harom bo'ldi. Viktorino go'yo arshi a'loda yurgandi-yu, ko'zlab qo'ygan niyatlari bir zumda chippakka chiqqandi. Shunga qaramay bitta-yarimta jo'jaxo'roz bilan urishgisi kelib qo'li qichiy boshladi, buning ustiga qorni ochganidan ichi achishib ketganini sezdi, hozir ikki kishiga mo'ljallangan ovqat uning chap ichagiga yuq bo'lmasdi. Bu ham yetmagandek to'pig'i haliyam og'rirdi. Oshxonadan Gazelkaning gugurt chaqqani, taqsimchalarning umidbaxsh taroq-turug'i eshitildi. Qorni piyozning po'sti bo'lib ketganidan, bu tashvishlar unga xush yoqdi.

Eshikni kimdir taqillatdi. Kemshik Pero sakrab o'rni-dan turib ketadi va borib qiya eshikni ochadi, kelgan odam siz kim bo'lasiz, deb so'radi, shekilli, Gilermo, deb javob bergani eshitaladi, so'ng qurbaqaga o'xshab bir hatlab Viktorinoning oldiga kiradi. Viktorino uni xotirjam qiladi.

— Qo'rqmasdan ochaver, bu mening do'stim, Krisanto Guanches kepti.

Lekin tishlari to'kilgan daxriy Foma bunaqa taxminiy bashoratlarga tupuradi: oyoq uchida sekin eshik yoniga borib, qulf teshigidan qarab ishonch hosil qiladi, ha, kelgan odam chindan ham Krisanto Guanches ekan.

Krisanto Guanches Viktorino bilan yarim soatdan ziyod bir nimalarni shivirlashadi. Kechki payt soat yettida kelaman, deydi ketayotib, va'dasiga binoan rappa-raso

yettida keladi. Bu safar, boya o‘zini Gilermo, deb tanishtirgan Kemshik yugurib boradi-da, qo‘rqmasdan eshikni ochadi. Oyoq og‘rig‘im to‘xtamadi, shekilli, deb o‘ylaydi Viktorino. U aspirin ichib, Gazelkaning simkaravotiga cho‘zilgancha yigirma daqiqagina mizg‘ib oldi. Kemshik, unga o‘rnidan turib, eshik oldigacha borishiga ko‘maklashadi. Viktorino Krisanto Guanchesning bilagiga tayanib ko‘chaga chiqadi. Gazelka uning ortidan ma‘yusgina jilmayib xayrlashib qoladi, – bu mezbonlik saxovatining eng so‘nggi dalolati edi. Shundoqqina yo‘lak chetida La-Rinkonadan olib ketilgan yashil „oldsmobil“ silkinib turardi. Uning sobiq egasi, aftidan, poyga ishqibozi bo‘lsa kerak, mashina o‘rindig‘ida otchoparda bo‘lib o‘tadigan poyga dasturlari-yu g‘olib otlarning suratlari palpis sochilib yotardi. Viktorino bir-qarashdayoq rulda o‘tirgan yigitni tanidi. Krisanto Guanches bir safar uni maqtab osmonga olib chiqqani haliyam esida. Uning familiyasi yo inglizcha, yo trinidadcha, qanaqadir Robinson yoki Medison edi Viktorino hozir eslolmaydi. Haydovchining yonida savlat to‘kib o‘tirgan Karenino Viktorino bilan soykaga o‘xshatib hushtak chalgancha salomlashadi. Viktorino o‘zini orqa o‘rindiqqa tashlaydi, tizzasi qorong‘ida butunlay ko‘rinmayotgan odamning tizzasiga urilib ketadi. Uni ovozidan taniydi. Bu Popik, unga har safar bosqinchilikka borishdan oldin astoydil cho‘qinib olishi va „ovi baroridan kelishi“ni Xudodan so‘rashni kanda qilmagani uchun shunday nom qo‘yib olishgandi. Bir marta „Jannat“da ularning orasi buzilib, ish pichoqbozlikka borib yetgandi. O‘shanda ixtilof to‘shakda kim chidamliroq, degan betayin bahsdan chiqqandi. Popik menga yetadigani hali onasidan tug‘ilmagan, deb karillagandi. „Surunkasi-ga yetti marta!“ deya bo‘kirgandi u. Yaxshisi, o‘sha kungi

o'tirishni eslamaslik lozim, ikkoviyam g'irt mast edi. Ular pichoqqa yopishganda Krisanto Guanches oralariga tushib ajratib qo'ydi. Bir oygacha gaplashmay yurishdi, Krisanto Guanches yarashtirib qo'ydi, oqibat mana hozir, Popik uning yonida o'tiribdi. Popik o'rtoqchilik qilib Viktorinoga qurolini uzatadi. Bu politsiya aslahaxonasiga tegishli quvuri uzun nagan edi. Viktorino uning temir lo'kidonini paypaslab ko'rdi. Krisanto Guanches tizzalari orasida avtomatni qisib o'tirardi. Seni-chi, Karenino, nimang bor? Kareninoning cho'ntagida eng oxirgi rusumdagi Belgiya to'pponchasi bor. Senda-chi, Popik? 38-kalibrli yangi kolt. Qayiqqa tushganlarning hammasi eshkaklar bilan ta'minlangan, juda yaxshi, deydi Krisanto Guanches oxirida hazil aralash, „oldsmobil“ ayni paytda Pro Patriya nohiyasidagi kambag'allar istiqomat qiladigan g'arib mavzeni ortda qoldirib, quyoshda qovjirab yotgan tepalik yonbag'ridan o'tib, hash-pash deguncha San-Martin tumaniga kirib boradi va El-Paraisoning soya-salqin ko'chalarida Puente Yerroga ketayotgan mashinalar oqimiga qo'shilib oladi. Qarama-qarshi tomondan kelayotgan mashina chiroqlari va reklamalarning shu'lasi „oldsmobil“ni boshdan oyoq yoritir, biroq xayriyatki, bunaqa avtomobil shubha-gumon tug'dirmas, qolaversa, undagi yo'lovchilarni ham ayblashga bahona topilmas, Xudoga shukurki, kuyovjoralarga o'xshab bashang kiyinib olishgan, hatto ulardan afzalroq ko'rinishardi. Viktorino Krisanto bilan Popikning o'rtasida o'tirardi. Mashina to'g'ri Sharqiy tuman sari yeldek ketib borardi.

Bunaqa lashkarni ko'rib, Blankita, juda yirik ishga ketyapmiz, deya o'ylashdan o'zga ilojing yo'q, lekin sayossa boramiz hozir, deb so'ramadim baribir, Blankita, ko'raylik-chi, bu yog'i nima bo'larkan!

Qirg'iyburun bir kishi zargarlik do'konini yopish taraddudida edi; yonida bamisli ibodatga tayyorgarlik ko'rayotgan ruhoniylar kabi gumashtasi o'ralashib yurardi. Viktorino bilan Krisanto Guanches berkinib turgan yerlaridan otilib chiqdi. To'xtanglar! Viktorino oqsoqlanmayapti, endi umrbod oqsoqlanmasa kerak. U o'ng qo'li bilan zargarlik do'koni egasining hiqildog'idan shartta ushlab, shiddat bilan turli-tuman soatlar namoyish etib qo'yilgan oynali rastalar tomonga itarib yuboradi. Krisanto Guanchesning avtomatini ko'rib esxonasi chiqib ketgan gumashtaning tili kalimaga kelmaydi. Popik fursatni boy bermay kassaga yuguradi. Karenino rasta oynasini to'pponcha dastasi bilan urib-urib sindiradi-da, qo'lini ichkariga tiqadi va birin-sirin Xudo yetkazgan tilla uzuk va marvarid-marjonlarni hovuch-hovuch olib jomadonga sola boshlaydi. Viktorinoning revolversi zargarlik xo'jayinini ortga tisarilib do'kon ichkarisiga qaytib kirishga majbur qiladi. Boshqa pullar qayerda? Krisanto Guanches gumashtani qoldirib, u ham do'kon egasini so'roqqa tutadi. Gapir joningdan umiding bo'lsa! U javob qaytarmaydi. Qani qolgan pullar, to'ng'iz! Viktorino uning boshiga to'pponcha bilan uradi, uning sarg'ish, kal boshidan qon sizib chiqadi. Krisanto Guanches avtomat quvurini uning qovurg'asi ostiga nuqib, ko'zlari shokosasidan chiqqudek bo'lib shunday qaraydiki, unga azbaroyi kapalagi uchgan qirg'iyburun kishi beixtiyor chordoq eshigi tomonga ishora qiladi. Ular qirg'iyburunning ortidan tepaga chiqishadi, Krisanto Guanches avtomati bilan dam-badam uning katak gulli ketiga turtadi. Do'konning yirik daromadi katta qora charm portfelda, qora charm portfel esa yozuv stoli qutisiga solib qulflab qo'yilar ekan, ana shu stolni ochayotganda zargar shunaqayam siqilib ketadiki,

qorniga pichoq tortishyapti, deysan. Krisanto Guanches shuncha pulni yig'ishtirib olish, zargarning qo'l-oyog'ini xuddi pochta idorasida jo'natilayotgan yukni chandib bog'lagandek ikki daqiqada bog'lab tashlash va og'ziga latta tiqib qo'yish uchun avtomatini polga uloqtiradi. Qirg'iyburun Avvakum yozuv stolining oyoqlari ostida yotibdi-yu, ko'zlari bashorat qilayotgan payg'ambarning ko'zlari kabi yonadi, „Xudo o'zining farishtasini yubordi va ular sherlarning og'zini yopdi, ular menga shikast yetkaza olmadilar“. Oradan sanoqli daqiqalar o'tib, ular pastga tushadilar, Krisanto Guanchesning qo'lida avtomat, Viktorino qora charm portfelni yo'rgaklangan chaqaloqdek ko'tarib olgan. Pastda esa gumashta mo'miyolangan fir'avnni xuddi o'ziga o'xshab turibdi. Popik o'z ishining ustasi ekanligining dalolati: to'pig'idan kamida yuz martacha o'rab chiqqan, „esse osho“ qo'llari qorni ustida qovushib turibdi, hatto dahani bilan og'zi zich, qavat-qavat bog'langan. Karenino allaqachon jomadonni bor zeb-u ziynatlar bilan to'ldirgan. Birinchi bo'lib Viktorino chiqadi, ketidan Karenino, uchinchi bo'lib Popik, namoyish oxirida Krisanto Guanches boradi. Yo'lak chetida „oldsmobil“ siltanib turadi. Ular oldinma-ketin mashinaga o'tirgach, Medison uyquli ko'zlarini, so'ng kafti bilan ikkala yuzini go'yo karaxt mudroqlikdan xalos bo'lmoqchidek ishqab, rul chambaragiga yopishadi. Oldinda jimjit va huvullagan ko'cha cho'zilib ketgan, hech zog' ko'rinmas, yolg'iz qarama-qarshi tomondagi qator do'konlar oldida ko'hlik ayol bilan semiz erkak oynalar orqali bir nimalarni tomosha qilib turishardi.

— Yomon bo'lmadi ishimiz, Popik, nima deding? O'ttiz mingga yaqin bo'lsa kerak-a, Viktorino?! Taqsimlab, ulushimni olgach, hammasini jonon-jonon qizlarga ata-

ganim bo'lsin, – deydi Karenino va jomadonning silliq yonlarini silab qo'yadi.

– Men bo'lsam kampirimga uy olib beraman, – deydi ri Yorkorona ohangda Popik ming'irlab.

– Hamma pulimni „Qora yorliq“ viskisi bilan qizlarga tikaman, – deya ta'kidlaydi Karenino. Boshqalar ko'n-gildagi niyatlarini pinhon tutishadi.

– Men vaqtinchalik Kolumbiyaga suraman, Blankita; bu itdan tarqagan politsiyachilar meni ushlab olishsa, Blankita, sho'rim quridi deyaver, ularni yaxshi bilaman, shuning uchun Kolumbiyaga ketmoqchiman; esiz, sen yaralangan holda kasalxonada yotibsan, bo'lmasa seni o'zim bilan olib ketardim. Santa Mariyada birga yashardik, kumbiyaga raqs tushardik, Blankita, eh, rosa zo'r bo'lardi-da.

Viktorino ohista Krisanto Guanchesning beliga, to'g'risini aytganda, Krisanto Guanchesning murdasiga sirg'alib tushayotgan avtomatni ushlab qoldi. O'q uning orqa miyasini o'pirib yuborgan edi. Bunaqasi kamdan kam bo'ladi, bunaqa o'qlar adashgan bandalar gunohlarini yuvishi uchun emas, balki kalima qaytarishga imkon bermaslik uchun xizmat qiladi. Viktorino avtomat qo'ndog'i bilan urib mashinaning orqa oynasini chilchil sindiradi va chetlari qirrali yoriqdan tarillatib ota boshlaydi.

Operatsiyani ipidan ignasigacha o'ylab uyushtirishgan, buning ustiga xamirdan qil sug'urgandek bajarishgan bo'lsa, kim o'ylabdi bunaqa bo'lishini? Beshta tugul ellikta politsiyachi o'rab oladi-yu, a'zoyi badaningni ilma-teshik qilib tashlamoqchidek o'q yog'diradi, deb kimning xayoliga kelibdi deysiz?! Qopqonga tushgan kalamushdan battarroq vaziyatda qolishgani yetmaganday,

tor, buning ustiga boshiberk ko'chaga kirib qolishdi. Bu omonsiz qirg'indan hech kim sog' chiqmaydi, faqat kichkina qora jomadonni ko'ksiga bosib tomma-tom qochgan Karenino omon qolishi mumkin. Lekin bunga ham kafo-lat yo'q, agar tirik qolsa, bu uning baxti!

Zargarlik do'koni ham, Sabana Grandedagi ko'ngilo-char islovotxonalar ham, odam gavjum Venesuela maydoni-yu Ruzvelt shohko'chasidagi qiyqiriq tinmaydigan stadionlar ham ancha orqada qoldi. „Oldsmobil“ Markaziy qabriston devorlari yoqalab shamoldek yelib borar, hozir xayrlashib, ertalab yana uchrashishga va'dalashib tarqaladigan makonlariga yaqinlashib qolishdi. – O'lja-ni Tarpey qoyasida bo'lishamiz, so'ng Qora Klotilda-ning ranchosida bir emas, ikkita shishani bo'shatamiz – maishat maishatday bo'lsin, to'g'rimi, nima deding; sen, Popik, har doimgidek u bilan birga qolarsan-a keyin, dedi Krisanto Guanches. Qora Klotilda tabiatiga xos uchta il-lat: ochko'zlik, huzurparastlik va o'tkir romga ishqibozlik kabi baloyi azimga muhtalo bo'lganidan ham betoqat bo'lib, ham besabrlik bilan ularni kutardi.

Ruhan umidsizlikka tushgan Viktorino qoshlarini chimirib, tishini-tishiga bosgancha tinmay o'q uzar, naq qo'lida avtomat ko'targan Dovudning (Bernini asari) o'zginasi. Qo'lidagi avtomati fransuzlarning „gochkiss“i-ga o'xshagan bo'lib, uchqun sochgancha o'zining vazifa-sini sidqidildan bajarmoqda edi. Viktorino bir qop toshdan og'ir Krisanto Guanchesning murdasini tirsagi bilan turtib yuborishga majbur bo'ldi, chunki uning jasadi og'irligidan tashqari, hamma yog'ini qonga belab, qolaversa, avtomat-dan gir aylantirib otishga xalaqit berardi. Popik o'qtin-o'qtin mashinaning ochiq eshigi orqali to'pponchadan o'q uzardi. Medisonni tilga olmasa ham bo'ladi jang boshla-

nishi bilanoq otilgan o'qlardan biri bo'yniga tekkan, chambarakni quchoqlagancha xirillab yotardi.

Hammasiga, aslida, Medison aybdor, kim o'ylabdi bunaqa bo'ladi deb. Bunaqa ishlarda pixi qayralib ketgan Medison mulohazakorligi bilan poytaxtning jinoyat dunyosida o'ziga yarasha obro' topgan-ku, agar mashina bilan bitadigan ish bo'lsa, qoyilmaqom qilib bajarishiga kafolat beradiganlarning soni mingta. Bugun esa aksiga olib Medisonni tanib bo'lmaydi, u sarosimada, nima qilishni, qayerga qochishni bilmay garang, oqibat, hech kimning xayoliga kelmaydigan vaziyat yuz berdi. Qarang, aksiga olib ular Los Rosalesdan qaytib kelayotgan nazoratchi patrul mashinalarini uchratib qoldi, shahar ko'chalarida boshini qayerga urishni bilmay erinchoqlik bilan aylanib yurgan beozorgina radiopatrullar, basharti Medison birdan xol qo'ymaganida, zarracha ahamiyat bermagan bo'lardi, yo'q, aksincha, u birdan keskin ravishda gazni bosdi, mashina birinchi chorrahadayoq chiyillab chapga burildi va qizil chiroqdan yo'l harakatini buzib o'qdek o'tib ketdi.

Bechora Medison gardanidan o'q yegancha jon achig'ida xirillardi; og'zidan kelayotgan qop-qora qon rul chambaragini qirmizi rangga bo'yagan, tobora hushini yo'qotib borardi. Boshqalarning ruxsati bilan Karenino o'ljani olib qochdi, qo'rg'oshin yomg'irdek yog'ib turgan bo'lsa, qutulish, o'linga chap berishning o'zi bo'ladimi. Krisanto Guanchesning so'nggi so'zlari unga najot bag'ishladi go'yo: „Sen, Karenino, oyog'ingni qo'lingga olgin-da, qoch bu yerdan, jomadon bilan qog'ozlarni ol, hov anavi eshikka ur o'zingni, o'shanaqasi tomga chiqib qoch, keyin ko'rishamiz, qani endi quyon!..“ Xuddi ana shu on daydi o'q uning ensasidan yuqoriroqqa kelib tegdi.

Karenino bir zumda, hozirgina dunyodan ko'z yumgan boshlig'ining buyrug'iga binoan, to'rt marta o'qqa chap berib, o'sha eshikdan ichkariga kirib g'oyib bo'ldi va ayni chog'da tom oshib yuribdi. Uni faqat ilohiy taqdir o'limdan saqlab qolishga qodir, negaki butun mavze dovyurak politsiyachilar bilan qurshab olingan.

Medison yo'l qoidasiga tupurdim, qabilida qizil chiroqda o'tib ketgani tufayli patrul bir yomon narsani sezgandek ularni ta'qib eta boshladi: avvaliga istar-istamas, shuncha-ki tartibni saqlash maqsadida bo'lsa, biroq zum o'tmay Medison gazni yanayam oshirayotganini ko'rib tezlikni u ham oshirdi. — Qayoqqa yuryapsan, to'nka? O'ngga bur rulni, galvars! Biroq Medison Viktorino bilan Krisanto Guanchesning qichqirig'ini eshitmas, maqtashgan Medisondan nom-u nishon qolmagandi. Patrul ham aksiga olib ishga jiddiy kirishib, ularning ortidan soatiga yuz kilometr tezlikda chiyillab, sirenani yoqib qo'ygancha yana ogohlantirib o'q uzdi. — Medisonga nima bo'ldi o'zi?

Mana u, og'ir yarador, balki, jon bergandir ham. U ingrash tugul qimir etmaydi, bechora Medison, hamma-siga o'zi aybdor. Popikning g'azab bilan bo'g'ilgudek ovozi eshitaladi: „O'q tugabdi, hah, itvachchalar...“ Bir zum o'tmay yoki keyingi lahzada kallasiga kelganini qiladi: mashina eshigini ochib tashqariga o'zini otadi. Politsiya mashinasining faralari asfalt ko'chada emaklagancha: „Taslim bo'ldim! Taslimman! O'ldirmang!“ deb qichqirayotgan odamni boshidan oyoq yoritadi. U yig'lashga tushadi. Viktorino mashinada bir o'zi qoladi. Krisanto Guanches o'ldi. Medison ham o'ldi. Viktorino avtomatdan tarillatib otadi, bitta o'zi qolgan, butunlay.

Patrul sirenani chiyillatib, ogohlantiruvchi chiroqni yoqib, radio orqali qo'shimcha yordam so'raydi, vahima

ko'taradi azbaroyi yordam berishsin, deb. „Oldsmobil“ politsiya mashinasidan uchqurroq ekan, ta'qib etayotganlardan qutulib chiqishga va izini yo'qotishga muvaffaq bo'ldi. Medison o'zini tutib oldi, u endi mashinani yana Fanxio singari boshqarar, binobarin, u yana o'sha ko'chako'yda dong'i ketgan Medisonga aylangan edi. Popik politsiyachilar tomon otib, to'pponchaning g'aladonida qolgan ikki o'qdan ham qutuldi, bu bilan ularni esingizni yig'ib oling, deya insofga chaqirardi go'yo. Viktorining ko'nglida ertaga yashash umidi yana uchqunlandi va alanga ola boshladi, ammo-lekin yana birmuncha vaqt Kolumbiyani ziyorat qilib kelmasa bo'lmasligi haqidagi fikr uyg'ondi. Karenino, har qalay, jonon qizlarga pul sarflasang arziydi, deb xayolidan o'tkazdi.

Popik haliyam taslim bo'ldim, deya dod solgancha emaklashdan to'xtamasdi, biroq birov unga ahamiyat beray demasdi. Viktorino o'qlarning chiyillashi va mashinaning temirdan ishlangan yerlariga urilib chirsillashiga ko'nikdi. Negaligini bilmasa-da, u avtomatini qo'ldan qo'ymasdi. Blankita zim-ziyo tunda uxlolmay qiynaladi, Blankita kasalxonaning karavotida uxlolmaydi. Onasi ham mijja qoqmaydi bu tun. Qulog'iga uzoq-uzoqdagi otishma tovushi, jon berolmay qiynalayotganlarning oh-zorlari eshitiladi, ularga chindanam eshitilayotgandek tuyuladi. Viktorino Krisanto Guanchesni ilk bor uchratgan va umrbod do'stlashib qolgan o'sha zovurdagi ko'prik ostidan kelyapti, esingdami, Krisanto, akaginam? Don Ruperto to'tisining ovozi o'qlar chiyillashi, politsiyachilarning so'kingani va larzaga kelgan tun qorong'iligi uzra yangraydi. „Salomat bo'l, o'laksa!“ deya qiyqirgani eshitiladi.

Medisonning shuurini iblisona xayollar, yovuz jodular egalladi, boshqa gap yo'q. Patrul mashinasining fa-

ralari ortlarida xira shu'la sochib yonardi, endi politsiya ta'qib etmay qo'ydi. „Orqada qolishdi, itvachchalar!“ deyishga ulgurdi Medison tovushdan tez uchib kelayotgan mashinani birdan mana shu ko'roydin, oxiri berk, daxmaga o'xshagan mash'um ko'chaning komiga burar ekan. Nafas chiqarishga ulgurishmadi, chiyillagan tormoz qochib yurishlariga barham berdi, ularning mashinasi juda katta tezlikda kelayotgan „oldsmobil“ metin devorga qarsillab urildi. Jinoiy qidiruv bo'limi, politsiya boshqarmasi, shahar politsiyasi, milliy gvardiya, armiya respublikaning barcha qurolli kuchlari bu tengsiz va shafqatsiz jangga tashlangan edi. Krisanto Guanches, Medisonlar jon taslim qilishdi, Popik dod solib ko'zyoshlarini to'kkani bilan birov uning o'tinch-u iltijolariga quloq solmayapti, Viktorino telbalarcha, esini yo'qotgan odamdek patronlari tugagan quruq avtomat tepkisini bosgani-bosgan. Mana shu o'q yomg'iri aro, simyog'ochga o'rnatilgan karnaydan toqat qilib bo'lmaydigan, mungli qo'shiq baralla yangraydi: „Oyga ishqiboz bo'pti, esipast buqa“.

Men senga bir narsani aytmoqchi edim, Blankita...

VIKTORINO PERALTA

1

Mana o'sha – buni inkor qilsin-chi birov, benazir toychoq, Neptun mingan jangovar arava, bugun kim bundan gumonsirashga botinadi? Viktorino hayotining eng baxtli onlari, umridagi eng qutlug' ayyomning mas'ud damlari. Viktorino Ramunchoning uyidan ellik metrcha naridagi tor ko'chada mashinani ohista to'xtatdi va yana bir boshdan boshqaruv taxtachasiga o'rnatilgan ko'rsatkichlarni

ko'zdan kechira boshlaydi. Tugmamixlar, dastaklar, yoqib-o'chirgichlar, ko'rsatkichlarning sezgir millari, yiltiroq temir gardishli dumaloq oynalar silliq jilo berilgan taxtada nafis san'at asari singari yaxlit manzara hosil qilardi. 1) Taxometr. 2) Ampermetr. 3) Spidometr. 4) Podfarniklarni o'chirib yoqadigan tugmacha.

Oila a'zolaridan birontasi otalari, muhandis Arximiro Peralta Eredia dili ketib Viktorino o'n to'rt oydan buyon dam yalinib-yolvorib, dam qat'iy so'rab yurgan mana shu muhtasham „Mazerati“ni olib beradi, deb o'ylamagan edi. Oila a'zolaridan birontasi, Viktorino niyatiga erishish yo'lida o'ta ustomonlik qilgani, yaltoqlanganlari, turli hiyla-nayranglar o'ylab topgani, hattoki bu sohada yangi usullar kashf qilgani va shu bilan birga oilada yagona merosxo'r uning, bir-biridan zahil, kasalmand uchta singlisi bor ekanligini ham ro'kach qilganini bilmas edi. 5) Havoni haydab beruvchi karbyurator qopqog'ini ochadigan tutqich. 6) Yonilg'i miqdorining ko'rsatkichi. 7) Faralarni o'chirib-yoquvchi. 8) Avtomashina kapotini ochib-yopish zulfini.

Arximiro Peralta Eredianing asl niyati nimaligini, qolaversa, nima maqsadda Viktorinoning surbetlarcha sullohligiga yon berib shunday qimmatbaho mashinani olib berganiga hech kimning aqli bovar qilmasdi. Muhandis ko'ngliga olib berish fikri tushdimi, bo'ldi, mashinaning narxi behad qimmatligiga qarab o'tirmadi, otasi Arximiro Peralta Daxomey, Peraltalar avlodidan chiqqan latifundist va Daxomey naslining sarmoyador davomchisi, har bir kvadrat metrini uch yuz dollardan to'lab, shahar qurilishi uchun sotib olishgan yer-mulking, qoramol qo'tonlarining hamda yil sayin narxi oshib borayotgan aksiya qog'ozlarining egasi na Xudosi, na shaytoni bilan

maslahatlashib o'tirmadi. Shoh Midas bizning Viktorinoning buvasi oldida oddiygina tillafurush bo'lib ko'rinardi, xolos. 9) Oyna tozalagich tutqichi. 10) Qo'shaloq spidometr. 11) Radioantenna tugmasi. 12) Haydovchining tizzasi ostida joylashgan shamolparrak dastagi. Viktorinoning otasi injener Arximiro Peralta Erediya hech qachon yana bitta bank pattasiga qo'l qo'yishdan qaytmagan, o'ylab o'tirishni o'ziga or deb bilardi. Uni ko'proq brij o'ynab yuradigan sheriklarining, esingni yeb qo'ydingmi, Arximiro, hali o'n sakkizga chiqmagan yosh bolaga kim „Mazerati“ olib beradi, qayerdan kep qoldi bunaqa bema'ni fikr kallangga... ikki chillik“, degan nasihatlari tiyib turgan bo'lsa kerak... 13) Isitish moslamasi (o'zi jazirama issiq mintaqada yashasak, isitishga balo bormi?). 14) Qo'l tormozi. 15) O'ng tarafida uchiga qizil dumaloq tutqich o'rnatilgan murvat radioeshittirishlar uchun. 16) Soat, tabiiyki, Shveysariyada ishlab chiqarilgan. 17) Quvvati zo'r, nemislar ishlagan radiopriyomnik. 18) Aynan brilliant taqinchoqlar qutisiga o'xshagan qo'lqop soladigan quticha.

Viktorinoning g'alabasida Onajonning hissasi beba'ho edi. Avvallari Onajon bir umr bunaqa ishlarga aralashmas, doim betaraf qolardi, bu safar esa, aksincha, odatdagidek limonli choy ichib o'tirishganda, u daf'atan otasiga yuzlanib: „Arximiro, o'g'lingning tug'ilgan kuniga „Mazerati“ hadya qilsang ayni muddao bo'larmidi“, deb qoldi.

Och kulrang, kumush halli – men o'shanaqasini orzu qilardim, uni haydaganda (o'ng tomonda, pastroqdagi spidometr 220 ni ko'rsatardi) soatiga ikki yuz yigirma kilometrgacha gaz bosish mumkin. Qani, endi men bilan poyga o'ynanglar, yaloqxo'rlar!

Shu bugun ertalabki Onajonning ko‘rinishi ta’rifga til o‘jizlik qiladi. U to‘r jiyakli tungi libosiga burkangancha gul-gul ochilib Viktorinoning xonasiga ohista sollanib kirib keldi va to‘g‘ri tepasiga borib manglayidan mehr bilan o‘pib qo‘ydi-da, tug‘ilgan kuni bilan tabrikladi, baxt tiladi, so‘ng nazari ilmagandek: „Oynadan bir qaragin, o‘g‘lim, otang balog‘at yoshiga yetganing sharafiga nima sovg‘a qilganini ko‘rasan“, dedi. Garchi Viktorino otasi nima tayyorlab qo‘yganini oldinroq eshitgan, shu sababli bilsa ham (trinidadlik haydovchilarining sabri chidamay unga aytib qo‘ygandi), darvozaxonadan beriroqdagi palma ostida manaman deb yaroqlab turgan, yana asosiysi, o‘zi orzu qilganidek och-kulrang kumush halli avtomobilga ko‘zi tushib, quvonganidan bo‘kirib yubordi.

Albatta, qalin do‘sti, sheryurak Ramuncho birinchi bo‘lib o‘tirishga, uning yonida o‘tirib, „Mazerati“da „kataysa“ qilishga ma’naviy haqqi bor. Italiya avtomobil sanoatining faxri, tumshug‘iga uch ayrili qizil nishon bosilgan bunaqa toychoq Kolumbiyada hech kimda yo‘q; yagona unda bor – baxt emasmi bu?! „Mazerati“ni ko‘rib boshi ko‘kka yetib, miyasi g‘ovlab ketgan Ramuncho moviy charm qoplangan o‘rindiqla yalpayib o‘tirib oladi, poyintar-soyintar gaplar, xitoblarni saqichday chaynashga tushadi (Yashasin, qoyil, olamga tatiydigan texnika, Jeyms Bondning orzusi-ku! Brijit Bardoning siynapo‘shidan ham, Supermenning yopinchigidan ham zo‘r, hali ochilmagan fazo kemasi!), keyin esa taxtachaga o‘rnatilgan anjomlarga cherkov xodimiga o‘xshab engashgancha ta’zim bajo keltiradi, ularga burni tekkudek bo‘ladi. „Mazerati“ katta ko‘chada diniy bayram chog‘ida namoyishchilar qanaqa yursa, xuddi shunday viqor bilan o‘zini ko‘z-ko‘z qilayotgandek sekin yuradi, muyulishlarda fir’avn fillari

singari dabdaba-yu as'asa bilan shoshilmasdan buriladi, ko'rib og'zi ochilib qolgan jonon qizlarning yonidan g'olibona o'tib boradi. Viktorinoning kutilmagan qahqahasidan marosimning dabdabali ulug'vorligiga putur yetadi. Ramuncho o'rin-noo'rin quloqni teshib yuborgudek chinqirib kulgancha unga jo'r bo'ladi.

– Bedavoligini ko'rding-a anavi cholning!

Ularni kuldirayotgan jasorat kecha kechqurun Viktorinoning tavallud ayyomi, o'n yetti yoshga to'lgani munosabati bilan o'tkazilib, tongga qadar davom etgan ziyofat chog'ida ro'y bergandi. Viktorinoning odati, qo'rqqoqlik haqida gap ochishsa (kollejda muallima yengilmas Gektorning Axill nayzasiga duchor bo'lgandan ko'ra hurkak ohu singari qochishni lozim topgani haqida gapirib bergani tufayli, o'sha bemaza kitobni o'qishga majbur qilisholmagandi), qachonki qo'rqqoqlik odamning ruhiy tanazzulga tushganidan darak beradi, lekin bu kasallik vaqtinchalik, o'tib ketadi deb donolik qilishsa, yomon tutaqib ketardi. Otasi injener Arximiro Peralta Erediya tushlikdan keyin o'qimagan oila a'zolari oldida o'zini go'yo Bertran Rassel fahmlab, qo'rquv tuyg'usi har qanday diniy ta'limotning birinchi va asosiy manbayi (ortiq ham emas, kam ham emas, buni Xudo yaratgan), tarix va uni har jihatdan harakatga keltiruvchi kuch, ilmiy taroqqiyotning bosh omili, mavhum san'atning ilhom chashmasi va negizi, degan g'oyani ilgari surib, ularning boshini qotirardi. Na o'ngida, na tushida qo'rquv deb atalgan vasvasaga bir marta ham duchor bo'lmagan Viktorino esa, buni his qilolmas, omadi gapni aytganda, umrbod bunga duchor bo'lishni istamas edi. To'g'ri, gohgoh u qo'rquvning o'zi nimadan iborat, bilgisi, olamga noma'lum mikroblarni mikroskopda kattalashtirib

ko'rishgandek, o'sha qo'rquvning o'zini ko'rgisi kelar, uni ko'pincha ko'kargan basharalar, qotib qolgan, nursiz ko'zlar va kimningdir zug'umi hamda qutqusidan hosil bo'lgan titroqlardan izlardi.

Ramuncho uni mototsikliga o'tqazib kimsasiz, bittagina, u ham bo'lsa xira chiroq yonib turgan ko'chaga olib bordi. Allaqanday telvakezik bir kishi to'g'ri bularning oldiga kela boshladi. Bu odam mast emas, ko'nglidan o'tkazdi Ramuncho, ehtimol, qarta-parta o'ynab yuradigan kishi-yu, bugun kechroq qolib ketganga o'xshaydi. Bola-chaqali, diyonatli odam bunaqa paytda ko'chada yurmaydi. Yo'lovchining qiyofasi paypoqdagi teshiklardan aniq ko'ringan zahoti (qorong'ilik bu hangomani aniq-tiniq ko'rishga xalal berardi) Viktorino yashirinib turgan yeridan otilib chiqdi-da, uning ko'ksiga zalvorli, otasining yozuv stoli tortmasida keraksiz toshdek yotaverganidan siqilib ketgan „kolt“ni tiradi:

Ko'tar qo'lingni, nobakor! Joningdan umiding bo'lsa!

Xotinlarning qora paypog'idagi bir juft teshikdan bu so'takning qo'rquvdan bo'shashib ketganini Viktorino ko'rib turardi: u avval dir-dir titray boshladi, negadir hiqillab yig'lashga tushdi, qo'lini ko'taray desa majoli qolmagan, qo'rqqanidan ishtonini ho'llab qo'ydi.

– Senga aytyapman, tentak chol! Ko'rmayapsanmi, o'zingdan ko'r! – dedi Ramuncho qorong'ilik qo'ynidan bu tomoshani kuzatib turar ekan.

Cholning qaltirashini ko'rgan Viktorinoning afti burishdi, ko'ngli aynib ketdi, bu qo'rqqoq o'tinib yalina boshlaganda, basharasiga tupurgisi, ketiga tepib-tepib yuborgisi keldi. „O'tinaman, senorlar, meni o'ldirmang, beshta bolar, ikkita nevaram bor, o'ldirmanglar!..“ Uning ko'zlaridagi qo'rquvni ko'rishga arzimaydi.

Ularga tekkani terlagan qo'llar va isqirt cho'ntaklarda yuraverganidan qorayib ketgan isliqi karmon bo'ldi. Uning ichida ikkita yigirma bolivarlik qog'oz pul hamda cholning oilasi bilan tushgan rasm chiqdi. Viktorino mamnuniyat bilan pulni Ramunchoga berdi, karmonni butalar orasiga uloqtirdi, fotosuratni esa esdalik sifatida o'ziga olib qoldi.

– Voy, basharasini ko'rdingmi?

„Mazerati“ salobat bilan ikki qator qilib ekilgan xabi daraxtlari oralab borar, Ramunchoning qahqahasi saksofonning o'tkir chiyillashi ostida ko'milib ketardi. „Oyga ishqiboz bo'pti, esipast buqa“, deya qo'shiq ohangi tararlardi radio orqali.

O'yin qoidasiga ko'ra, bir qancha fursatga tiriklar dunyosini tark etish lozim edi. Viktorino bir o'zi o'ynaydigan bo'ldi – monastir kollejidagi pah-pahlab o'stirilgan oyimchalar u yoqda tursin, qo'shni bolalardan birontasining u bilan bellashishga yuragi dov bermadi. Oralarida undan boshqa hech kimning o'zini buncha payt muzdek, moviy lahadga dafn etishga, baliq singari sho'ng'ib, suv ostida suzishga, suvning qattiq qadaluvchi bosimiga qaramay qo'rqmasdan ko'zini ochib qarashga chog'i kelmadi. U suv ostida uzoq turdi. Birdan shaloplab boshi suv yuziga chiqqanda oq-sariq kokillari peshonasiga chippa yopishib, ko'zlari qonga to'lgandek qizarib, pir-pir uchardi.

Trinidadlik haydovchi Jonni boyadan beri hovuz atrofiga biror kor-hol ro'y berib, birov cho'kib qolsa, yordam qo'lini cho'zish uchun emas, bunaqa yordamni xohlashmasdi ham, qabul qilishmasdi ham, balki zinapoyaning tepasidan yangrab qolish ehtimoli bo'lgan topshiriqni yetkazish uchun o'ralashib yurardi.

– Viktorino, senora bo‘ldi endi, deyaptilar, chunki...

U Onajon nima deyishi mumkinligini taxminan bilardi. Bugun farishta Gledis tavallud topgan kun (Viktorino shunaqa bema’ni, yana inglizcha ismli farishta mavjud bo‘lishi mumkin ekaniga mutlaqo ishonmas, lekin ming qilganda ham singlisining tug‘ilgan kuni, borishi kerak edi), farishta singlisi Gledisning tug‘ilgan kuni ediki, esdan chiqarish, bormaslik odobdan emasdi. Gledisdan keyin Betti tug‘ildi, so‘ng Margaret dunyoga keldi. Agar buvisi aralashmasa, to‘ng‘ich farzandlari, qo‘chqordek o‘g‘illari ismini, ya’ni o‘zini ham (don Adelaida nevarasi-ning tavallud ayyomi to‘g‘ri kelib qolgan jafokash avliyoga nazr-niyoz atab qo‘ygandi) allaqanday Richard, Rikki deya atashlari muqarrar edi, – naqadar dahshat! Gledis, Betti, Margaret, qand kukuniga belangan uchta so‘zananak, boshdan oyog‘iga qadar nafis darparda bilan moviy tas-
malarga ba‘zan pushti, ba‘zan sarg‘ish rangga burkan-
gancha uzzukun, kechqurun qo‘g‘irchoqlarini bag‘rilari-
ga bosib, uvvos solib uxlab qolmagunlaricha so‘niq hazin
ohangdayam, ko‘tarinki avj pardalarda ham diydiyo qilib
hiqillab yurishardi.

„Bugun Gledisning tug‘ilgan kuni bo‘lsa, sen bir soatdan beri havzadan kelmaysan, shamollab, ish orttirib yurmagin yana, vaqt bo‘ldi, bor, kiyimingni o‘zgartirib ol, mehmonlar kelib qolishadi hozir...“ Viktorinoni diqqi-nafas, zerikarli va bachkana oqshom kutardi. Gledisning bir talay dugonalari oppoq tuffilar, etagi muslin burma ko‘ylaklar, gard yuqmagan top-toza fartuklar kiygan qo-ratanli xizmatkorlar shovvoz o‘t o‘chiruvchilar va ipak paypoqlarga shaydo enagalari bilan qo‘l ushlab kirib kelishadi. Lyusi degan o‘rtog‘i ham, albatta, keladi va ninachinikidek nozik „g‘unajin“ unga zoriqqan yuragidan

ogoh qiluvchi hadanglar otadi, uning qanot bog'lagan xo'rsinishlari Viktorinoning ko'ngil bog'iga saharxez qushlar singari parvoz qiladi, bu to Viktorino uning yoniga borib, muzqaymoq bilan siylagunga qadar davom etadi, ana shunda Lyusi: „Rahmat senga, Viktorino“, deydi beo'xshov ovozda, uning bu minnatdorchiligi xuddi „seni sevaman, jism-u jonim seniki“ deganga o'xshab chiqadi. Bu kulgili tug'ilgan kun italiyaliklarning mijg'ov operalari yoki Uolt Disneyning yumaloqqina jonivorchalarga o'xshaydi.

Onajonning dugonalari yoshi ulug' mehmonlar ham kelishadi, fransuz atirlarining tarovati hamda tuturuqsiz romanlarining hidi taraladi. Onajonning dugonalari allaqanday uzuq-yuluq yo shartli belgilar bilan yo jumboqli shevada so'zlashadilar: – Ancha bo'ldimi berkinganiga? – deydi biri; Bilgan bo'lsam til tortmay o'lay shu yerda, deydi ikkinchisi; Bir kuni kechqurunmidi, deydi uchinchisi; Qanaqangi oila edi-ya, deydi to'rtinchisi; Bolalari-chi, deydi beshinchisi; Qo'rqqanidan, ha, faqat qo'rqqanidan shunaqa bo'lgan, deydi oltinchisi; Nopsh 8011 di 1 ta 1 u repve, deydi yettinchisi, Londonda tarbiya topgani. Bir kuni kechki payt men ularni do'konda ko'rib qoldim, to'xtaganim sababi, fuagra qancha turadi, deb so'ramoqchi edim, narxi qutisida ko'rinarli qilib yozib qo'yilgandi, u yonimga kelib men bilan salomlashdi, yanglishmasam, dushanba kuni edi, ha, dushanba, u esida qolgani o'sha kuni Alfredo xizmatdan charchab, ruhi so'nik kelgandi, eng yomoni, yomg'ir chelaklab quyardi, deydi sakkizinchisi. Umuman olganda, vajikari vatarixi, pitssekato. Martini icharsizlar balki? deydi Onajon. Ziyofat davomida uzluk-siz Lyusining yalinchoq, zoriqqan nigohlariga chidab o'tirish juda qiyin. Viktorinoning peshonasida marjon-marjon

ter paydo bo'ldi va u o'zining „Sent-Onore“ tortiga aylalib qolayotganini his qildi. Uning bu ahvolidan noroziligi ostida halqasimon to'g'ralgan ananas bo'laklari, po'rtaxol parchalari, Galipana qulupnayi suzib yurgan meksikaning kumushidan ishlangan bahaybat sharbat idishiga o'z peshobini aralashtirib qo'yishdan boshlandi (buyraklarining sho'rtanggina mahsuli aralashtirilgan sharbatning ta'mi yana-da latif bo'lishi tabiiy, qizlar, deb o'yladi u va lablarini chapillatib ichishlarini tasavvur qilib ko'rdi). Naf-ratining ikkinchi pardasida yasan-tusanni qotirgan ikkita zanjir enagalarning yaltiroq sumkasiga solib qo'yilgan bir juft baqalar unga yaqindan ko'mak berdi. Terisi g'ij-g'ij so'gal baqalar ozodlik qasdidagi sumkadan sakrab chiqish-ganda afrikacha ohangda chinqirib yuborishganini ko'rib, Viktorino qotib-qotib kuladi. Ammo ko'p o'tmay bularning bari joniga tegib, u arang kiygan, onasi sovg'a qilgan baxmal kamzulda uyni xomush kezib chiqa boshladi, darhaqiqat, bu bachkana kamzul bo'lg'usi fazogirga yarashmaydigan kamzul edi.

Chiroqlar porladi, Viktorino mango va limon butazorlari orasiga yashirinib oldi. Tabiat bag'ridagi emin-erkinlik ko'ngliga chinakamiga dohiyona fikr soldi. Uning qarshisida derazasiga qat-qat parda osilgan xonada sovg'a-salomlar bor edi. Bir qo'l mana shu xonaga suqulib kiradi va yomg'ir yog'ayotgandek, sofaga, darparda va gilamga benzin purkab sepadi. Keyin xuddi ana shu qo'llari bilan tarvaqaylagan shoxlari devorga taqalgan po'rtaxol daraxtiga chiqib gugurt chaqib, deraza ko'zidan ichkari-ga otadi. O't-olov, ma'lumki, materiyadagi barcha o'zgarishlarning birlamchi (Geraklit bo'yicha) omilidir, uning bilanglab o'ynayotgan alangalari ipak sofani qamrab oladi, o't-olov muqaddas ruh ramzidir, pirovardida, uning

mudhish alangasi sovg'alar o'rab qo'yilgan choyshabga ham yetib keladi. Sovg'alar o'raladigan qog'ozlar esa yomon yonmaydi.

Gledisning muborak ayyomi go'yo Qadimiy Ahd sahifalariga aylandi. Iegovaning jazolovchi g'azabi sarosima urug'ini sochdi, o'takasi yorilgan bir talay nozanin qizlar qiy-chuv ko'targancha patioga qarab yugurishdi; ularning ortidan karkidonlar singari harsillab va to'pillatib chopgancha zanjini enagalari chiqib kelishdi. Epchil va uddaburro Jon bir zumda xizmatkorlardan o't o'chiruvchilar komandasi tuzdi, ular bo'sh chelaklarni ko'tarib hovuz tarafga yugurib borib, chelaklarini suvga botirib, ilondek buralib o'ynayotgan alanganing tiliga keltirib sepishar, yo'lda joniqib, nafasлари bo'g'izlariga tiqilib: „Ey Xudoyim-ey“, deb qo'yishardi. Kimdir o't o'chiruvchilar mahkamasiga qo'ng'iroq qildi va ko'p o'tmay yarim kechasi xuddi kinolardagidek qo'ng'iroqlar sadosi qorong'i tun qo'ynini tutib ketdi. Biron yeriga shikast yetmagan, sog'-salomat Gledis, Betti hamda Margaretlar garajda, temir-tersaklar va avtomobil pokrishkalari orasida ho'ng-ho'ng yig'lashardi. Pompeyaning so'nggi kunlarini nimasi bilandir eslatayotgan manzaraning markazida nafasi tiqilib, entikib, gangib qolgan ma'buda, rangpar Medeya singari Onajon paydo bo'ladi va o'g'liga qilmishi uchun cheksiz quvonch va iftixor baxsh etuvchi hayajon ichida qichqiradi:

– Viktorino! Viktorino qani?

Nuridiydasing shu yerdaligini payqaganda har tomonga to'zigan qushlar singari osoyishtalik va halovat yana Onajon borlig'iga qaytib keladi. Tabassum chehrasiga bahor tarovatini baxsh etadi go'yo. Harbiy harakatlar chog'idagi Napoleonga munosib amr-u farmonlar yangradi va besh daqiqa o'tar-o'tmas uyda tinchlik, tartib tiklandi.

Har qanday ayol, u qanaqa bo'lishidan qat'i nazar, ayni gul-gul ochilgan sohibjamol bo'ladimi, oppoq nilufar kabi ma'suma yoki ko'hlikkina, husniga non botirib yegulik yoki nastarin gulining tarovatini o'g'irlagan beva bo'ladimi, farqi yo'q. Viktorinoning otasi Arximiro Peralta Erediyaning e'tiboriga tushsa, bas, u bamisli Alya Chatterley xonimga duch kelgandek hech narsadan yuzxotir qilmay, uni o'sha zahoti, bir amallab ilintirish payiga tushadi. Viktorino qarab turib ajablanar, nima uchun shunday nozanin qiz-juvonlarning erlarimi, aka-ukalarimi yoki oshiq-u beqaror bo'lib yurganlar otasini insof yuzasidan ogohlantirib qo'yishga harakat ham qilmasliklari yoki quloq-chakkasiga tarsaki tushirmasliklariga sira tushunolmas edi. Onajon esa bu osiy bandaning riyokorona hiyla-nayranglariga uchib charchamasdi.

– Voy, onajonim-ey (u onasi bilan bemalol shunaqa ohangda gaplashar, zero, bunaqa muomala yolg'iz unga yo'l qo'yilardi), bizning yoshimizda rashk qilish odob hisoblanadi; qirq beshga chiqibsiz-u, o'quvchi qizdan farqingiz yo'q; nahotki siz hurmat-e'tiborni boshqacha tushunsangiz... Shunday suhbatdan keyin ertasiga ertalaboq onajonga noma'lum bir janobdan orxideya kelar va u gullarni mamnuniyat bilan qabul qilib olardi; o'z tashakkurini izhor etayotganda esa ma'yusgina kulimsirab qo'yardi, chunki u qirq besh yashar emas, qirq sakkiz yosh.

Viktorino sport kiyimlarini kiyib olish uchun yechinadi, kiyinish xonasidagi o'rindiqlarda o'tirib oyog'idagi tirnoqlarni xomushgina ko'zdan kechiradi va xayolan otasidan o'pkalaydi. Xotinboz, yana qanaqasi, uchiga chiqqani, deb o'ylaydi u. O'ng oyog'ining boshmaldod-

g'idagi tirnog'i uni tashvishga solardi: tug'ilganidan beri o'smagan jimitdekkina, lekin eti orasiga o'sadi, doktor Shollning dori-darmonlari ham kor qilmayapti shu mayib-majruh barmog'iga, olchanning danagiga monand, boshi dumaloq ruhoniy yoki bankirga o'xshash, lekin qolgan uzun-uzun, tekis, bejirim, xuddi bir dasta sarsabilga o'xshagan to'qqizta barmog'iga sira o'xshamaydi. Viktorino uh tortib qo'yadi va ko'ngilsiz xayollarini bir chekkaga surib, tez-tez kiyina boshlaydi.

Moviy sviteridan keyin oppoq jun paypog'ini, so'ng sport poyabzalini kiygach, bokschilarga o'xshab yengilgina yugurgancha sportzaldagi taxta supaga ko'tariladi. Murabbiyi Lui Breton unga odatdagidek yelkasi osha „opoig“, deb qo'yish uchun bajarayotgan mashqini to'xtatadi. Lui Breton qachonlardir „pashsha“ og'irligida Jazoir chempioni buni isbotlash uchun dalil sifatida u gazetadan qirqib olingan parchani cho'ntagida olib yurardi. Biroq, vaqti kelib Lotin Amerikasi oshxonasi uning semirib ketishiga yo'l ochib berdi; yaqinni yaxshi ko'rsatadigan ko'zoynagi chaqchaygan ko'zlaridagi ifodani biroz yumshatar, oldidagi ikkita tishiga qoplangan platina uning tabassumiga jilva bag'ishlardi.

Ramuncho, Esekel hamda Uilyam Viktorinoning uch nafar do'sti allaqachon kanop qoplangan gilamda chalqancha yotgancha oyoq-qo'llarini bukib, uzatib Lui Breton boshchiligida, uning buyrug'iga itoat etib bir maromda harakat qilish bilan mashg'ulotni boshlab yuborishgan edi. „Qo'llar boshingiz ortida, oyoqlar uzatilgan, qani bolalar, ko'taring, endi esa yelkangizni o'ngga, chapga burib, tez-tez, birgalikda, g'ayrat bilan, o'tirib oyoq uchini ushlashga harakat qilamiz: bo'shashish yo'q, Esekel, sariyog' emassan-ku“, bu ko'rsatmalar uning og'zidan

xuddi erkalagan, asta nasihat qilayotgandek, goho hazil aralash chiqardi.

Mashg'ulot davom etardi, endi ular oyoqlarini havoda xuddi velosiped uchayotganga taqlidan harakatlantira boshlashdi.

Viktorino xayolan havodagi yo'llardan ketayotgandek bo'lar va iloji boricha bir dam to'xtamaslikka harakat qilar, to g'aroq-g'aroq terga botib, yuzi, bo'yni qizarib ketmaguncha, o'sha xayoliy velosipedni haydab ketaverar, ora-sira mushaklariga qo'shib, tomirlari ham o'ynab ketgan bo'ynini burib Lui Bretonga „bonjour“ deb yonida xuddi shu harakatni bajarayotgan do'stlariga esa ko'z qisib qo'yardi, so'ngra o'rnidan turib taxta supaning narigi burchagida turgan shtanga tepasiga bordi va charm bilan qoplangan o'rindiqqa yotib olib og'irlik yelka mushaklariga tushishi uchun mo'ljallangan alohida mashqlar bajarishga kirishdi. Uning barmoqlari ikki tomoniga temir gardishlar osilgan shtanganing grifini mahkam qisadi va dast ko'targanda bo'yni tomirlari o'qloqdek bo'lib shishadi, yelkasining oshiq-moshig'i qirsillaydi, lablari qiyshayib, ixtiyoriy ravishda o'zini qiynab, shu mashqni yana takrorlaydi.

– Men chidamli, baquvvat bolaman, Malvina. Bizning mushaklarimiz to'qimasi nimadan hosil bo'lsa, uning manbai inson tafakkurini tashkil qiladi. Chunki qachonlardir aytilgan va hali-hanuz biron inkor etish tugul buni asrlar davomida o'ylab ham ko'rmagan „Sog'lom tanda sog' aql“ degan naql bejiz emas, shu sababli o'ylamaginki, nimjon, qo'lidan kitob tushmaydiganlarning miyasi tufayli emas, biz kabi ko'p narsalarni hal qilishga qodir odamlarning g'ayrati tufayli dunyo o'zgaradi, taroqqiyotga yuz tutadi, mana shu haqiqat, mana shu ezgulikning

ibtidosi, mana shu tafakkur olamining mehvari; munkayib yuradigan Faustlarning qonab turadigan milklari, nimjon bilaklari va uzoqni ko'ra olmaydigan xira ko'zlari bilan dunyoni taroqqiyot chorrahasiga yetkazib borishlariga odamning ishongisi kelmaydi. Agar birontasiga Mefistofel mutolaa qilgan o'nlab kitoblarni, universitet professorlarining oq fotihalari bilan maqtoqlarini uning, Viktorinoning kuch-quvvati hamda salomatligini, g'urur bilan o'ziga, yalang'och badanlari bilan mushaklariga almashtirish to'g'risida taklif qilsa, so'kishni eshitardiki, ulardan... onasini tanimay qolardi (kechirasiz, Malvina, qo'polligimiz uchun uzr), axloq muhiblari hamda shahvoniy hirsini qondirishdan boshqasini o'ylamaydiganlar yaratgan bu ahmoqona va bir-biriga zid, telba-teskari nazariyalarning kimga foydasi bor?! Viktorino baquvvat yigit, Malvina, o'zini mamnun va baxtiyor sezishi uchun unga kuch-quvvatini his qilishning o'zigina kifoya. Ertalab, uyqudan ko'zini ochganda kashanda singari yo'talib qiynalmaydi, balki yosh buqachalar hamda daraxtlar singari ko'ksini to'ldirib erkin nafas oladi. U bosh og'rig'i yoki piyonista singari yurakni ziq qiladigan g'am-anduh bilan uyg'onmaydi. U jismini yakson qiladigan har qanday razolatdan, u nikotin bo'ladimi, alkogol-og'u, qartabozlik, kasallik, g'am-g'ussa hamda bori yoshligini sovurish va organik ximiya bilan quruq muhokamaga asoslangan falsafa sotish tufayli elburutdan zerikish, rangi siniqish, xullas kalom, kavsh qaytaruvchi qoramollar va kutubxona oxurlariga mixlab qo'yilganlarning pand-nasihatlaridan hazar qiladi.

Xuddi mana shu pallada u chalqancha yotgancha qirq kiloli toshni ko'taradi, Malvina, agar zarurat tug'ilsa, undan ikki hissa ortiq ko'tarishi mumkin, chunki u baquv-

vat yigitcha mushaklarini idora qila biladi. Viktorinodan so‘rang shu paytda, u o‘sha zahoti bu qal’a, aniqrog‘i katta og‘irlikni qandaydir mo‘jiza ro‘y berib emas, balki chekkan zahmatlari va uzoq yil ter to‘kkanlari evaziga ishg‘ol qilayotganini tushuntirib qo‘yadi. Har bir odam, albatta qiltiriq va tug‘ma nimjon odamlardan tashqari, dunyoga o‘zining qo‘rg‘onini qura olish quvvatiga ega bo‘lgan holda keladi, qachonki sen biror soatni ham bekor o‘tkazmay g‘isht terishdan to‘xtamasang, maqsadingga yetasan. Viktorinoning necha pullik ishi borki, uning raqibi she‘r yozishga, musiqa yaratishga yoki tenglamani bir zumda yechishga qobil-u usta bo‘lsa nima bo‘pti, asosiy-si boshqa narsada: agar uch kishi – Viktorino ham, u ham va siz ham, Malvina – bir kimsasiz orolga tushib qoldingiz deylik, Viktorino o‘sha raqibidan xalos bo‘lgisi keldi, deylik, nima bo‘lishi mumkin, albatta, xotiringiz jam bo‘laversinki, o‘sha bechora, ishonavering, yunon she‘riyatiga xos yamb haqidagi bilimi hamda oshqozonidagi gastriti bilan o‘zini suvda ko‘rardi, Viktorino yolg‘iz siz bilan, Malvina, birgalikda hayot lazzatini totgan bo‘lardi. Mayli, va‘z-nasihatni va har xil gaplarni tarqataversinlar, bu va‘zxonlar bilan jurnalistlarning ishi, ruhoniylar o‘zlarining baland rutbasi tufayli, olimlar o‘zlarining tadqiqotlari hamda bitgan risolalarida shu faoliyatlarini davom ettiraversinlar. Holbuki, jurnalistlar, notiqalar, olimlar va ruhoniylar haliga qadar insonga foydasi tegadigan arzigulik bir ish qilishmagan, hamon jismonan kuchsiz, zaif odamni kuchli odam bilan taqqoslab, o‘sha kallasi katta, oyoq-qo‘llari chilikka o‘xshagan kimsani qurol hamda huquqiy nufuzlar bilan ta‘minlab, shu tariqa ularning birini ikkinchisiga qayrashdan boshqasini bilmaydiganlar va hokazo, va hokazo... o‘z fikrlarini shu yo‘sin bayon

qilgan bo'lardi Viktorino, basharti uni fikrlashga o'qitgan bo'lishsa, Men baquvvat bolaman, Malvina, shtangani ko'ksiga olarkan, shundan boshqasiga aqli yetmaydi; uning yengil va sog'lom o'pkasi namunaviy tarzda ishlashga odatlangan.

To'rtta og'a-ini cho'milish xonasida to'planishadi. Viktorino jo'mrakni oxirigacha ochadi, suv sharillab uning yelkalariga uriladi va atrofga sachraydi, keyin kuraklari va to'shini tutadi, bu rezina shlangdan sepilayotgandek kuch bilan otilib tushayotgan suvda, qornini ichiga tortib, u qator olti nafar do'mpayib turgan tarang mushaklarni yuvadi.

Chap tomonidan Uilyamning ovozi suv shovqini aro eshitiladi unga:

– Yangilikni eshitdingizmi? Bugun kechqurun Pibe Londononikida ziyofat. Bizni taklif etishmagan lekin.

Viktorino dushni o'chirdi va ilgakdagi sochig'ini tortib oldi. Shu payt o'ng tarafda sharillab tushayotgan suv shovqini aro uh-uhlayotgan Esekelnings shu xabarni sharhlagan ovozi keladi:

– Pibega qo'ng'iroq qilib anig'ini bilamiz, u yashir-yapti bir nimani, tug'ilgan kuni haqida bir og'iz eslamadi ham, nima emish, bugun kechqurun algebradan saboq olishga borishim kerak deydi, yolg'on gapiryapti, ikki-yuzlamachi, parazit, algebrasiga o'ynab qo'ydim-a...

To'rtovi yuvinish xonasidan chiqib, bamisli adolatni qaror toptirish ishtiyoqida yig'ilgan Rim senatorlari singari yelkalariga togo o'rniga oq sochiqni tashlab o'zaro kengashib olish uchun yo'lakda to'planadilar. Voqea aniq: obro'-e'tiborli Londonolar oilasi Nenaning tavallud ayyomini nishonlashmoqchi. Shu munosabat bilan bugun kechqurun ularning dang'illama uyida ziyofat bo'lib o'tadi, unga deyarli butun Karakas taklif etilgan. Xulosa: Lon-

donolar xonadoni diqqat bilan vaziyatni atroflicha o'rganib chiqib, „yuz berishi“ ehtimoli bo'lgan muammolar hamda janjal-to'polonlarni hisobga olib, Pibe Londononing eng yaqin do'stlari, ya'ni bizni taklif qilmaslikni lozim topishgan, azbaroyi o'zlarini ko'ngilsiz asoratlar (mushtlashish, momataloq yuzlar, malham, latta ho'llab bosish) dan saqlash uchun. Bechoragina Pibe Londono, jangovar o'rtoq bo'la turib, g'iring demay qardoshlarining bunday haqoratomuz qisti-bastiga chidab bergan. Lekin Esekelnining adliya fakulteti talabasi ekanini unutmaslik kerak.

– Biz baribir u yerga boramiz va xursandchilik qilamiz, – deya dona-dona qilib ta'kidlaydi Viktorino.

Bu so'nggi qaror qoralovchi Esekel Ustarisning turli ohangdagi surbetlarcha kulgisini qo'zg'aydi va dam past ovozda hirlinglaydi, dam xaʼolaydi, dam ma'noli qilib bir me'yorda kuladi va oxiri bir qadam naridagi deraza oynasini zirillatgudek qahqaha uradi.

– Biz bu tantanalarda, albatta, qatnashamiz va u yerga o'zimiz bilan Mona Lizani olib boramiz, – deydi qat'iy qilib Viktorino.

– Mona Lizani?! Esekel Ustarisning zavqlanib kulgani juda ta'sirli chiqadi. Uch nafar oshnasi unga jo'r bo'lishadi, Leonardo da Vinchi yaratgan asar ular orasida hech qachon bunaqa shovqinga sabab bo'lmagan edi. Xo'p, albatta, Mona Liza bo'lsa Mona Liza-da! Jazoirning sobiq chempioni, „pashsha“ vaznida ringga chiqqan Lui Breton bu kulgining sababini bilmasa ham labini yig'ishtirolmay turardi.

Mana shu to'rt nafar alpdek yigit, Uilyam, Ramuncho, Esekel va Viktorino, – ko'rib turganingizdek, oralaridan qil o'tmaydigan do'st edilar. Unda Viktorino o'n to'rt yashar bola bo'lib, otasi bilan ilk to'qnashuvda u g'ala-

ba qozongan, shuningdek, uning serqatnov ko'chalardan bu do'zaxiy mashinada yurishiga qarshi iltijolar va ta'na-dashnomlari ila qahramonlarcha kurash olib borgan Onajonni ham yutib chiqqan edi. Har qanday irim-sirimlar, bexosiyat fol ochishlar, issiq-sovuqni jinidan battar yomon ko'radigan Onajoni ko'nglida paydo bo'lgan, ya'ni ayon qilingan o'zi o'ylab-o'ylab topgan bir-biridan ko'ngilsiz, vahimali, lekin yolg'on bashoratlarni aytib berayotganda kiprik qoqmagandi:

– Bir necha kundan buyon, qayta-qayta tushimga sen mashina halokatiga uchraganing kiradi. Xoh ishon, xoh ishonma, hamma yog'ing qonga belanib jon berayotganningda tepangda turgan bo'larmishman-u, bir yig'lab, bir osmonni ko'rsatarmishman. Qon daryo bo'lib oqarmish, hamma yoq tutun, odamlar chopgan, yugurgan, dahshat... Bo'g'ilib, uyg'onib ketaman... Shundan keyin u to'qigan yolg'onlari ta'sir etishi, ishonchliroq chiqishi uchun ko'zyoshlarini artib oladi.

– Sizdek madaniyatli, o'qimishli ayol, Onajon, qayoqdagi bo'lmag'ur tushlarga ishonib yursa, endi dardini kimga aytishni ham bilmay qolarkan odam. Axir, biz yigirmanchi asrning o'rtalarida yashayotgan bo'lsak, bunaqa tushlarga qanaqa qilib ishonish mumkin, – dedi onasiga Viktorino otasi Arximiro Peralta Erediya qonidan o'tgan mulohazakorlik bilan.

– Bola to'g'ri gapiryapti, – dedi otasi, lekin shunga qaramay, o'la qolsam ham unga mototsikl olib bermayman, ajalning urug'i bo'lsa. Lekin tush g'irt yolg'on, u odamni aldaydi, mana masalan, har hafta Sofi Loren bilan yotganim tushimga kiradi, lekin hayotimda bunaqa voqea bo'lishi u yoqda tursin, biz u aktrisa bilan tanish ham emasmiz.

– Aytmaganmidim, o‘taketgan hayosiz deb? Viktorino shu gaplardan keyin Uilyamning mototsiklida haydashni o‘rganishga ahd qildi, ularning oilasi bir tomondan, kelib chiqishi va hayot tarzi bo‘yicha g‘irt namunaviy ingliz oilasi, ikkinchi tomondan, bunaqa asossiz vahimalardan yiroq, bil‘aks, zamonaviy taroqqiyot samaralaridan, boz ustiga, Buyuk Britaniya shuhratini olamga yoyish bilan birga mo‘maygina daromad keltirayotgan vositalardan faxrlanishadi. Bir kuni qoq tush paytida Viktorino to‘g‘ri hovlilariga Uilyamning mototsiklini haydab kirib keldi va rulni qo‘yib yubordi-da, qo‘llarini akrobatlardek ikki tomonga keng yoyib, beton yotqizilgan ensiz yo‘lkadan uchirib ketdi. Balkonda turgan Onajoni qichqirib yubor-maslik uchun kafti bilan og‘zini yopib oldi. Shundan keyingina otasi o‘g‘li bilan sulh tuzib, unga qondek qizil, shahardagi jamiki mototsikllardan o‘lsa o‘ligi ortiq, uchqur va bag‘oyat shiddatli „Triumf“ mototsiklini olib berishga majbur bo‘ldi.

Bunaqa qirmizi „Triumf“ haydash tugul, uning egasi-ga aylanish bolalik bilan umrbod xayrlashish degani edi. O‘n to‘rt yoshida bamisli yangi bir odam, ot mingan, mexanik Qoplonni egallagan Prometey dunyoga keldi. Hatto tog‘asi Anastasio zodagonlarga xos odatiga sodiq holda uni o‘zi bilan birga Chakao bordeliga (islovot-xonasiga) olib borgandi va u ana o‘shanda (unga mototsikl sovg‘a qilishgandan bir yil keyin) birinchi marta ayol zotining nimalar evaziga erkaklar yuragiga olov solib, qo‘liga xanjar tutqazishganidan voqif bo‘lganda ham o‘zini hozirgiday mustaqil, voyaga yetgan deb his qilmagandi. U ilgari bir marta ham „Xususiy mulk“ degan yorliq bilan ziynatlangan hamda millatning ijtimoiy tarixi va odamlarning shaxsiy hayotiga bunaqa chuqur

ta'sir o'tkazgan tuyg'uni tatib ko'rmagandi. Bolaligida o'ziga tegishli bo'lgan o'yinchoqlar xususiy mulk bo'lolmasdi, u bor-yo'g'i tengdoshlari bilan o'zining orasida ota-onasi barpo qilgan g'ov-devor vazifasini o'tardi, xolos. Ko'rishga toqati yo'q maktab o'quv qurollarini ham Viktorino xususiy mulk deb hisoblamasdi, ular ota-onasining tashvishi va g'amxo'rligining mahsuli edi, xuddi shu taxlit jazirama issiqda bemalol yurishga xalaqit berishdan boshqasiga yaramaydigan kiyim-boshi ham shunday vazifani bajarardi, xolos. Hattoki tosh bilan urib yoki jahlini chiqarganda tepib qoladigan, duminni likillatib yana qachon meni jazolasharkan yoki hech bo'lmaganda botinka bilan urib qolisharmikan, degandek badxohlik bilan kutishini qo'ymaydigan uydagi kuchugi Yaguar ham mutlaqo xususiy mulki bo'lolmasdi. U, qo'yingchi, har bitta dorixona malayiga buyurtmani eltib berishda xizmat qiladi, deb olib berishganidek, o'z velosipedini ham shaxsan meniki, deyishga or qilardi.

Mototsikl esa aksincha, haqiqiy erkak kishining g'ururi va erkiga o'xshagan, birini biridan ajratib bo'lmaydigan bir butun narsa. Mototsikl aytaylik, kanar-eyka yoki mushukka nisbatan unga yaqinroq. Sevikli singari uni nigohlari bilan ardoqlaydi, umr yo'ldoshi singari unga g'amxo'rlik qiladi, bolasi singari yuvadi, artib-tozalaydi. Butun dunyoga dong'i ketgan bu xazina Viktorinoning qirmizi „Triumfi“ni tomosha qilishga arzigulik edi. Rul chambaragini o'rab chiqqan timsoh terisi-chi; biron yeriga tomchidek yog' tushmagan bu „toychoq“qa havas qilsa arziydi. Uning Avilaning tik yonbag'ridagi ko'chalardan salobat va tantana bilan tushib kelishini tomosha qilishga arzirdi. Bamisli yer bag'irlab qanot qoqayotgan qaldirg'och birdan burilgan-

dek, Viktorinoning arzandasi keskin burilganida ikkita g'ildiragi yerdan uzilar va o'n metrcha qiyalab ketishini ko'rganlar bor, ko'rmaganlar zor. Quyuq, oppoq bulutlar bag'rida chaqnagan yashindek uchib o'tganida ko'chaning narigi betida ketayotganlarning yuragi bir qalqib tushar, yoshlik jo'shqinligi bilan hayqirsa, kekxa yo'lovchilarning yuragini o'ynatib yuborardi: ha mashina haydamay baloga uchragur, degan qarg'ishlar ta'sir etmas, nari borsa qonini jo'shtirardi, xolos.

Uni birga tomosha qilsak qani edi, Malvina, uning orqa tarafida o'tirib bo'ynimdan quchib olgan, Malvina, mening kuraklarimga atay sviterining ostidagi limonlarini botirganingda yuragimda ot o'ynardi, Malvina; iltimos, o'tinaman, to'xtat, deb nega nola qilayotganingni bilaman, Malvina, yaxshi bilamanki, sen hech narsadan qo'rqmayapsan, balki meni qattiqroq bag'ringga bosish maqsadida shunday qilasan, Malvina.

– Bir otishma uyushtirmaymizmi, shunqorlar, – deb qoldi bir kuni Uilyam g'ira-shira jazirama oqshom mahal, havo dim: biz e'lon bo'yicha va'da qilingan momaqaldiroqni kutar, lekin u nomard hadeganda gulduray demasdi; qaynoq garmisel har yerda tashlab ketilgan gazetalar va quruq yaproqlarni chirpirak qilib uchirardi.

Olti shovvoz anchadan beri jala quyishini kutib, esnab, bir oyoqlari mototsikllari pedalida, bir oyoqlarini yerga tirab o'tirar ekanlar, yog'mayotganligi uchun xunob bo'lishar, allanimalarni yozg'irishar edi. Oxiri toqatlari toq bo'lib Uilyamning jangovar filmlardan olgan taklifiga rozi bo'lishdi. Bu „otishma“ Sharqiy tuman-da ancha vaqt gap-so'z bo'lishi, bu sportga xos o'yin, ermak katolik xonimlarning shafqatsiz qarg'ishlariga hamda axloq muhiblari sanalgan taqvodor yigitlarning,

garchi politsiya mahkamasida shumtakalarga zarracha ayb qo'yisholmagan bo'lsalar-da, nafratlariga sazo-vor bo'lishlari mumkinligini o'ylab ham o'tirishmagan. Polkovnik Arelyano esa yuzing-ko'zing demasdan ularni idoraga sudrab yuribdi. Mana oqibati nima bo'ldi? Ular-ni ayblayotgan qolib, yigitlarga ishonishdi. G'azabdan ko'karib ketgan polkovnikning jamoatni o'ylab ular-ni bo'yniga qo'ymoqchi bo'lgan ayblariga hech kim ishonmadi yoki u hech kimni ishontirolmadi, aksincha, yuz bergan hodisani o'z ko'zi bilan ko'rgan guvohlar Ramuncho bilan Pibe Londonolarning ko'rsatmalari-ni inobatga olishdi. Guvohlarning aytishlari bo'yicha, mototsiklchilar (biz ularni o'z ko'zimiz bilan ko'rdik), shallaqi qora tanlilar (ularning turqi qursin) Kantri va La-Kastelyan maysazorida qon to'kishdi, sababi jiddiy, o'zlarining asrlardan beri davom etib kelayotgan irqiy va sinfiy alamlari uchun o'ch olishgan.

Aytishlariga qaraganda, yarim tunga borib ko'lami bo'yicha jang darajasiga qadar kengaygan bu otishma quyosh zavolga yuz tutgan mahal oddiy bema'nilik, er-makdan boshlangan. Olti nafar korsar avvaliga uyma-uy yurib, xonadonlarda saqlanayotgan qurollarni musoda-ra qilishgan. Qaytib kelishgach, ularning hisob-kitobi bo'yicha: biri o'sha atrofdagi „tir“da tunukadan yasalgan yo'lbarslargaгина otishga yaraydigan, ikkinchisi Uilyam bilan Esekelnig ajdodlariga tegishli ikkita ov miltig'i bor ekan; uchinchi miltiqni Pibe Londono o'zining kat-ta akasi – zamindorning yerto'lasidan topib keltirdi; Ramuncho bir zamonlar buvasi Kandelyariyada fuqaro-lik bo'yicha boshqaruvchi bo'lib yurgan paytlarda bel-bog'ining ziynati bo'lgan quvuri bir qarichcha keladigan yaltiroq to'pponchani topdi; Viktorino otasining qo'lqop

chiqaruvchi fabrikasidan ijaraga yangi „Mersedes-bens“ brauning oldi. Turk Xulianga kelsak (o'sha paytlari bu muttaham hali ular bilan birga yurardi), u quyon bilan yovvoyi kaptardan boshqa har qanday ilvasin ko'rsa miriqib kuladigan sochma miltiq topishga erishdi, xolos. Endi oradan to'rt yil o'tgach, o'sha sochma miltiq tasodifan kelib qolganmidi yoki hammalariga tashlanib bezor qilib yuborgan opa-singillarning fokstereri qurolli hujum qilishlariga sabab bo'lganmidi, Viktorino hozir yaxshi eslolmaydi, lekin bitta narsani unutmaydiki, mojaro mayda parrandalarni otishdan boshlangandi. Kuchukchani Shadou deb atashardi; yo'g'onligidan o'zining nasliga xos bo'lgan xarakterli belgilardan mahrum edi u, biroq uni dunyoga keltirgan fokstererga xos gerdayish va o'zini boshqa zotlarni mensimagandek tutishi singari odatlari saqlanib qolgandi.

To'g'risini aytganda, hamma balo shunda ediki, ulfatdagilarning bari opa-singillarni sevardi (kim ko'proq, kim ozroq): bir xillari qizlarning kattasiga, qirraborun, tim qora sochlisiga; boshqalari oq-sariqdan kelgan, yasmin gulidek oppoq bilakli kichkinasiga ko'ngil qo'yishgandi. Ikkinchi haqiqat, yanayam ochiqrog'i, shundan iborat ediki, bu ikki nafar nozanin, Altamir ko'chasida istiqomat qiluvchi kibr-u havosi baland qizlar, shovvoz yigitlarning birontasiga qayrilib qaramasdi. Kattasi ser Lourens Olive desa o'lib qolar, nuqul uning odamning bosh chanog'ini ko'tarib olganicha hozirga qadar, to'rt yuz yildan buyon odamlarni qaltis va shubhali xayollarga oshno qilishini qo'ymayotgan motam monologini o'qiyotgan suratiga qarab oh tortishdan ortmas, singlisining esa fikr-u xayoli fortepyanoda bo'lib, ehtirosli bir muhabbat bilan sevgan bu cholg'u asbobidan bir daqiqa ajralgisi kelmas,

o'tyurak bolalarning munosabati haqida zarracha o'ylash tugul, xayoliga ham keltirmas, zero, mijg'ov, boshi-keti yo'q ohanglar va tinimsiz mashqlardan uni dunyoda hech narsa ajratib ololmasdi. Biroq kuchukchasi Shadouni erkalash, qo'ldan ovqat berib soatlab o'tirishga esa (bu taxlit tafovutdan har yakshanba kuni ularning fig'oni falakka ko'tarilardi) vaqt topardi: momiqqinam Shadik, erkatoyim mening. Opa-singillar kuchukchani uchburchak quloqchalarini barmoqlari orasiga olib, xamirdek ezig'ilashar, bundan Shadou rohatlanganday ko'zlarini yumib olardi, qizlar bu azamat yigitchalarning sevgisini kuchukchani ko'zlaridagi dog'chalik ko'rishmasdi. Shadou esa opa-singillarni skotland-yardlik ziyrak va topqir izquvarga o'xshab uzoqdan turib qo'riqlardi, ya'ni kalta dumini antennaga monand ko'tarsa, xavf yaqinlashganidan darak berardi. Fokstererni yo'q qilish Turk Xulianga topshirilgan edi; bu uning sochma miltig'i us-tidan masxara qilib kulmoqchi bo'lishgani uchun emas, balki, Viktorino xuddi kechagidek eslaydi, bunday vazifa Turkka topshirilganining sababi u Ramireslarning kattasiga haddan ziyod ehtirom bilan qarar, ko'pincha buyuk bir sabr-toqat bilan soatlab ularning gir aylana panjara bilan ihotalangan bog'i atrofida aylanib yurar, taqdirning o'yinini qarang, xuddi ana shu paytda ko'rnamak qiz she'riy to'plamni qo'lidan qo'ymay (yoki pazandalar kitobini) akatsiya soyasida o'qib o'tirar va dunyoda Turk Xulian degan yigitning bor-yo'qligi mutlaqo xayoliga ham kelmasdi. Opa-singillar tez-tez kino va konsertga borib turishardi, boshqacha aytganda, demak, Xulian o'zining suriyaliklarga xos ayyorligi va livanliklar singari sabr-toqatli ekanidan zig'ircha foydalanmadi. Ajdodlaridan meros bo'lib kelgan bu fazilatni har kimga ishonaver-

maydigan ehtiyotkor Shadouni o'ziga o'rgatib olish uchun ishga soldi nazarida, omad kulib boqdi unga va kuchukchaning ishonchini qozondi-yu, oxiri uni aldab-suldab sayhonlikka olib bordi-da, sochma miltig'idan foydalanib otib tashladi. Birinchi o'q ko'ppakning ov itlariga yarashmaydigan katta qorniga tegdi, keyingisi esa uning terisini ilma-teshik qilib yubordi. Og'ir yaralangan Shadou chayqala-chayqala bazo'r koshin qoplangan devor yoniga bordi-da, bu notanish va kutilmagan tajovuzkorga la'nat o'qigandek cho'zib-cho'zib angilladi, so'nggi o'q chap ko'ziga kelib, xuddi dog' bo'lib ko'ringan yeriga tegdi; Shadou bir xalta jun va so'ngakdan farqi qolmay yer tishlab yotdi. Opa-singil Ramireslar kinogami, konsert tomosha qilganimi ketishgan, hovlining uzoq kunjagidagi oshxonada xizmatkorlar ivirsib yurishardi; Shadouning o'zi yashayotgan uy ostonasida hunaqa ahvolda o'lib ketganini egasi tugul, bironta tirik jon sezmedi, achinib tepasida ko'zyoshi to'kuvchi kimsa ham topilmadi.

Doktor Fortikning doberman-pincherlari bilan bo'lib o'tgan jang butunlay o'zgacha, jangari filmlarda ham uchramaydigan vaziyatda ro'y berdi. Bu itlar bir-biridan zarracha farq qilmas, uchovi bir-biriga shunaqayam o'xshar ediki, ularga laqab, ism qo'yishni birov xayoliga keltirmagan. Ahil va tiyrak itlar doktor Fortikning ko'shki oldida tiq etgan tovushni sezsa bormi, o'sha zahoti butalar orasidan uchib chiqishardi. Agar jonli ko'zlarining o'ynoqlab turishi bo'lmasa, ularni obsidian yoki bazaltdan yasalgan deb o'ylash mumkin. O'sha kuni kechasi yaxshilab o'rgatilgan itlar xavf-xatarni sezib, dunyoni boshiga ko'targudek akillashga tushishdi; ular o'zlari topgan quollarini o'qlab, daraxtzorda poylab o'tirgan Uilyam, Esekel va Pibe Londonolar tarafga yelib qolishdi. Ular-

ning sezgisi aldamagan, dahshatli zulmat og‘ushida uchta itning kallasi, oltita qulog‘i, olti nafar bodom ko‘zlarini halokat kutayotganidan ogoh etgandi. Uilyamning miltig‘idan otilgan birinchi o‘q eng oldinda shamoldek yelib kelayotgan itning temirdek ko‘ksiga tegdi. Qolgan ikkitasi bundan xulosa chiqarib zarracha xavotirga tushmadi, qo‘rqmasdan yelib kelaverishdi haqiqiy doberman jangda hech qachon orqaga chekinmaydi, shunda Esekel tepkini bosdi. Uning otgan o‘qi xato ketdi. Bu vahshiyona itlarning yetib kelishiga besh qadamcha qolganda Pibe Londono tahsinga sazovor mo‘ljali bilan itlardan birining boshini parcha-parcha qilib tashladi. Ana shundagina hovlidagi uylarning chirog‘i ketma-ket yondi. Uchinchi doberman bolalarga chunonam yaqin kelib qolgani-dan bitta sakrab, ko‘pik qoplagan o‘tkir so‘yloq tishini Uilyamning ko‘ksiga botirardi, lekin Ramunchoning eski revolveri bu vaziyatga so‘nggi nuqtani qo‘ydi – u otgan o‘q tovushidan tevarak-atrof larzaga keldi. Bahaybat it og‘zidan so‘laklarini sachratgancha yorongullar uzra dumalab ketdi va tovushi o‘chdi. Menga, to‘pponchamni ishlatishimga hojat qolmadi, Malvina, chunki navbat kelmadi; chunki yomg‘ir ostida qisqagina davom etgan jang tafsilotlarini bir daqiqa ham ko‘zdan qochirishni istamas edim. Yomg‘ir sevalab yog‘a boshladi. Uchta loklangan po‘latdek doberman abgorligidan qora-ko‘kish, o‘lganligidan ko‘kish-qora ahvolda qurbonlikka so‘yilgan buqalardek jiqqa ho‘l o‘t uzra cho‘zilib yotardi.

Endi Viktorinoga polkovnik Arelanoning nemis ovcharkasi bilan jangga chiqish qoldi. Uning gardanidagi tim qora juni bir tekisda ocharib borib biqiniga yetganda sarg‘ish rangga kirgan, dumi egri qilich singari yergacha tushib turar, choyshabday tili so‘yloq tishlari

orasidan chiqib, soat kaftgiri yanglig‘ tebranar, bu itning nomi o‘ziga o‘xshash va o‘zicha jarangdor Kayzer edi. It o‘z egasining buyruqlariga taqdiridan mamnun qullardek itoat etar, polkovnik esa Kayzerni kiftini keltirib maqtangani-maqtagan. Qo‘l ostimda xizmat qilgan soldatlardan birontasi Kayzerchalik tartib-intizomga rioya qilmagan, derdi polkovnik, hayratlanarli yeri shundaki, mana shu itoatkor it, polkovnikning yosh bolalari poni singari ustiga chiqib o‘ynashsa yoki do‘mboq qo‘lchalari bilan non, suyak bersalar-da, yolg‘ondan bir marta bo‘lsin irillab tishini ko‘rsatmaydigan Kayzer, po‘rtaxol butalari ostida shi‘ir etgan tovushni sezib qolsa, bir zumda ko‘zlarida o‘t yonayotgan dahshatli serberga aylanardi-qolardi. Viktorino panjara ortidan yog‘och o‘qtalib itning jig‘iga tega boshladi. Viktorino qorong‘ida itning paydor, bahaybat gavdasini, sakrashga chog‘lanib, yerga tirab turgan orqa oyoqlarining bukilishini, bo‘rinikiga o‘xshab quloqlari tikka ko‘tarilishi, irillashi, o‘tkir so‘yloq tishlarining yaltirashi, axir u bo‘ri naslidan bo‘lsa, ko‘z oldiga keltirdi. Viktorino uning vahshiyona bo‘kirishi, qum to‘shalgan yo‘lkadan tobora sharpasiz yaqinlashib kelayotgani, o‘zi brauning o‘qtalib tayyor turgan panjaraning narigi ichki tomonidan shundoqqina yoniga kelib olganini sezib ulgurdi. Viktorino chinakam sher ovlovchi kabi itning do‘ng peshonasini mo‘ljallab tepkini bosdi, o‘qning alangasi chaqmoq chaqiniga qo‘shilib ketdi. Viktorino zafar quchdi, – Viktorino yugurib kelib, to‘xtamasdan mototsiklga tirmashdi, egarga o‘tirayotib, motorni o‘t oldirdi. Uning besh nafar ulfati mototsikllarini tarillatib, pal-malar va samanlar ekilgan xiyobon orasidan olg‘a yelib borishardi. Polkovnikning xavotirli ovozi keldi. „Kay-

zer!“ deb chaqirdi u. Dastlab Kayzerni ko‘rib, darvoza oldidagi fonus osilgan simyog‘och ostida ziyrakkina uxlab yotibdi, deya o‘yladi. „Kayzer!“ U faqatgina itning tepasiga borib, qo‘lidagi fonarni yoqib, uning arslonnikidek keladigan kattakon kallasidan jildirab oqayotgan va chim ustida quyulib qotib qolayotgan qonni ko‘rgandagina fojia yuz berganini tushundi.

Bunaqasi bo‘lmagandi hali: ular bo‘yoqlari ko‘chib tushgan eski mashinada eng ashaddiy, butun Karakasda otning qashqasidek mashhur bachchalardan uchtasini aylantirib kelish uchun taklif etishganda ham, bu yaramas haromilar Simon Bolivar arkini bulg‘ab, ust-boshlarini yechib tashlashganda ham. Yarim kecha edi, ularni Vale Arriba klubiga olib borishdi, yomg‘ir ostida orqalariga va suzma xaltaga o‘xshab osilib turgan qorinlariga bo‘yoq surkab tashlab ketishganda ham;

doktor Echenagusiya jamiyatning yuqori tabaqasiga mansub jinoyatchilar yig‘ilib brij o‘ynayotganda hammaning oldida ularni yomonotliqqa chiqargani mayli, lekin jirkanib, nodonlar, uchiga chiqqan vahshiylar, degani uchun qilmishiga yarasha yap-yangi „Rolls-roysi“ni ko‘lga tashlab yuborishganida (ertasiga uni suvning ostidan ko‘tarib olish uchun portdagi kranni keltirishgandi) ham;

Kantrini ichimlik suvi bilan ta‘minlab beradigan suv omboriga azbaroyi o‘n ikki banka qizil bo‘yoq to‘kishganda, o‘shanda barcha dang‘illama uylardagi vodo-provod kranlaridan qondek qizil suv oqib tushib, ular esa suvni ekstremistlar zaharlashgan, deya mish-mish tarqatishganda va bir necha kun mobaynida hech kim bu suvdan ichishga, yuvinishga va hojatxonada ishlatishga yuragi dov bermaganda ham;

juhud zodagonlarning tantanali ziyofatiga bostirib kirib, qadimiy urf-odatga ko'ra tayyorlangan taomni tabarruklab berish uchun sinagogadan bir talay ravvinlar tashrif buyurishganda dasturxonning bir uchidan ushlab ko'chaga qarab yugurib qolishganda, samaraliklarning qadimiy ko'zalari, oshirilgan xamirdan tayyorlangan non, yog'da qovurilgan tuxumlar, tovuq bo'yinlari, yong'oqli tort – shularning bari-bari Iezakiil va Ieremiyaning duolariga aralashib yer bilan bitta bo'lganda ham;

Bexaranodagi taqvodor odamning uyida bazm-u jamshid tashkil etishganda ham, o'shanda ota-onasi bolalari bilan birga Yunonistondagi antik madaniyat yodgorliklarini ziyorat qilib kelgani ketishgandi, uyda yolg'iz portugaliyalik darbon chol nazorat ostida qolgandi. Ular 80 yashar munkillagan qariya ixchamgina joylashib yashayotgan uyni qulflab, yerto'ladan yashik-yashik shampän vinosi olib chiqishgan, Mona Liza ikkita dugonasi bilan „Yuhannoni qo'msab“ degan musiqa sadolari ostida o'ynashgan. Ertalab esa fors gilamlarini axlat bilan bezab-bejab qochib ketishganda ham;

yoki „Altamir“ kinoteatrida Frenk Sinatra „Tungi darveshlar“ yoki boshqa bir qo'shiqni aytayotganda ular konsert boshlanishidan oldinroq balkonni egallab olishgan va qiyqirib signal bergach, Esekel bilan Pibe Londono parterda o'tirganlar ustiga qoqolayotgan tovuqlarni irg'itib, qo'lansa yuvundini quyib yuborishgan edi. Zilzila, yer silkinyapti, qochinglar, tashqariga qochinglar, deya Ramuncho ovozi boricha hayqirgan, Viktorino esa o't o'chirish ballonini olib, jonning rohati, deb o'sha yuvundi bilan vahima aralash yugurayotgan odamlarning boshi uzra quyganda ham;

Amerika kollejida tahsil oladigan ikki nafar o'quvchi qizni El-Xunkito istirohat bog'ining xilvat kunjagiga olib borib, har qanday zabardast odamni yiqitadigan kuchli rom bilan tekila aralashgan kokteyl ichishga majbur qilib, keyin mast holda ikkovini sharmandayi sharmisor qilib katta ko'chaga tashlab ketishganda ham;

boshida Uilyamning sevgilisi bo'lib ularning yonida yurgan, pirovardida, hech bir sababsiz Xudojo'y bo'lib ketgan Dalila Montekatini degan qizdan o'ch olishganida ham, chunki Dalila Montekatini tanish-bilishlariga ularning orqasidan shunaqa dahshatli gaplarni tarqatib yurganki, uning adabini berib qo'ymasa bo'lmaydi, degan fikrga kelishgandi. Xudojo'y qiz ular bezori, qayerga borishsa ishkali chiqarishadi, tug'ilgan kunlarga ularni taklif qilmanglar, degan. Ana shundan keyin, bir kuni „Folksvageni“dan tushirib, o'sha payt televideniyeda ko'rsatilayotgan serial voqealariga monand tashlandiq bir uyga olib kirib, hamma yog'ingni tishlab tashlaymiz, deb shaytonvachcha Ramunchi esa inkvizitorlarga o'xshab tumshug'i ostida bog'bonning qaychisini sharoqa-shuruq ochib-yopib o'takasini yorgandi: „Tiz cho'kib kechirim so'ra! Oyoqlarimizni o'pib tavallo qil! Uilyamdan ham kechirim so'ra!“ Bechora Dalila Montekatini jonini azobga qo'ymay ulardan kechirim so'ragandi.

– Allo, allo, Xiomara, o'zingmisan, sira ichimga sig'mayapti, sig'dirolmayapman, o'lsin, kecha Londono o'n bir yoshga kirdi, o'shalarida edim, qara, kechagina sinfda mishig'ini oqizib o'tirgan bola bugun kap-katta yigit bo'lib mehmon kutayapti, kiyimi bashang, qiz boladek yuzlari qip-qizil – hali shoirlar yozadi-yu lolagun deb, xuddi o'shanaqa. Shoshmay tur, shunaqa stol yasatishgan, – odamning jonidan boshqa hamma narsa bor, bir

chekkadan gapirsam, kun kech bo'ladi, zerikmasding, bir daqiqa, sahbo ichishgani-chi qizlarning, voy-bo', bu ansambllar, hovuzga tushib vals chalishgani-chi, bunaqasini ko'rmagansan, dasturxonda, hozirgina aytdim, o'li-ib qolasan, nimalar yo'q, hammasini sanab berolmayman, asosiylarini aytay, jilla qursa, bo'lmasa, ichimga sig'mayapman. Xullas, yaxna kurka go'shti, undan keyin qip-qizil qilib qovurilgan butun-butun kurka qo'yilgan stolning to'rt chekkasiga, keyin, kattakon cho'chqa kallasi, yana kuydirilgan, ishshayib yotibdi, tunuka laganda, so'ng rostbif, mening jon-u dilim, juda totli, pishirgan odamning qo'li shirin ekan, rahmat; shampinondan tayyorlangan qayla, mayonez qo'shilgan qizi baliq, cho'chqa to'shi, xil-xil salatlar, parranda jigari, to'xta, langusta esimdan chiqay debdi, oq qayla bilan... voybo'! Xullas, mayli, raqs, kuy-qo'shiqlar avjiga chiqqan mahal, Xiomara, quloq sol, yaxshi eshityapsanmi o'zi, ha, xo'p-xo'p, ularning hovlisidagi havza bor-u, ichida ko'k, sariq, qizil lampochkalar o'rnatilgan, birdan porlab yonsa degin, buning ustiga gir aylanib o'rab turgan qizil va ko'k rangli chiroqlar baravar yonib, shunaqa chiroyli, rangdor bir manzara yuzaga keldiki, asti qo'yaverasan, Horun ar-Rashidning saroyida bo'lmagan bunaqa ranglar jilosi, hovuzda xuddi Yaponiyadagiga o'xshab oppoq nilufar qalqib-qalqib suzadi... Eh-he. Kontilon raqsi tugatugamas, qanaqadir, bir bemaza kuy yangradi, xuddi tog'dan mayda-mayda toshlar yoppasiga to'kilib tushayotgandek bir kuy ting'irlab turdi-da, birdan quloqni qomatga keltirgudek Venesuela milliy sozlari nechta bo'lsa jo'r ovozda yangrab qolsa-chi, qiyomat qoyim bo'lib ketdi, kimga kerak ekan bunaqa shovqin-suronli kuy, mehmonlar quloqlarini berkitib oldi, bu ham mayli, Xiomara, bunaqasini yetti

uxlab tushingda ham qo‘rmaysan, ko‘rolmaysan, bilasanmi nima, nima deytgandim, xullas, ha, xullas, tepalikdan qum to‘shalgan pastga qarab yarimyalang‘och bir ayol chopqillagancha tushib kelyapti, yarimyalang‘och, ichki kiyimi ham yo‘q, yolg‘iz qizil hoshiyali qora pantalonida, voy o‘lmasam, esing og‘ib qoladi. U Mona Liza degan ayol ekan, eshitmaganmisan uni, menga keyin Tita aytib berdi kimligini, hamma buni ko‘rib hang-mang qotib qoldi. Hovuz yoniga kelgach, Pibe Londono fohishaxonasi shu yerdami, desa bo‘ladimi? Bu ham holva. U bir o‘zi emasdi. Uning ortidan kimlar paydo bo‘ldi, bilasanmi? Bitta trusikda Viktorino Peralta, keyin anavi ingliz bola bor-ku, Uilyam, keyin anavi jinni-sang‘i bor-u, Ramuncho, hammasi kalta ishtonda. Ularni yaxshi bilasan. Men nima qilishimni bilmay qoldim. Beligacha yalang‘och badanlarida mushaklarini o‘ynatib turishibdi, baquvvat, Gerakl deysan, lekin yuz-ko‘zlariga qarasang, qaroqchilarga o‘xshashadi, bu shaykani la‘natlagan odam baraka topadi. Bu tantanali kechani buzishdi. Ular o‘zlarini allakim deb bilishadi. Hammasi g‘irt kazzob, uchiga chiqqan muttahamlar, mana kim. Bu yog‘ini eshit, ularni ziyofatga taklif qilishmagan ekan, shuning uchun o‘ch olish maqsadida shu noma‘qulchilikni o‘ylab topishgan, shekilli, Xiomara. Kishini g‘azablantiradigani shuki, mehmonlarning biron-tasi gapirmadi, g‘ing demasdan tomosha qilib turishdan nariga o‘tishmadi. Bir xillar bunday qabohatga qiziqsinib qarab turishdi, boshqalar qo‘rqanlaridan lom-mim deyisholmadi. Shunda ichkaridan doktor Londono chiqib keldi. Ularni bezorilar, qaroqchilar deb so‘ka boshladi, yo‘qollaring mening uyimdan, deb haydadi, oxiri bu ifloslarga musht o‘qtalib tashlandi. Voy Xiomara-yey, nima bo‘lganini ko‘rganingda edi, ha may-

li, ko'rma ham, kuyma ham! Viktorino Nenaning otasini, doktor Londononi ko'tarib havzaga qarab uloqtirsa bo'ladi? Boyaqish doktor, o'g'lining tug'ilgan kunini shunday chiroyli o'tkazayotganidan mamnun ota kiyim-piyimi bilan nilufarlar va oqqushlar orasiga shalop etib tushdi. Suvda butun mehmonlar ko'z o'ngida xuddi pingvin yoki oq ayiq singari tipirchiladi. Naqadar ayanchli, Xiomara, sen kulma, qarab turib ko'ksingni bir alam kuydirgandek bo'ladi. China Gor diels to'satdan o'krab yig'lab yuborsa-chi, u jazavaga tushib dod sola boshladi, Ramuncho bor-u, eshshak, to'ng'iz, uni yelkasidan olib bir siltagan edi, bechora, u ham shalop etib suvga tushdi, kulmagin, kuladigan joyi yo'q. Men qotib qoldim, bechora China nilufarlar orasida harir oq ko'ylakda xuddi Ofeliyaga o'xshaydi. Ofeliya kimligini bilasanmi o'zi? Yana bitta keksa odamni suvga uloqtirishdi, bilasanmi u kim edi, yigirma sakkizinchilar avlodiga mansub kishi edi. Janob Vilsonning og'ziga bus-butun ananasni kuch bilan tiqishdiki, jag'i ajralib ketishiga sal qoldi, keyin mehmon kutishayotgan zalga bostirib kirishdi-da, qo'llariga tushgan narsani polga ota boshlashdi, vazalar, chinni taqsimchalar, stullar, pardalar yer bilan bitta bo'ldi, eng oldinda Mona-Liza, uning ortida Viktorino – vahshiy hayvondan farqlari bormi? Yo'g'-a, Xiomara, sodda bo'lma, polit-siyachilar aralashmay tomoshabin bo'lib turishdi. Qizlarning otalari esa, Viktorinolar qochib ketishgach, itdan tarqaganlar, hali bu qilmishlaringiz uchun javob berasiz, degancha ortlaridan qichqirib qolishdi. Qorasi o'chib ketgandan keyin xinani boshqa joyingga qo'y, boya baqirish kerak edi ularga. Hali hech narsa qilishmasligi, qilolmasliklari aniq, bilasan, o'sha itlarning otalari bilan bu qizlarning otalari qalin do'st, ularning yuzidan o'tib

shikoyat qilisharmidi? O'ylaysanki, Arximiro Peralta Erediya bilan don Filiberto Ustoris janjalga boradimi? Hech qachon! Esekel Usta ris o'sha yerda, bitta shikoyat arizasi bilan adliya fakultetidan haydab yuborishlari mumkin. Lekin otasi bilan yuzko'rmas bo'lib ketishmaydimi? Men ulardan nafratlanaman, kuchim bor, deb ko'ngliga kelganini qilaveradi, itvachchalar, hammasi shunaqa, bir tiyinga qimmat, bunchalar ori yo'q, Xudosizlar, lekin baribir, baribir jazosini olishadi, unda kech bo'ladi, bo'pti, mayli, baqaloq, boshingni ham og'ritib yubordim, chao! Juda siqilib o'tirgandim, yuragimni bo'shatdim senga, chao!

Nena Londono tug'ilgan kuni sharafiga uyushtirilgan bayram tantanalari shu tariqa tugadi va Viktorino hamma do'stlari bilan xayrlashdi. Mono-Liza kiyinib Ramunchoning mototsiklida Kantri ko'chasi bo'ylab jo'nadi. Viktorino bir nimadan ko'ngli to'lmagan odamdek, to'g'ri uyiga bormay „Mazerati“sida Panamerika shohko'chasidan yuqoriga, tumanlarni ortda qoldirib, Los-Tekesdan ham, Los-Koloradosdan ham uzoqroqqa, Guayyas tarafga, odatda, Aragua daralarida yolg'iz kezib yuradigan alvastilar makoni Guayyas darasi tomon yo'l oldi. Ehtimol, uni alvastilar emas-u, shunchaki tog'lar nidosi o'ziga chorlayotgandir. „Mazerati“ pastlikka tusha boshlaydi, Viktorino tomdan tarasha tushgandek radioni qo'yadi – nogahon temir qutichadan Berlin orkestri ijrosida kuy yangraydi, nogahon yog'ochdan yasalgan qutichadan „Xayoliy simfoniya“ sadolari otilib chiqadi. Bunaqa kuy Viktorinoga notanish, biroq skripkaning yolvoruvchi ohanglari o'chirib qo'yishga yo'l qo'ymaydi. Skripkalarining ovozi tugagach, bitta-yu bitta valtorning mungli nolasi taraladi. Bas, bu tubanlik aro toliqdim kezib, deya

ko'nglidan o'tkazadi Viktorino. Bu baxtiqaro mamlakatdan Viktorino ketmasa bo'lmaydi, Malvina, bu hali murtak holiga ham kelmagan, hatto hali hosil bo'lmagan alaqdek, endi sirkalab konservalangan singari Vatanni tark etib ketmog'i shart. U o'zi bilan faqatgina siz haqingizdagi xotiralarni olib ketadi, xolos, u Malvina ismli ummonlar uzra parvoz qilguvchi samolyotda, Malvina-ning tarovati barq urib taralgan dengizlardan oshib o'tadi, Malvinaning rangi-ro'yi singari porlayotgan ummon ostida uchib boradi va sokin ko'rfaz sohilida, yarim kechasi uning kimligi va qayerdan kelganini hech kimsa bilmaydigan, soat kaftgiri ketma-ket o'n ikki marotaba Malvina-ning tabarruk ismini aytib zang uradigan zaminga qo'nadi. Siz mamlakat bo'lib shakllanmagan mana shu zindonda tiriklayin dafn etilgancha qolasiz, siz tonggi ibodatning yorqin gullari chiroy ochgan gladiolusi, tennis maydonida barq urgan liliya, xushmanzara g'ovning ortidagi chinigul, to'garak shakldagi idishda unib-o'sgan gullola, radiola yonidagi yakdona bo'tako'z, virgo potens, virgo clemens, virgo prudentissima¹ toki turmushga chiqquningizcha, yo otangiz yo amakingizning qirq yashar ulfati, huquq doktorimi yoki injener yoxud birja korchaloniga erga tekkuningizga qadar shunday bo'lib qolasiz. Shu choqqacha Karakas bunaqa to'ying shohidi bo'lmagan. Viktorino bunaqa telba-teskari, bachkana mamlakatdan jo'nab ketishi darkor, Malvina. Cherkov musiqa bilan charog'on chiroqlar og'ushida, kelin naqadar suluv, bamiqli farishta deysiz; siz kampirlar shivir-shiviri-yu organ sadolari aro qadam tashlaysiz, uni umr yo'ldoshim, de-yishga rozimisiz? Viktorino bu yangilikni Kopengagen-

¹Har narsaga qodir, gunohlarni kechuvchi, har narsani ko'ra biluvchi, bokira (*lot.*).

da, tasodifan kim qayerdadir, elchixonada, eski gazetalar-dan, dekabr sonida e'lon qilingani bo'yicha xabardor bo'ladi va sizni va sochlaringizga taqilgan atirgullar-u mo'tabar mehmonlarning suratlarini ko'rib qoladi. Viktorino senorita Malvina Peralta Uloaning qo'qqisidan va-fot etgani haqida ham xabardor bo'lishni istagan bo'lardi. Naqadar og'ir musibat, naqadar og'ir zarba, bunchalar sitamkor falak! Bunga chidash mumkin... lekin... Bu mamlakatdan u bosh olib ketmog'i kerak, Malvina. Malvinarang dengizlar osha, allaqanday ko'rimsiz portga ye-tib olsa bo'lgani, u yerda qora ishchi bo'lib ishlashni taklif etishadi, u matroslar va sayoq xotinlar bilan quchoqlash-gancha qipiq va chirmoy hidi anqigan qovoqxonalarda jin ichadi, ularga o'zi yaxshi ko'rib qolgan xolavachchasi haqida gapirib beradi, ular uning hasrat to'la qissalarini tinglab qo'rslik bilan xaxolab kulishadi. Viktorino mis qoplangan yaltiroq peshtaxtaga jindan bo'shagan stakani-ni taroqlatib uradi. Bu vahimali mamlakatdan u jo'nab ketishi shart, Malvina, faqat siz haqingizdagi yorqin xoti-ralarni o'zi bilan olib ketgani ma'qul, Malvina, skripka tovushi orasidan yomg'ir ostida oshiyonsiz qolgan kabu-tarning zorlanishi kabi arfaning guvullashi sizib chiqadi. Karayanning dirijyorlik tayoqchasi ishorati ila vals sa-dolari ko'kka o'rlaydi va uning ohanglariga monand „Mazerati“ tog' so'qmoqlari bo'ylab ohista burilib bora-di. Hamma, shular qatori men ham go'ngdan battarman, deb o'ylaydi Viktorino. Uning telbaligi siz tug'ilgan ku-ningizni nishonlayotgan kuni o'zidan ogoh etdi, Malvina. Viktorino ziyofat davomida sababini o'zi ham bilmagan holda, yolg'iz siz bilan raqs tushdi. Uning Lyusi degan tanishi bor edi, sizlar raqs tushayotganda najotsiz bo'zlar, ich-ichidan xo'rliigi kelardi: xolavachchalar o'zini bu-

naqa tutishi yaxshimas. Bir zamonlar uning mototsikli orqasiga mingashib uchishni yaxshi ko'radingiz, esingizdami, u otashin sevgingiz haroratini his qilardi; bir zamonlar siz havzada birga cho'milar edingiz, Viktorino suv ostidan bilintirmay suzib kelardi-da, vulqondek otilib yoningizda paydo bo'lardi, esingizdami; bir paytlar hammaga o'xshab uni Viktorino emas, Hindular Sardori deb atadingiz, nima uchun Hindular Sardori derdingiz?! Lekin uning telbalarcha sizni jonidan ortiq sevishi o'sha tavallud topgan ayyomingiz nishonlangan tantanalarda to'la namoyon bo'lgan edi. O'shanda Lyusi bog'da palmalar ostida o'krab-o'krab yig'lagan, Xudodan o'ziga o'lim tilagan edi. Viktorino faqat siz bilan raqs tushgan, atrofdagilarni tamomila unutib, bag'riga bosib, dunyoda ikkovingizdan o'zga hech kim yo'qdek sizga termilar, ko'zlaringiz nuri ostida erib, erigan sari shu'lalar sochib borardi. Xolavachchalar bu darajada bir-birini sevishi aql bovar qilmaydigan hodisa edi... Viktorino bu shafqatsizlik hukm surgan bemehr va zaharlangan, hamma bir-birini yomon ko'radigan, odamlari xuddi sudxo'r singari bir-biriga ola qaraydigan diyordan, kimki bir qadam qo'ysa nafrat botqog'iga botadigan, nafrat chirmovuqlari, nafrat qamishzorlari o'sib yotadigan zamindan tezroq jo'nab ketmog'i lozim, Malvina. U siz bilan raqs tusha turib yonoqlaringiz, yonar ko'zlaringiz va nafis lablaringizdan o'pard, atrofdagilar qarab turishganiga tupurardi. Onajon stolda sizlardan faromush nigohini uzmay o'tirardi: aka-singillar bo'lsa! Onajon rangi oppoq, esankiragancha shampän shishalari va shamdonlar ortida ma'yusgina o'tirardi; Lyusi g'oyib bo'ldi. Viktorino sizni ilk bor „mening munisam, vafodorim“, deb atadi, uning yonib, cho'g' bo'lib turgan yuragi oyoqlaringiz ostida bizbizak

singari chirillab aylanardi, u sizning jismingiz bo'lmasa yashay olmaydi, Malvina. Bu mamlakatdan qochish kerak, Malvina, uning yuragi kipriklangiz soyasida betartib ravishda uradi, nima qilib bo'lsa ham bu mamlakatda, bu baxtiqaro o'lkada qolmasligi lozim. Bu mamlakatdan, bu go'zal, shabnamdan isirg'a taqqan maysazorlardan, odamzotga itoat etishga shay jarliklar, tik qoyalarga e'tibor qilmay qochmasa bo'lmaydi. Hamma taslim bo'ladi, men esa yo'q, deb o'ylaydi Viktorino, siz ham, sizning qomatingizni ko'z-ko'z qilayotgan belgilar ham shunday desa kerak, Malvina. Viktorino bu mamlakatdan bir umrga ketib, siz haqingizdagi xotiralar bilan yashashni istaydi. Agar Viktorino siz bilan bu mamlakatda qolsa, agar o'zining hech kim, hech narsa daxl qilmaydigan erkinligidan voz kechsa, agar boshqalar singari yashashga yo'l qo'ymaydigan hayot tarziga chek qo'ysa; agar u allaqanday laycha yoki quloqlari uzun va serjun spanielga o'xshab sizning panohingizda, soyayi davlatingiz ostida, rozi bo'lib, tinchgina yashashga ko'nsa, Viktorinoning otasi yosh kelin-kuyovga to'rt tarafidan qulf urib o'sgan yam-yashil dov-daraxtlar, butalar o'rab olgan ko'shk sovg'a qilar, Malvina, sizning otangiz esa Kayopal Syu Vapkda nomingizga hisob ochib, mo'maygina pul o'tqazib qo'ygan bo'lardi. Don Viktorino Peralta asl otlarni yetkazib beradi, don Viktorino Peralta – zotdor buzoqlar bilan, sertuxum oq tovuqlar bilan ta'minlovchi bu uning o'zi, uning sohibjamol umr yo'ldoshi Malvina Peralta de Peralta yosh qora saman otda yuradigan xonim esa bu – siz. Naqadar qashshoq baxt, naqadar notavon saodat! Viktorino bu yurtdan bosh olib ketishi zarur, sizning xayollaringiz bilan dunyo bo'ylab sayohat qilgani yaxshi, allaqanday Rotterdam degan shaharda bitta-yarimtasiga

pichoq urishni afzal deb biladi. U axir, kimsan g'amgin to'polonchi bo'lsa, Malvina, yoshlik g'am-anduh chekishni yaxshi ko'radi, u sizni faqat mashinasining motori tufayli xalos bo'lishi mumkin bo'lgan hazin tanholik bag'ridan turib chorlaydi, siz unga javob bermaysiz. Unga olislarda osmonni qoplagan qora bulutlar javob qaytaradi. U yana qayta-qayta chaqiradi Sizni, chunki sizning marmar badaningiz kerak unga, Malvina, biroq unga olislarda nog'ora yanglig' yangragan momaqaldir oq javob qaytaradi, u sizni chaqiradi, sizni poydevori omonat bo'lib qolgan minorasidan turib chorlaydi, Malvina, biroq hozir hattoki qoramtir bulutlar ham unga javob qaytarmay qo'ydi. Viktorino bu sukunat bag'ridan qochmog'i kerak. Viktorino gazni bosadi, „Mazerati“ bir siltanib oldinga qanot chiqarib uchadi. O'ziga jalb etgan skripka kamonchasidan chiqayotgan „Qatl marosimi“ kuyi ostida „Mazerati“ havoni kesib uchadi, uning yonboshdagi oynasiga ikki dona sarg'ish kapalaklar urilib nobud bo'ladi. „Mazerati“ tog' yo'llaridan pastga o'qdek otilib tushayotgan hayqiriq timsoliga aylanadi. Men, axir, ulfatlarimiz ichida eng dilovari va abjiri emasmidim, deya o'ylaydi Viktorino. Ha, darhaqiqat, Malvina, Viktorino Peralta o'zidagi falsafa bakalavri donoligini gulxan yoqib kuydirgan, Viktorino Peralta onasining erkatoyi bo'lgan bolalarning itoatkorligidan ijirg'anardi, Viktorino Peralta inqilobiy kayfiyatdagi yoshlarning faoliyati haqida eshitgisi ham kelmasdi, Viktorino nimjon, serzavq shoirlarni xush ko'rmas, ularning ilhombaxsh she'rlariga tupurardi, Viktorino Peralta uchun mukammal narsaning o'zi yo'q edi, bu bilan u faxrlanardi, lekin uning ko'krak mushaklari rivojlangan va baquvvat, Malvina, bilaklari temirdek, jag'i mustahkam, yuragida dovi bor, kerak

bo'lsa osmondagi oyni olib bera oladi, Malvina, mashinani qaltis burilishda shunaqayam tez, benuqson haydadi, spidometr yuz, yuz o'nni ko'rsatadi. „Byuik“ni quvib o'tayotganda spidometr yuz o'nni ko'rsatayotgan bo'lsa, eski, ochsariq „Doj“ni ortda qoldirganda bir yuz yigirmaning ko'rsatardi, Viktorino juda aniq-puxta haydaydi, yuk mashinasi yonidan g'uvullab o'tib ketayotganda haydovchi ortida so'kinib qoladi. Men har qanday odamni rul chambaragiga o'xshab aylantirib tashlayman, deb o'ylaydi Viktorino, soatiga bir yuz qirq kilometda yurishga haqqi bor, Malvina. Tog' yo'llaridan soatiga yuz ellik kilometrda pastlikka tushib ketish unga cho't emas, o'rganib ketgan, Viktorino qachon bo'lmasin bu mamlakatdan qochib ketadi, Malvina, kutilmaganda yomg'ir tomchilay boshlaydi, maysalar va katta asfalt ko'chalarda yomg'irda yaltiraydi, Viktorino olislarda shamol uchirib ketayotgan qora bulutlarni quvib yetmoqchidek tezlikni kamaytirmaydi. Sel quyish ehtimoli tobora kuchaygan sari „Mazerati“ gijinglagan toychoqdek oldinga intiladi. „Farroshlar“ mashinaning old oynasidagi tomchilar yasagan to'rni artishga ulgurmay qoladi. Berlin filarmoniyasining orkestri zil chalishga o'tadi, uning tovushiga monand chaqmoq chaqib mashina kabinasini yoritib yuboradi, Viktorino tezlikni kamaytirish niyatida emas, shekilli. U juda yaxshi biladiki, bunaqa yo'llarda tormoz berish mumkin emas, bunaqa havoda yoki mashinani bir tomonga tortib ketganda to'xtatishga urinish xavfli. Buning ustiga o'ng tomonida jarlik. Asfalasofilning ketishi mumkin. Jala quyib yubordi, ana shu lahza muyulishdan odamlar va tovuqlar, bolalar va qo'shiqlar bilan to'la siyohrang avtobus otilib chiqdi-yu, Viktorino jon-jahdi bilan rul chambaragini burib yubordi, „Mazera-

ti“ juda katta tezlikda jarlikka sakradi, yo‘q, Viktorino emas, u sakragani yo‘q: Malvina, mening vafodorum, oh, tagipast, iflos, Onajon... deb o‘ylaydi Viktorino. Serrayib qotib qolgan siyohrang avtobusning yo‘lovchilari temirning qattiq urilganini eshitishga ulgurishdi, xolos. Karaxt bolalar bolg‘aning qoyatoshga urilganini eshitishadi, toshlarga urilgan trombonning ovozini, so‘ng oxiri shovqinli, shovullagan va shafqatsiz yakunni boshqa ovozlardan ajrata olishdi.

Biroq simfoniya bu bilan tugamaydi, Malvina. Apollonning farzandi, Orfeyning amriga binoan yoki avliyo Setsiliyaning, er-xotin Valerianlarning mensimasligiga qaramay, Berlin filarmoniyasi ijro etayotgan kuy tubsiz jarlik qa‘ridan eshitalardi. Hamon jala quyar, shunchalik shovqin solib yog‘ar ediki, suv qaynayaptimi yoki alvastilar o‘smir jasadida uzra bazm qilishyaptimi, bilib bo‘lmasdi...

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
Bizning shahrimizda o'g'ri yo'q. (<i>Hikoya</i>)	
<i>Qulman Ochilov tarjimasi.</i>	5
Yig'lagim kelsa ham yig'lamayman. (<i>Roman</i>)	
<i>Olim Otaxon tarjimasi.</i>	42

Adabiy-badiiy nashr

GABRIEL GARSIA MARKES

**BIZNING SHAHRIMIZDA
O‘G‘RI YO‘Q**

Hikoya va roman

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent 2020

Tarjimonlar:

Q. OCHILOV, O. OTAXON

Muharrir

Abdurahmon Jo‘rayev

Badiiy muharrir

Nasiba Ergasheva

Musahhih

Gulandom Umarova

Sahifalovchi

Habibulloh Haydarov

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
28.04.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$,
Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 83–20.
Buyurtma raqami 394-20.

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz

Markes, Gabriel Garsia.

M 28 Bizning shahrimizda o'g'ri yo'q. [Matn]: hikoya va roman /
G.G. Markes; tarjimonlar: Q. Ochilov, O. Otaxon. T.: „Ziyo nashr“
nashriyoti, 2020. 160 b.

ISBN 978-9943-6341-8-3

UO'K: 821.111(73)-31

KBK 84(7Kol)



t.me/ziyonashr



fb.com/ziyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-6341-8-3



9 789943 634183